6. *Kuzatuvchi sistemalar.* Bu sistemalarda boshqarilayotgan kattalikning berilgan qiymati juda keng chegarada ixtiyoriy qonun bo'yicha o'zgarishi mumkin (4-rasm). Misol uchun, radiolakator antenna.



4-rasm. Kuzatuvchi sistemalar.


Sistemaning ichki dinamik xususiyatiga asoslangan turlari.

Bunday sistemalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) chiziqli va nochiziqli;
- b) statsionar va nostatsionar;
- v) uzluksiz va uzlukli (diskret);
- g) to'plangan va taqsimlangan parametrlil;
- d) bir konturli va ko'p konturli.

Ustlash (superpozitsiya) uslini qo'llash mumkin bo'lgan sistemalar *chiziqli sistemalar* deyiladi.


Chiziqli sistemalarda chiqishdagi kattalikning o'garishi kirishidagi kattalikning o'zgarishiga proporsional holatda o'zgaradi.



Agar sistema elementlarining parametrlari vaqt mobaynida o'zgarmasa, bunday sistemalar *statsionar sistema* deyiladi.

Parametrlar vaqtga bog'liq bo'lmagan sistemalar *nostatsionar sistema* deb aytiladi.

Uzluksiz sistema



Ham uzlukli ham uzluksiz sistemalar.

Keltirilgan sistemalar *bir o'lchamli konturlar* deyiladi. Agar kirish, chiqish kattaliklari birdan ortiq bo'lsa *ko'p o'lchamli konturlar* deyiladi.

Agar sistema elementlarining xossalari boshqarish ob'ektining fazoviy koordinatalariga bog'liq holda o'zgarsa, *taqsimlangan*, fazoviy koordinatalarga bog'liq bo'lmasa *toplangan parametrli sistemalar* deyiladi

Avtomatik boshqarishning asosiy ko'rinishlari

Texnika taraqqiy etishining 1-bosqichida berilgan rostlanuvchi kattaliklarning o'zgarmas qiymatini avtomatik boshqarishning faqat bittagina ko'rinishi amaliyotda qo'llanar edi. Avtomatik rostlashda uzoq vaqtlar davomida shaxsan shu ko'rinish bor edi. Ularning butunlay esdan chiqmaydigan quyidagi oltita ko'rinishini yuqotmaydigan faqatgina kelajakda emas bugungi kunda ham mavjud ko'rinishlarining soni keyinchalik ko'paydi.

Stabillash. Boshqarish kattaligining doimiyligini ushlab turuvchi tizimlar barqarorlashgan tizimlar deb ataladi. Ularning kerakli qonuni quyidagicha bo'ladi: $X_0(t)=const$.

Statik regulyator rostlanuvchi kattalikning xatoligini o'zgarmas qiymatda ushlab turadi. Statizm-salt yurishdan to belgilangan yurishgacha bo'lgan kuchlanishdagi xatoliklarning o'zgarish kattaligidir. Ayrim tizimlarda statik xatolik qatnashmaydi. Tizimning struktura kuchi nolga teng bo'lgan hollarda va astatik rostlashda u rostlashga o'tadi.

Astatik rostlashga ega bo'lish uchun regulyatorlarda rostlanuvchi organning joylashishi va rostlanuvchi qiymatning kattaligi orasida rostlanuvchi kattalikning qiymati xoxlagan kuchlanishni ko'tarishi maqsadida mustahkam tobelikdan chetda bo'lishi kerak. Buning uchun rostlash zanjiriga astatik zveno kiritish kerak.

Programmali boshqarish. Dasturiy boshqarishda funksiyalashtirish algoritmi berilgan va dasturlarni qayta ishlovchi $X_0(t)$ maxsus qurilma qurish mumkin. Shunday qilib, 1.2-v rasmda ko'rsatilgan barcha sxemalarda $X_0(t)$ funksiya berilgan, zveno 1 esa bu funksiyani bajaruvchi dasturiy boshqarish sinfiga kiruvchi dastur datchigini o'zida aks ettiradi. Dasturiy boshqarish istalgan boshlang'ich prinsip yoki ularning kombinatsiyasi yordamida amalga oishirilishi mumkin.

Kuzatuvchi sistemalar. Kuzatuvchi tizimlarda funksiyalashtirish algoritmi oldindan aniq bo'lmaydi. Odatda bunday tizimlarda rostlash kattaligi kuzatilayotgan ayrim tashqi faktorlarda o'zgarishni qayta tiklashi kerak. Avtomatik boshqariluvchi zenit asboblari kuzatuv maqsadlariga qarata tez aylantirilishi kerak. Kuzatiluvchi tizim boshqarishning istalgan boshlang'ich prinsipi asosida to'ldirilgan bo'lishi mumkin va dasturiy boshqarishning munosib tizimidan dastur datchigi o'rniga tashqi omillarni o'zgarishga yaqinlashtiruvchi qurilmani qo'llash bilan farqlanadi.

Sifat ko'rsatkichlari ekstremumini qidiruvchi sistemalar. Jarayon samaradorligi yoki jarayonlarning sifat ko'rsatkichi bilan bir qatorda doimo joriy koordinatalar sistemasining vaqt funksiyasi ifodalangan bo'lishi mumkin. Agar u sifat ko'rsatkichlarini maksimal darajada ushlab tura olsa boshqarishni optimal deb

hisoblash mumkin. Masalan, radiopriyomnikni to'liq uzatuvchi stansiyaning eng katta balandligida qabul qilishga yoki indikator lampasini eng yuqori nurlanishga to'g'rilash. Bunday boshqarish bitta noma'qul xususiyatga ega: to'g'rilash nuqtasi har-xil g'alayonlar ta'sirida bo'lganda ekstremumga qo'shilganligining noma'lumligi ko'rinib turadi. Boshqarishda rostlanuvchi organlarni ekstremumga etkazish uchun unga qandaydir ta'sir ko'rsatish kerak bo'ladi. Shuning uchun ekstremal boshqarish qidirishdan boshlanadi: avval tanlangan qandaydir yo'nalishdagi kichkina sinov xarakatlari o'tkaziladi. Unda bu sinovdagi tizimning reaksiyasi tahlil qilinadi, undan keyin tahlil natijalari bo'yicha impuls ko'rinishidagi tizimni ekstremumga yaqinlashtiruvchi boshqaruv harakatlari hosil qilinadi.

Optimal boshqarish. So'nggi yillarda texnik tizimlardagi ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini oshirish kabi tashkiliy boshqaruv tizimlarida ham korxonalar, tashkilotlar va xalq xo'jaligining tarmoqlarini faoliyatini mukammallashtirish uchun optimal boshqarish usuli qo'llanila boshlandi.

Dinamik texnik tizimlarda boshqarishda o'tish jarayonlarini optimizatsiyalashtirish doimo ahamiyatga ega. Ularda sifat ko'rsatkichi koordinataning faqatgina joriy qiymatlaridan emas, balki ular xarakterining oldingi, hozirgi va keyingi o'zgarishlari bilan xarakterlanadi va ayrim koordinata funktsionallarining xosil bo'lishi yoki vaqti bilan ifodalanadi.

O'xshash dinamik topshiriqlarda optimal boshqarishni topish uchun boshqarish jarayonida qiyin matematik topshiriqlarni variatsion hisoblash usuli bilan yoki matematik dasturlashni tizimni matematik tavsifining ko'rinishiga bog'liq xolda echish talab etiladi.

Adaptiv sistemalar. Aniq sharoitlarda tashqi shovqinlar ba'zan faqatgina koordinata o'zgarishigina emas, balki parametrlarining o'zgarishi aniqlangan ballistik raketalariga o'xshash tizimlarda o'zgarish hosil bo'ladi.

O'zining o'lcham qiymatlarini yo'lovchi holat tahlilining asosiga ko'ra kutilmaganda tashqi sharoitning o'zgarishini, yoki tizimni berilgan ishning sifatini saqlagan holda o'zini tutgan tizimlar adaptiv tizimlar deb ataladi. Adaptatsiya termini biologiyadan olingan bo'lib, unda maqsadlarning o'zgaruvchan faoliyatini saqlagan bo'lsa organizm moslanuvchan bo'ladi. Lekin boshqarish nazariyasida adaptatsiya xaqidagi tushunchalar ataylab qisqartirilgan: unga moslanuvchanlikning shunday ko'rinishlari kiradiki, ular boshqaruvchi qurilmaning parametrlarini o'zgartirish yo'li bilan yoki bajargan ishining natijalariga ko'ra tizimning sxemasini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Adaptiv tizimlar ba'zan parametr qiymatlarining o'zgarishiga ko'ra o'zi to'g'rilanuvchan deb ataladi, struktura va boshqarish algoritmi o'zgaruvchan tizimlar esa o'zi tashkillanuvchan adaptiv tizimlar deb ataladi.

Rostlashning asosiy qonunlari. Ob'ektda boshqaruvchi ta'sir inersionsiz boshqarish qurilmasi yordamida ishlab chiqilsa boshqarish qonunlari o'zaro bog'liq bo'ladi.

Qonunlarni ta'riflashda o'lchamsiz o'zgaruvchan ta'sirlarni qo'llash ancha oson bo'ladi:

$$\varepsilon = \Delta x / x_a \quad \mu = U / U_a \quad \text{bu erda } x_b \text{ va } U_b \text{ bazaviy qiymat.}$$

Proporsionallik qonuni: $\mu = k_p \varepsilon$

Regulyator shu qonunga bo'ysungan xollarda boshqarishni boshqarishni proporsional deb atash mumkin. O'zgarmas k_p -regulyatorning uzatishlar soni deyiladi, teskari kattaliklar esa regulyatorning statizmi deyiladi. Regulyatorning statizmi o'sishi bilan birga roslash statizmi xam o'sib boradi.

Integral qonuni (I):

$$\mu = \frac{1}{T} \int_0^1 \varepsilon dt \quad \text{ili} \quad d\mu/dt = \varepsilon/T$$

O'zgarmas vaqt birligi T ni integrallashning o'zgarmas vaqti deb ataladi. Astatik integral regulyator yordamida ko'rilayotgan oddiy astatik roslash sxemasini amalga oshiriladi.

Proporsional-integral qonun (PI):

$$\mu = k_p \left(\varepsilon + \frac{1}{T} \int_0^1 \varepsilon dt \right)$$

Ba'zan uni integral korreksiyalashning proporsional qonuni deb ataladi. Proporsional-integral regulyator astatik roslashni xam ta'minlaydi. Bunda tenglamaning $d\mu/dt = k_p (d\varepsilon/dt + \varepsilon/T)$ ko'rinishga kelishiga ishonish mumkin.


Muvozanatlilik $\varepsilon = 0$ bo'lganda o'zgarmas xarakatlarning muvozanat xolati $d\mu/dt = 0$; $d\varepsilon/dt = 0$ bo'lishi kerak. Proporsional-integral-differensial qonun (PID).

T_I va T_D integrallash va differensiallashning o'zgarmas vaqti deb ataladi. Proporsional-integral-differensial regulyator astatik roslashni xam ta'minlaydi. Jarayonning sifatini oshirish uchun roslash qonuniga $d\varepsilon/dt$ kiritiladi.

MA'RUZA №5
AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMALARDAGI TA'SIRLAR VA
SIGNALLAR XARAKTERISTIKALARI. ABS ELEMENTLARINI STATIK
XARAKTERISTIKALARI, CHIZIQLANTIRISH.

Statik va astatik rostdash

Yuklamaning har qanday muvozanat qiymatiga boshqariluvchi kattalikning yangi muvozanat qiymati to'g'ri kelsa, bunday rostdashga *statik rostdash* deyiladi.




3.1-rasm. Statik rostdash.

$$\delta_{cm} \% = \frac{y_{max} - y_{min}}{y_{min}} \cdot 100\% - \text{statizm, } Q - \text{yuklama.}$$

Yuklamaning har qanday muvozanat qiymatiga boshqariluvchi kattalikning bir xil qiymati to'g'ri kelsa, bunday boshqarishga *astatik boshqarish* deyiladi.

Astatik sistemalarda boshqariluvchi kattalik bilan boshqariluvchi organ o'rtasidagi bog'liqlik yo'qotilgan bo'lib, bu bog'lanish sistemaga quyidagicha astatik zveno kiritilishi bilan amalga oshiriladi.

Integrallash amalini bajaruvchi elementga *astatik zveno* deyiladi.



2-рasm. Астатик ростлаш.

ABSlarning dinamik va statik tenglamalari

ABSlar asosan ikkita rejimda ishlaydi: statik (barqaror) va dinamik.


ABSlari statik (barqaror) rejimda ishlaganda:

a) Ob'ektga kiruvchi moda yoki energiya miqdori, undan chiqadigan moda yoki energiya miqdoriga teng bo'g'ishi kerak, $x=y$.

b) Rostlanuvchi yoki boshqaruvchi parametr vaqt davomida o'zgarmas bo'lishi kerak ya'ni $y(t)=const$.

v) ABSsining rostlash organi harakatsiz turishi kerak.


Statik rejimda kirish kattaligi bilan chiqish kattaligi grafik ko'rinishda yoki ma'lum algebraik tenglama ko'rinishida berilishi mumkin. Agar chiqish kattaligi kirish kattaligi bilan Chiziqli bog'langan bo'lsa, shu bog'danishni ifodalovchi tenglama to'g'ri *Chiziqli tenglama* deyiladi, ya'ni $y=b+ax$, $y=ax$. Sistemaning turg'un holatini ifodalovchi sistemaga *statik tenglama* deyiladi.



3-rasm.

Sistemaning asosiy ish rejimi bu dinamik rejim hisoblanadi. Chunki bu rejimda sistemaga har xil signallar ta'sir etib, sistema harakatda bo'ladi va bu harakat differensial tenglama orqali ifodalanadi.

Sistemaning dinamik holatini ya'ni (o'tkinchi jarayon) holatini ifodalovchi tenglamaga *dinamik tenglama* deyiladi.



4-rasm.

Demak dinamik rejimni ifoda etuvchi differensial tenglama shu holatning o'zini, harakat tezligini hamda harakatning tezlanishini ifoda etadi.

$$F(y, \dot{y}, \ddot{y}, x, \dot{x}) + f = 0, \quad (1)$$

bunda x, f – kirish kattaligi; y – chiqish kattaligi. (1) tenglama dinamik rejimning tenglamasi.

Statik rejimda esa, $y=const$; $x= const$;

$$F(y;0;0;0;x;0) + f = 0. \quad (2)$$

Chiziqlantirish



Chiziqlantirish ikki xil bo‘ladi:

1. o‘rtacha qiymatni olish usuli;
2. kichik og‘ish usuli.

Real sharoitlarda ABSlarni elementlari egri Chiziqli xarakterga ega. Demak u elementlardagi jarayonlar noChiziqli differensial tenglama bilan ifodalaniladi. NoChiziqli differensial tenglamalarning umumiy echimi bo‘lmaganligi sababli bu elementlarning xarakteristikalarini Chiziqli differensial tenglamalar bilan almashtiriladi.

NoChiziqli differensial tenglamani Chiziqli differensial tenglama bilan almashtirish Chiziqlantirish deyiladi.

1. Agar egri Chiziqli shunday ko‘rinishda bo‘lsa, o‘rtacha qiymatni olish usuli qo‘llaniladi (5a-rasm).



5-rasm. O‘rtacha qiymatni olish usuli (a) va kichik og‘ish usuli (b) tavsiflari.

2. *Kichik og‘ish usuli.* Bu usulda elementning statik xarakteristikasi $y=f(x)$ kirish signalining ma’lum x_0 qiymatida Teylor qatoriga yoyiladi (b-rasm).

$$y = y_0 + \frac{dy}{dx} \Delta x + \frac{d^2 y}{dx^2} \Delta x^2 + \frac{d^3 y}{dx^3} \Delta x^3 + \dots$$

Agar $\Delta x \rightarrow 0$ ikkinchi va uchinchi tartibli tenglamalar nolga teng bo‘lib tenglama $y = y_0 + \frac{dy}{dx} \Delta x$ bo‘li qoladi, u holda $\Delta y = y - y_0 = \frac{dy}{dx} \Delta x$; $\Delta y = \alpha \cdot \Delta x$.

Chiziqlantirishning bu usullarini qo‘llash shartlari:


1. $\Delta x, \Delta y$ - juda kichik bo‘lishi kerak;
2. $y = f(x)$ - funksiya uzluksiz funksiya bo‘lishi kerak.

MA'RUZA №6
LAPLAS ALMASHTIRISHINING ASOSIY XOSSALARI.

Tipik kirish signallari

Sistemada bo'layotgan jarayonni o'rganish uchun uni ifoda etuvchi differensial tenglamaning echimini yoki bu tenglamani qandaydir yo'l bilan topish kerak.

Buning uchun kirish signali vaqtga bog'liq bo'lishi shart. ABSlarida $x(t)$ va $f(t)$ signallarini kirish signallari deyiladi, $y(t)$ ni chiqish signali yoki kirish signalidan olingan reaksiya deb ataladi.





1 – rasm.

Sistemaning dinamik xususiyatlarini aniqlashtirishda quyidagi tipik kirish signallaridan foydalaniladi:

1. *Birlik pog'onali signal yoki pog'onali funksiya.*

$x(t) = A \cdot 1(t)$ bilan ifodalanib, $A = \text{const}$

$$1(t) = \begin{cases} 1 & \text{azap } t \geq 0 \\ 0 & \text{azap } t < 0 \end{cases} \text{ birlik pog'onali funksiya}$$



2 – rasm.

$$x(t) = \begin{cases} A \cdot 1(t) & \text{azap } t \geq 0 \\ 0 & \text{azap } t < 0 \end{cases} \text{ bu degani o'zgarmas kuchlanish ulash deganidir.}$$

Misol sifatida o'zgarmas tokni ulashni keltirish mumkin.

Sistemaga yoki zvenoning pog'onali signaldan olingan reaksiyasiga *o'tkinchi xarakteristika* deb ataladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.


Pog'onali signal Laplas tasviri $L\{A \cdot 1(t)\} = A \frac{1}{p}$;

2. *Impul'sli signal (funksiya).*

$$x(t) = A \cdot \delta(t), \quad A = \text{const.}$$

$\delta(t)$ ning amplitudasi 0 da ∞ ga teng bo'lib, davomiyligi cheksiz kichik bo'lgan funksiyaga aytiladi.

$$\delta(t) = \begin{cases} \infty & \text{azap } t = 0; \\ 0 & \text{azap } t \neq 0. \end{cases} \quad \int_0^{\infty} \delta(t) dt = 1$$



3 – rasm.

$\delta(t)$ ning Laplas tasviri birga teng, ya'ni $L\{\delta(t)\} = 1$.

Sistema yoki zvenoning birlik impulsli funksiyadan olingan reyaksiyaga *impulsli o'tkinchi xarakteristika* yoki *vazn funksiyasi* deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilanadi.

3. *Garmonik (sinusoidal) signal (funksiya).*

Bu signal kaqiqiy yoki kompleks ko'rinishda bo'lishi mumkin


$$x(t) = A_k(\omega) \sin(\omega t + \varphi_k(\omega));$$

$$x(t) = A_k(\omega) \cos(\omega t + \varphi_k(\omega)).$$

$$\dot{x}(t) = A_k(\omega) [\cos(\omega t + \varphi_k) + j \sin(\omega t + \varphi_k)] = A_k(\omega) e^{j(\omega t + \varphi_k)} - \text{kompleks ko'rinishi.}$$

$A_k(\omega) = 1$ - kirish signallarining amplitudasi; $\varphi_k(\omega) = 0$ - kirish signalining fazasi; ω - chastotasi, $\omega = \frac{2\pi}{T}$; T - davr, $T = \frac{2\pi}{\omega}$.

Chiziqli statsionar bir o'lchamli sistemaning kirishiga $x(t) = A_k(\omega) e^{j(\omega t + \varphi_k(\omega))}$ signal ta'siri berilganda uning chiqishidagi majburiy tebranishlari kirish signalining tebranishlari chastotasiga teng chastota bilan tebranish kosil qiladi. Lekin chiqish tebranishlari amplitudasi $A_k(\omega)$ va fazasi $\varphi_k(\omega)$ kirish tebranishlari amplitudasi va fazasidan farqli bo'lgan garmonik qonun bo'yicha o'zgaradi.



4 – rasm.

Sistema yoki zvenoning garmonik signaldan olingan reaksiyasiga *chastotaviy xarakteristika* deyiladi.

- 4) $x(t) = A * t$ – chiziqli signallar.
- 5) $x(t) = A * t^2$ – kvadrat signallar.
- 6) $x(t) = A * t^3$ – kub signallar.

ABS larning chastotaviy xarakteristikalari

Chiziqli statsionar sistemalarni tasvirlashda chastotali xarakteristikalar juda muhim rol o'ynaydi. Bir o'lchamli chiziqli statsionar sistemaning umumiy ko'rinishdagi operator tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + a_2 p^{n-2} + \dots + a_n) y(p) = (b_0 p^m + b_1 p^{m-1} + b_2 p^{m-2} + \dots + b_m) x(p).$$

Uzatish funksiyasining ta'rifiga ko'ra

$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = \frac{b_0 p^m + b_1 p^{m-1} + b_2 p^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + a_2 p^{n-2} + \dots + a_n} = \frac{P(p)}{Q(p)}.$$

$W(j\omega)$ funksiyaning uzatish funksiyasi $W(p)$ dan $p = j\omega$ bilan almashtirish orqali olinadi va *chastotaviy uzatish funksiyasi* deyiladi

$$W(j\omega) = \frac{b_0 (j\omega)^m + b_1 (j\omega)^{m-1} + b_2 (j\omega)^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 (j\omega)^n + a_1 (j\omega)^{n-1} + a_2 (j\omega)^{n-2} + \dots + a_n}.$$


Chastotaviy uzatish funksiya $W(j\omega)$ chatota deb ataluvchi kaqiqiy o'zgaruvchi « ω » ga bog'liq bo'lgan kompleks funksiyadir.

$W(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega)$ - algebraik ko'rinishi;

$W(j\omega) = A(\omega)e^{j\varphi(\omega)}$ - darajali ko'rinishi,

bu erda $U(\omega)$ - kaqiqiy qism; $V(\omega)$ - mavkum qism; $A(\omega)$ - amplituda; $\varphi(\omega)$ - faza.

$$A(\omega) = \sqrt{U^2(\omega) + V^2(\omega)} ; \varphi(\omega) = \text{arctg} \frac{V(\omega)}{U(\omega)}$$



8 – rasm.

Kompleks tekisligida $W(j\omega)$ funksiyasini \overline{OC} vektor orqali ifodalash mumkin. Bu vektorning uzunligi chastotali uzatish funksiyasining amplitudasi « A »ga vektorning kaqiqiy musbat oq bilan xosil qilgan burchagi fazasi « φ »ga teng bo'ladi (1-rasm).


CHastota noldan chiksiz ($0 < \omega < \infty$) oraliqda o'zgarganda \overline{OC} vektorning kompleks tekisligida chizgan egri chizig'iga *amplituda-fazali xarakteristika* (AFX)

deyiladi, yoki boshqa qilib aytganda AFX deb kompleks tekisligida chastotaning o'zgarishiga qarab amplituda va fazaning o'zgarishiga aytish mumkin.

CHastotali uzatish funksiyasining *amplitudasi* chiqish signalining amplitudasini kirish signalining amplitudasiga nisbatan necha marotaba kattaligini ko'rsatadi. CHastotali uzatish funksiyasining moduli amplitudasini beradi, ya'ni

$$A(\omega) = \text{mod } W(j\omega) = \frac{A_u(\omega)}{A_k(\omega)}; \text{ chastotali uzatish funksiyasining argumenti chiqish va}$$

kirish signallari orasidagi burchak siljishini ko'rsatadi, ya'ni $\varphi(\omega) = \arg W(j\omega)$;



9 – rasm.

$$W(j\omega) = \frac{y(j\omega)}{x(j\omega)} = \frac{A_u(\omega)e^{j[\omega t + \varphi_u]}}{A_k(\omega)e^{j[\omega t + \varphi_k]}} = A(\omega)e^{j\varphi(\omega)}$$

$A(\omega)$ - kuchaytirishning amplitudasi

$$A(\omega) = \frac{A_{\text{chik}}(\omega)}{A_{\text{kir}}(\omega)}; \varphi(\omega) = \varphi_{\text{chik}} - \varphi_{\text{kir}}.$$

$W(j\omega)$ - amplituda fazaviy xarakteristika (AFX);

$U(\omega)$ - kaqiyiy chastotaviy xarakteristika (KCHX);

$V(\omega)$ - mavkum chastotaviy xarakteristika (MCHX);

$A(\omega)$ - amplituda chastotaviy xarakteristika (ACHX);

$\varphi(\omega)$ - faza chastotaviy xarakteristika (FCHX).


Bu xarakteristikalarning kammasi oddiy chiziqli masshtabda chiziladi. YUqoridagi xarakteristikalardan tashqari quyidagi ikkita logarifmik xarakteristika kam mavjuddir.

$L(\omega) = 20 \lg A(\omega)$ funksiya - *logarifmik amplituda chastotaviy xarakteristika* (LACHX) deyiladi. Amplitudaning $\lg \omega$ ga nisbatan chizilgan grafigiga *logarifmik amplituda chastotaviy xarakteristika* (LACHX) deyiladi. $\varphi(\omega)$ ni $\lg \omega$ ga nisbatan chizilgan grafigiga *logarifmik fazo-chastotaviy xarakteristika* (LFCHX) deyiladi.

$\lg \omega$ ning o'lchov birligi «dakada», bir dekada chastotaning o'n marta oshishini bildiradi.

$L(\omega)$ ning o'lchov birligi «detsibell» quvvatni o'n marta ko'paytirish bir bellni beradi, ya'ni $1\text{d}\beta = \frac{1}{10} \text{bell}$.

$$L(\omega) = 10 \lg P(\omega) = 10 \lg U \cdot I = 10 \lg A^2(\omega) = 20 \lg A(\omega).$$



MA'RUZA 7.
CHIZIQLI SISTEMALARNI DINAMIK XARAKTERISTIKALARI.
DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

REJA:

1. Umumiy tushunchalar. Xolatning differensial tenglamalari.
2. Matematik modelni kurish

Sistemaning *dinamik xarakteristikalari* (matematik modeli) deb vaqt davomida uning holatini aniqlash(hisoblash) imkonini beradigan hamda analitik yoki grafik yoki jadval ko'inishdagi ifodasini tushunamiz.

1. Umumiy tushunchalar. Holatning differensial tenglamalari.

Ko'p hollarda boshqarish obyektining matematik modeli sifatida turli shakllarda ifodalangan differensial tenglamalardan foydalaniladi.

Chiziqli ko'pkanalli obyektlar quyidagi ko'inishdagi tenglamalar sistemasi bilan ifodalanadi:

$$\dot{x} = Ax + Bu. \quad (1)$$

Bu yerda $x \in R^n$ - holat vektori, n – obyektning tartibi; $u \in R^m$ - boshqariladigan ta'sirlar vektori, $m \leq n$; A – koeffitsiyentlarning kvadrat matritsasi; B - koeffitsiyentlarning to'g'riburchakli matritsasi.

(1) tenglama *holatning differensial tenglamalari* deb ataladi..

Obyektning chiqish o'zgaruvchilari quyidagi ko'inishda berilgan *chiqish tenglamasi* ga asosan o'zgaradi

$$y=Cx, \quad (2)$$

Bu yerda $y \in R^m$ - chiqish vektori; C - koeffitsiyentlarning to'g'riburchakli matritsasi.

(1) va (2) tenglamalar *chiziqli statsionar obyekt*ni ifodalaydi. Agar uning parametrlari vaqt bo'yicha o'zgarsa, u holda bunday obyekt **nostatsionar deyiladi**. Uning matematik modeli (1)-(2) lar orqali ifodalanib, bu yerda: $A=A(t)$; $B=B(t)$; $C=C(t)$ munosabatlar o'rinli bo'ladi.

Bir kanalli obyektⁿⁱ tavsiflash uchun skalyar differensial tenglamalardan foydalaniladi:

$$y^{(n)} + a_n y^{(n-1)} + \dots + a_2 \dot{y} + a_1 y = bu, \quad (3)$$

Bu tenglamani ham tegishli o'zgartirishlar kiritgandan so'ng (1) va (2) ko'inishga keltirish mumkin. $u \in R^1$ i $y \in R^1$.

1-Misol. Modeli quyidagi tenglama bilan ifodalangan bir kanalli obyektning holat tenglamasini yozing

$$\ddot{y} + 3\dot{y} + y = u.$$

Yechish:

1) Agar holat o'zgaruvchisi sifatida chiqish parametrini va uning hosilasini tanlasak, ya'ni $x_1 = y$; $x_2 = \dot{y}$, u holda holatning sodda (kanonik) tenglamasini quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$\begin{cases} x_1 = x_2; \\ \dot{x}_2 = -x_1 - 3x_2 + u; \\ y = x_1; \end{cases} \quad A = \begin{bmatrix} 0 & 1 \\ -1 & -3 \end{bmatrix}; \quad B = \begin{bmatrix} 0 \\ 1 \end{bmatrix}; \quad C = [1 \quad 0].$$

2) Agar holat o'zgaruvchilarini quyidagicha tanlasak, ya'ni: $x_1 = y$; $x_2 = \dot{y} + 3y$; u holda holatning yangi tenglamasiga ega bulamiz:

$$\begin{cases} x_1 = -3x_1 + x_2; \\ \dot{x}_2 = -x_1 + u; \\ y = x_1; \end{cases} \quad A = \begin{bmatrix} -3 & 1 \\ -1 & 0 \end{bmatrix}; \quad B = \begin{bmatrix} 0 \\ 1 \end{bmatrix}; \quad C = [1 \quad 0].$$

Umumiy xolda birkanalli obyekt kuyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$y^{(n)} + a_n y^{(n-1)} + \dots + a_1 y = b_m u^{(m)} + \dots + b_0 u; \quad n \geq m, \quad (4)$$

Bu tenglamadan (1)-(2) kurinishdagi vektorli –matritsali tenglamalar sistemasi utish mumkin.

Bu utishni kuyidagi misolda kurish mumkin.

2-misol. **Matematik modeli** $\ddot{y} + \dot{y} + 3y = 2\dot{u} + u$. **tenglama bilan ifodalanadigan obyektning xolat tenglamasini yezing.**

Yechish:

Xolat uzgaruvchilarini kuyidagicha tanlab $x_1 = y$, $x_2 = \dot{y} - 2u$ xolat tenglamasi va obyektning matritsasiga ega bulamiz:

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = x_2 + 2u; \\ \dot{x}_2 = -3x_1 - x_2 + 3u; \\ y = x_1; \end{cases} \quad A = \begin{bmatrix} 0 & 1 \\ -3 & -1 \end{bmatrix}; \quad B = \begin{bmatrix} 2 \\ 3 \end{bmatrix}; \quad C = [1 \quad 0].$$

Shunday kilib, chizikli boshkarish obyektlarining dinamik xarakteristikalari sifatida (1) - (2), (3), yeki (4) kurinishdagi differensial tenglamalardan foydalaniladi.

3. Matematik modellarni qurish

Obyektning matematik modelini qurish protsedurasini quyidagi etaplarga bo'lish mumkin:

- **Obyektning gnoseologik (xayoliy) modelini qurish.** Berilgan texnik topshiriqdan so'ng yoki obyektning ishlash rejimlarini o'rgangandan so'ng muhandisda dastlab obyektning modeli haqida xayoliy tasavvur paydo bo'ladi. Keyinroq bu xayoliy model aniqlashtirilib, matematik model ko'rinishigakeltiriladi.
- Obyektning xarakterini ifodalaydigan **erksiz(bog'liqsiz) o'zgaruvchilar** aniqlanadi va ularning o'lchovlariga aniqlik kiritiladi. Bunda boshqariluvchi ta'sirlarning soni chiqish o'zgaruvchilar sonidan kichik bo'lmasligi, ya'ni ($\dim u \geq \dim y$) bo'lishi shart. Holat o'zgaruvchilarini o'lchovi chiqish o'zgaruvchilar o'lchovidan kichik bo'lmasligi, ya'ni ($\dim x \geq \dim y$) bo'lishi

shart. G'alayonli ta'sirlar o'lchovi M –ixtiyoriy bo'lib hamda y, x, u o'lchovlari bilan umumun bog'liq emas.

- Obyektda ro'y beradigan jarayonlarning **fizik qonuniyatlari aniqlanadi.**
- Obyektning tenglamasi, avtomatik boshqarish nazariyasi nuqtai-nazaridan, **standart ko'rinishga keltiriladi.**

Matematik model, uni qurish jarayonidagi farazlar hamda soddalashtirishlar hisobiga ko'ra, hech qachon o'rganiladigan obyektning aynan va to'la qonli ifodalaymaydi. Shuning uchun, qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, quriladigan matematik modellar bir-biridan farq qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda obyektning modeli qurishda, bir-biriga o'ta zid bo'lgan quyidagi:


1) model haqiqiy sistemani barcha xossalari to'la qonli ifodalashi ;

2) turli tadqiqotlar olib borilishi uchun u murakkab bo'lmasda, sodda ko'rinishga ega bo'lishi

kerak degan talablar o'rtasidagi kompromiss variantni izlash kerak.

3-Misol.

Quyidagi obyektning matematik modelini quring(yozing)



$$\begin{aligned} U_{\text{BYIX}} &= U_2 \\ R_u &= 0 \\ R_H &\rightarrow \infty \end{aligned}$$

1- Rasm. Obyektning sxemasi.

Obyektdagi jarayonlar Kirxgof qonunlari asosida o'zgarsa, ya'ni:

$$U_1 = LI + RI ;$$

$$U_2 = RI ;$$

ABN nuqtai-nazaridan obyektning standart tavsifiga o'tamiz. Buning uchun chiqish miqdori sifatida U_2 kuchlanishni tanlab, ya'ni $y = U_2$; boshqaruvchi ta'sir sifatida U_1 ($u = U_1$) kuchlanish, g'olat o'zgaruvchisi sifatida esa - tok, ($x = I$) zanjirda oqadigan tokni belgilaymiz. Kiritilgan belgilashlardan so'ng obyektning tenglamasini quyidagicha yozib olamiz::

$$\begin{cases} L\dot{x} + Rx = u ; \\ y = Rx ; \end{cases}$$

Bundan so'ng esa holat tenglamasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} \dot{x} = ax + bu; \\ y = cx; \end{cases} \quad \text{bu yerda } \text{где } a = R/L, b = 1/L, c = R.$$

ABSlarining zvenolari har xil fizikaviy tabiatga, ishlash prinsipiga, konstruktiv formaga hamda sxemalarga bo‘linishi mumkin. Lekin bu zvenolarning dinamik xususiyatlarini o‘rganishda, tadqiq qilishda uning chiqishidagi hamda kirishidagi kattaliklarni bog‘lovchi tenglama muhim rol o‘ynaydi.

Matematik ifodasi differensial tenglama bilan ifodalanadigan zvenolarga *dinamik zveno* deyiladi.

Tipik dinamik zveno deb, tartibi ikkidan yuqori bo‘lmagan differensial tenglama bilan ifodalanadigan zvenolarga aytiladi. Ularga asosan quyidagi zvenolar kiradi:

1. *Inersiyasiz (proporsional, kuchaytiruvchi) zveno.*
2. *Birinchi tartibli inersial (aperiodik) zveno.*
3. *Ideal integrallovchi zveno.*
4. *Ideal differensiallovchi zveno.*
5. *Tebranuvchi zveno.*
6. *Birinchi tartibli tezlatuvchi zveno.*
7. *Ikkinchi tartibli tezlatuvchi zveno.*

Quyida shu zvenolarning vaqt hamda chastotali xarakteristikalarini ko‘rib chiqamiz.

1. Inersiyasiz (proporsional, kuchaytiruvchi) zveno. Bu zvenoning umumiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y(t) = K \cdot x(t), \quad (1)$$

bu erda K – uzatish koeffitsienti.

Bunday zvenoning chiqishidagi kattalik kirishidagi kattalikka nisbatan proporsional ravishda o‘zgaradi.

Bu zvenoga elektron kuchaytirgich, potensiometr, taxogenerator kabi elementlar misol bo‘la oladi (1-rasm.)


(1) tenglamaga Laplas almashtirishlarini kiritamiz

$$y(p) = K \cdot x(p), \quad (2)$$

bundan

$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = K. \quad (3)$$


SHunday qilib, proporsional zvenoning uzatish funksiyasi kuchaytirish koeffitsienti « K » ga teng bo‘ladi.



1-rasm. Elektron kuchaytirgich (a); potensiometr (b); taxogenerator (v), bu erda « ω » o'qning aylanish tezligi.

Uzatish funksiyasi orqali zveno yoki sistemaning vaqt xarakteristikalarini aniqlash mumkin

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ K \frac{1}{p} \right\} = K \cdot 1(t). \quad (4)$$





CHastotaviy uzatish funksiyasini aniqlash uchun uzatish funksiyasi $W(p)$ da « p » ni « $j\omega$ » bilan almashtiriladi

$$W(j\omega) = K; \quad A(\omega); \quad \varphi(\omega) = 0,$$

$$L(\omega) = 20 \lg A(\omega) = 20 \lg K.$$

Bu zvenolarning chastotali xarakteristikalari 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Amplituda-fazali (a); amplituda-chastotali (b); faza-chastotali (v); logarifmik amplituda chastotali (g) xarakteristikalar.

2. Birinchi tartibli inersial (aperiodik) zveno. Bu zvenoning tenglamasi qo‘yidagi ko‘rinishga ega.

$$y(t) + T \frac{dy(t)}{dt} = K \cdot x(t) \quad (5)$$

bu erda K – uzatish koeffitsienti; T – vaqt doimiyliigi.

RC, RL – zanjirlari, o‘zgarmas tok generatori va dvigatellari bu zvenoga misol bo‘la oladi (3-rasm).



3-rasm. RC zanjiri (a); LR zanjiri (b); o‘zarmas tok generatori (v); o‘zarmas tok dvigateli (g).

(5) tenglamaga Laplas o‘zgartirishini kiritib, bu zvenoning uzatish funksiyasini aniqlaymiz

$$y(p) + Tp \cdot y(p) = Kx(p),$$

bundan


$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = \frac{K}{1+Tp}. \quad (6)$$

Inersial zvenoning o'tkinchi funksiyasi

$$h(t) = L^{-1}\left\{W(p) \frac{1}{p}\right\} = L^{-1}\left\{\frac{K}{1+Tp} \cdot \frac{1}{p}\right\} = K(1 - e^{-\frac{t}{T}})1(t) \quad (7)$$

eksponenta qonuni bo'yicha o'zgaradi (4-rasm). Impulslil o'tkinchi funksiyani quyidagicha aniqlash mumkin (4b-rasm).

$$\omega(t) = h'(t) = L^{-1}\{W(p)\} = L^{-1}\left\{\frac{K}{1+pT}\right\} = \frac{K}{p} e^{-\frac{t}{T}} 1(t) \quad (8)$$



4-rasm. O'tkinchi xarakteristika (a); impulslil o'tkinchi xarakteristika (b).

Zvenoning chastotali uzatish funksiyasini hamda uning chastotali xarakteristikalarini aniqlash uchun uzatish funksiyasi $W(p)$ da « p »ni « $j\omega$ » bilan almashtirish kerak (5-rasm).



$$W(j\omega) = \frac{K}{1+j\omega T} = \frac{K(1-j\omega T)}{(1+j\omega T)(1-j\omega T)} = \frac{K}{1-\omega^2 T^2} - j \frac{K\omega T}{(1+\omega^2 T^2)} = U(\omega) + jV(\omega)$$

$$U(\omega) = \frac{K}{(1-\omega^2 T^2)} - \text{haqiqiy qism};$$

$$V(\omega) = \frac{K\omega T}{(1+\omega^2 T^2)} - \text{mavhum qism}.$$

$$A(\omega) = \sqrt{U^2(\omega) + V^2(\omega)} = \frac{k}{\sqrt{1+\omega^2 T^2}};$$

$$\varphi(\omega) = \text{arctg} \frac{V(\omega)}{U(\omega)} = -\text{arctg} \omega T;$$



5-rasm. Amplituda-fazali xarakteristika (a); amplituda-chastotali va faza-chastotali xarakteristika (b).

Zvenoning logarifmik amplituda chastotali xarakteristikasi (LACHX) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:


$$L(\omega) = 20 \lg A(\omega) = 20 \lg \left[\frac{K}{\sqrt{1 + \omega^2 T^2}} \right] = 20 \lg k - 20 \lg \sqrt{1 + \omega^2 T^2}.$$

Bu zvenoning asimptotik LACHXni

$$L_a(\omega) = \begin{cases} 20 \lg K, & 0 < \omega < 1 \text{ ёки } 0 < \omega < \frac{1}{T} \text{ булганда,} \\ 20 \lg K - 20 \lg \omega T, & \omega T > 1 \text{ ёки } \omega > \frac{1}{T} \text{ булганда,} \end{cases}$$

tenglama bilan ifodalanadi.

SHunday qilib, chastotaning $0 < \omega < \frac{1}{T}$ oralig'idagi qiymatlarida $K=1$ bo'lganda $L(\omega)$ xarakteristikasi absissa o'qi bilan mos tushadi, chunki $L(\omega) = 20 \lg 1 = 0$. Agar $K \neq 1$ bo'lsa, unda shu chastota oralig'ida $L(\omega)$ xarakteristikasi $20 \lg K$ balandlikda absissa o'qiga parallel bo'lgan to'g'ri chiziq bo'ladi. $\omega T > 1$ yoki $\omega > \frac{1}{T}$ bo'lganda $L_a(\omega) = -20 \lg \omega T$ ga teng bo'ladi (6-rasm).




$$\begin{aligned} \omega T = 1, & \quad L(\omega) = 0 \text{ dB}; \\ \omega T = 10, & \quad L(\omega) = -20 \text{ dB}; \\ \omega T = 100, & \quad L(\omega) = -40 \text{ dB}. \end{aligned}$$

6-rasm.

Shunday qilib, inersial zvenoning LACHX si tutash chastota $\omega = \frac{1}{T}$ yoki $\omega T = 1$ gacha hech qanday o'zgarishsiz qoladi vash u chastotadan keyin -20 db/dek og'ish bo'yicha o'zgaradi.

Haqiqiy LACHX $L(\omega)$ asimptotik $L_a(\omega)$ xarakteristikadan birmuncha farq qiladi va bu farq faqat tutash chastota $\omega = \frac{1}{T}$ yoki $\omega T = 1$ da eng kata qiymatga ega bo'lib, u taxminan $-3,03$ db ga teng, ya'ni $L(\omega) = L(1) = -20 \lg \frac{1}{\sqrt{1+(1)^2}} = -20 \lg \frac{1}{\sqrt{2}} = -3,03 \text{ db}$.

Amaliyotda LACHX ni aniq ko'rish talab qilinmaydi. SHuning uchun uni ikkita bir-biri bilan tutushgan to'g'ri chiziq ko'rinishida quriladi. Logarifmik faza-chastotali xarakteristika $\varphi(\omega) = -\arctg \omega T$ ifoda yordamida aniqlanadi (7-rasm).



$$\begin{aligned} \omega T = 0, & \quad \varphi(\omega) = 0^\circ; \\ \omega T = 1, & \quad \varphi(\omega) = -45^\circ; \\ \omega T = \infty, & \quad \varphi(\omega) = -90^\circ. \end{aligned}$$

7 – rasm.

Tutash $\omega = \frac{1}{T}$ yoki $\omega T = 1$ chastotada $\varphi(\omega) = -\arctg 1 = -45^\circ$ ga teng bo'lib, shu chastotaga nisbatan LFCHX ning simmetriyaligi uning o'ziga xos xarakterli fazilati hisoblanadi.

3. Ideal integrallovchi zveno. Bu zveno

$$y(t) = K \int_0^t x(t) dt, \quad (9)$$

tenglama bilan ifodalanadi. Bu erda K – uzatish koeffitsienti. Unga elektr sig'im, induktivlik, aylanma o'q va x.k. misol bo'la oladi.

(9) tenglamani Laplas bo'yicha tasviri qo'yidagi ko'rinishga ega:

$$y(p) = \frac{K}{p} x(p), \quad (10)$$

zvenoning uzatish funksiyasi

$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = \frac{K}{p}. \quad (11)$$

Bu zvenoni yana astatik zveno deb ham yuritiladi.


Integral zvenoning o'tkinchi funksiyasi

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{K}{p} \cdot \frac{1}{p} \right\} = K \cdot t \cdot 1(t) \quad (12)$$

va impulsli o'tkinchi funksiyasi (vazn funksiyasi)

$$\omega(t) = h'(t) = K \quad (13)$$

8b-rasmda keltirilgan.




8-rasm. O‘tkinchi xarakteristika (a); impulsli o‘tkinchi xarakteristika (b).

Integral zvenoning chastotali uzatish funksiyasi

$$W(j\omega) = \frac{K}{j\omega} = \frac{K}{\omega} e^{-j\frac{\pi}{2}} \quad (14)$$

bo‘lib, unda $A(\omega) = \frac{K}{\omega}$ – amplituda chastotali funksiya; $\varphi(\omega) = -\frac{\pi}{2}$ – faza chastotali funksiyalar (9-rasm).




9-rasm. Amplituda-fazali (a); amplituda-chastotali (b); faza-chastotali (v) xarakteristikalar.

Zvenoning AFX si (14) ifodaga muvofiq kompleks tekisligining manfiy mavhum o‘qi bilan mos tushadi va chastota $0 < \omega < \infty$ bo‘lganda koordinata o‘qi boshiga tomon yo‘nalgan bo‘ladi.

Logarifmik amplituda chastotali xarakteristika (LACHX)

$L(\omega) = 20 \lg A(\omega) = 20 \lg \frac{K}{\omega} = 20 \lg K - 20 \lg \omega$ ifoda yordamida aniqlanadi (10-rasm).



$$\begin{aligned} \omega = 1, & \quad L(\omega) = 0 \text{ dB}; \\ \omega = 10, & \quad L(\omega) = -20 \text{ dB}; \\ \omega = 100, & \quad L(\omega) = -40 \text{ dB}; \\ \omega = 0,1, & \quad L(\omega) = 20 \text{ dB}; \\ \omega = 0,01, & \quad L(\omega) = 40 \text{ dB}. \end{aligned}$$

10- rasm.

Demak, bu zvenoning $L(\omega)$ xarakteristikasi koordinatalari $\omega=1$ va $20 \lg K$ bo'lgan nuqtadan o'tgan og'ma to'g'ri chiziq bo'lib, chastota bir dekadaga ko'payganda $L(\omega)$ ordinatasi 20 db ga kamayadi. SHuning uchun $L(\omega)$ xarakteristikasining og'ishi -20 db/dek (minus 20 detsebell bir dekadaga deb o'qiladi).

MA'RUZA №8
DINAMIK XARATERISTIKALAR. UZATISH FUNKSIYALARI.

Ideal differensiallovchi zveno. Bu zveno

$$y(t) = K \cdot \frac{dx}{dt}, \quad (15)$$

tenglama bilan ifodalanadi. Bunda K – uzatish koeffitsienti. Unga elektr sig'ım, induktivlik, taxogenerator (agar kirish kattaliga o'qning aylanish tezligi emas, burchak burilishi bo'lsa) misol bo'la oladi.

(15) tenglamani Laplas bo'yicha o'zgartirib, zvenoning uzatish funksiyasini aniqlaymiz

$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = Kp. \quad (16)$$

Bunda o'tkinchi $h(t)$ va impulsli o'tkinchi $\omega(t)$ funksiyalarni aniqlaymiz

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ Kp \cdot \frac{1}{p} \right\} = K \cdot \delta(t) \quad (17)$$



$$\omega(t) = h'(t) = K \cdot \delta(t) \quad (18)$$

(16) ifodada « p » ni « $j\omega$ » bilan almashtirib chastotali uzatish funksiyasini

$$W(j\omega) = K \cdot j\omega = K \cdot \omega e^{j\frac{\pi}{2}} \quad (14)$$

hamda chastotali xarakteristikalarini aniqlaymiz (13-rasm). Unda $A(\omega) = K\omega$ – amplituda chastotali funksiya; $\varphi(\omega) = \frac{\pi}{2}$ – faza chastotali funksiya;

$L(\omega) = 20 \lg A(\omega) = 20 \lg K + 20 \lg \omega$ – logarifmik amplituda chastotali funksiya.



13-rasm. Amplituda-fazali (a); amplituda-chastotali (b); faza-chastotali (v); logarifmik amplituda chastotali (g) xarakteristikalar.

SHunday qilib, bu zvenoning AFX si kompleks tekisligining musbat mavhum o'qi bilan mos tushib, chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda yuqoriga qarab yo'naladi. LACHXsi esa koordinatalari $\omega=1$ va $L(\omega) = 20 \lg K$ bo'lgan nuqtadan o'tgan to'g'ri chiziqdir. SHuning uchun $L(\omega)$ xarakteristikasining og'ishi $+20 \text{db/dek}$ (plyus 20detsebell bir dekadaga deb o'qiladi).

Tebranuvchi zveno. Bu zveno ikkinchi tartibli tenglama bilan ifodalanadi.

$$y(t) + 2\xi T \frac{dy}{dt} + T^2 \frac{d^2y}{dt^2} = K \cdot x(t) \quad (20)$$

bunda $0 < \xi < 1$ oralig'idagi qiymatga ega bo'lib, so'nish darajasi (koeffitsienti) deyiladi.

Bu holda $1 + 2\xi pT + p^2 T^2 = 0$ xarakteristik tenglama kompleks ildizlarga ega bo'ladi. Zvenoning vaqt doimiyligi rezonans chastota ω_0 bilan $T = \frac{1}{\omega_0}$ ifoda bilan bog'langan bo'lib, rezonans tebranish davri « T_0 » dan « 2π » marta kichikdir

$$T_0 = \frac{2\pi}{\omega_0} = 2\pi \cdot T.$$

Elektr tebranuvchi zanjir, elastik mexanik sistema bu zvenoga misol bo'la oladi.

(20) tenglamani Laplas tasviri bo'yicha

$$y(p) + 2p\xi T y(p) + T^2 p^2 y(p) = Kx(p) \quad (21)$$

zvenoning funksiyasi aniqlanadi.

$$W(p) = \frac{y(p)}{x(p)} = \frac{K}{1 + 2\xi pT + p^2 T^2} \quad (22)$$

CHastotali uzatish funksiyasini aniqlash uchun (22) ifodada « p » ni « $j\omega$ » bilan almashtiramiz.

$$W(j\omega) = \frac{K}{1 + 2\xi j\omega T + (j\omega)^2 T^2} = \frac{K[(1 - \omega^2 T^2) - j\omega 2\xi T]}{[(1 - \omega^2 T^2) + j\omega 2\xi T][(1 - \omega^2 T^2) - j\omega 2\xi T]};$$


$$U(\omega) = \frac{K(1 - \omega^2 T^2)}{(1 - \omega^2 T^2)^2 + 4\xi^2 \omega^2 T^2} \quad - \text{haqiqiy qism};$$

$$V(\omega) = -\frac{K\xi\omega T}{(1 - \omega^2 T^2)^2 + 4\xi^2 \omega^2 T^2} \quad - \text{mavhum qism};$$

$$A(\omega) = \sqrt{U^2(\omega) + V^2(\omega)} = \frac{K}{\sqrt{(1 - \omega^2 T^2)^2 + 4\xi^2 \omega^2 T^2}} \quad - \text{amplituda chastotali funksiya};$$

$$\varphi(\omega) = \arctg \frac{V(\omega)}{U(\omega)} = -\arctg \frac{2\xi\omega T}{1 - \omega^2 T^2} \quad - \text{faza chastotali funksiya}.$$

15-rasmda tebranuvchi zvenoning chastotali xarakteristikalari keltirilgan.




15-rasm. a) Amplituda fazali; b) amplituda chastotali va faza chastotali xarakteristikalar

Bu zvenolarning LACHX si ko‘rilayotganda quyidagi asimtotik tenglamadan foydalaniladi:

$$L_a(\omega) = \begin{cases} 20 \lg K, & \omega T \leq 1 \text{ ёки } \omega \leq \frac{1}{T} \text{ булганда;} \\ 20 \lg K - 40 \lg \omega T, & \omega T > 1 \text{ ёки } \omega > \frac{1}{T} \text{ булганда.} \end{cases}$$

tutash chastota $\omega = \frac{1}{T}$ gacha bu zvenoning LACHX si absissa o‘qi bilan mos tushadi, undan keyin -40 db/dek og‘ishga ega bo‘ladi (16-rsam).



16-rasm.

Tebranuvchi zvenoning LAFX si $\varphi(\omega) = -\arctg \frac{2\zeta\omega T}{1 - \omega^2 T^2}$ ga teng bo‘lib, bu xarakteristikaning 0° dan -180° gacha o‘zgaradi (15b-rasm).

$$\omega T = 0; \quad \varphi(\omega) = 0$$

$$\omega T = 0; \quad \varphi(\omega) = -90^\circ$$


$$\omega T = \infty; \quad \varphi(\omega) = -\pi$$

tebranuvchi zvenoning o‘tkinchi funksiyasi

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{K}{p^2 T^2 + 2\xi p T + 1} \cdot \frac{1}{p} \right\} = K \left[1 - \frac{\sqrt{\alpha^2 + \beta^2}}{\beta} e^{-\alpha t} \cdot \sin(\beta t + \varphi_0) \right].$$

bu erda $\alpha = \frac{\xi}{T}$; $\beta = \frac{\sqrt{1-\xi^2}}{T}$; $\varphi_0 = \arctg \frac{\sqrt{1-\xi^2}}{d}$; impulsli o'tkinchi (vazn) xarakteristikasi $\omega(t) = h'(t) = \frac{K(\alpha^2 + \beta^2)}{\beta} e^{-\alpha t} \sin \beta t$ ga teng.

17-rasmda tebranuvchi zvenoning vaqt xarakteristikalari keltirilgan.



17-rasm. a) o'tkinchi xarakteristika; b) impulsli o'tkinchi (vazn) xarakteristika.

Tebranuvchi zvenoning uzatish funksiyasi $W(p)$ dan so'nish koeffitsienti « ξ » ning qiymatiga qarab quyidagi ikkita tipik bo'lmagan zvenolarning uzatish funksiyasini olish mumkin:

a) **Konservativ zveno** ($\xi = 0$). Uzatish funksiyasi

$$W(p) = \frac{K}{1 + p^2 T^2} \quad (23)$$

Chastotali xarakteristikalari quyidagicha ifodalanadi (18-rasm).


$$W(j\omega) = \frac{K}{1 - \omega^2 T^2} \text{ – amplituda faza chastotali funksiyasi;}$$

$$A(j\omega) = \frac{K}{1 - \omega^2 T^2} \text{ – amplituda chastotali funksiya;}$$

$$\varphi(\omega) = \begin{cases} 0; & \omega < \frac{1}{T} \text{ булганда;} \\ -\pi; & \omega \geq \frac{1}{T} \text{ булганда.} \end{cases} \text{ – faza chastotali funksiya;}$$

$$L(\omega) = 20 \lg A(\omega) = 20 \lg K - 40 \lg \omega T \text{ – logarifmik amplituda chastotali funksiya.}$$

Konservativ zvenoning o'tkinchi funksiyasi $h(t) = K(1 - \cos \omega_1 t)$; $\omega_1 = \frac{1}{T}$ bo'lib, amplitudasi « K » ga teng bo'lgan ω_1 chastotali senuvchi bo'lmagan garmonik tebranishlarni ifodalaydi (18v-rasm).



18-rasm. a) AFX; b) LACHX va LFCHX; v) oetkinchi xarakteristika.

MA'RUZA № 9.

DINAMIK XARAKTERISTIKALAR. VAQT VA MODAL XARAKTERISTIKALAR. STRUKTUR XARAKTERISTIKALAR.


Odatda ABS larni uzatish funksiyalari anik bulgan dinamik zvenolar kombinatsiyasi sifatida karash mumkin. ABS ni dinamik zvenolarni uzatish funksiyalari bilan birgalikda ular orasidagi alokalarni grafik kurinishda kursatilishi uning strukturali sxemasi deb ataladi..

Chiziqli sistemalarni strukturali sxemalaridagi belgilashlar

Strukturali sxemalarda kuyidagicha belgilashlar kabul kilingan:

- 1.Signalni uzatish liniyasi(chizigi) (1 rasm).
- 2.Yunaltirilgan haraktning bitta kirishli va bitta chiqishli dinamik zvenosi (2-rasm).
- 3.Ikkita kirishli dinamik zveno (3-rasm).
- 4.Tugun eki tarkalish tuguni. (.4-rasm).
- 5.Summatoy $y=x_1+x_2$ (Rasm .5).
- 6.Taqqoslash qurilmasi $y=x_2-x_1$ (Rasm .6).

Boglanish(birlashishlarni) asosiy kurinishlari bilan tanishamiz



1. Ketma ket ulanish (boglanish) (Rasm .7).

Quyidagiga ega bulamiz $X_1(p) = W_1(p)X(p)$; $Y(p) = W_2(p)X_1(p) = W_1(p)W_2(p)X(p) = W_{\text{ekv}}(p)X(p)$, bu erda $W_{\text{ekv}}(p) = W_1(p)W_2(p)$.

Umumiy xolda $W_{\text{эKB}}(p) = \prod_{i=1}^N W_i(p)$, bu erda $W_{\text{ekv}}(p)$ – ekvivalentn uzatish funksiyasi; N – ketma-ket ulangan zvenolar soni.

Shunday qilib, ketma-ket ulangan zvenolarning uzatish funksiyasi ulangan zvenolarning uzatish funksiyalarini kupaytmasiga teng.

2. Parallel ulanish (rasm .8).

Quyidagiga ega bulamiz $Y(p) = Y_1(p) + Y_2(p) = W_1(p)X(p) + W_2(p)X(p) = [W_1(p) + W_2(p)]X(p) = W_{\text{ekv}}(p)X(p)$.

Umumiy xolda $W_{\text{эKB}}(p) = \sum_{i=1}^N W_i(p)$, ya'ni. parallel ulangan zvenolarning uzatish funksiyasi ulangan zvenolarning uzatish funksiyalarini yigindisiga teng.

➤ **Misol.** Strukturali sxemasi chizmada keltirilgan sistemani ekvivalent uzatish funksiyasi topilsin. (rasm 9).




Рис.9

Yuqorida keltirilgan tengliklardan foydalani, quyidagiga ega bulamiz:

$$W_{\text{ekv}}(p) = W_1(p)W_2(p)[W_3(p) + W_4(p)]W_5(p).$$

3. Zvenolarni parallel-karama-karshi ulanishi (teskari aloka) (Rasm.10).

Bu erda $\Delta = x - y_1$ – boshqariladigan miqdorning joriy qiymatini berilgan qiymatdan chetlanishi.

$x \rightarrow y$ kanal buyicha uzatish funksiyasini topamiz: $W_{xy}(p)$.

SHunday kilib,


$$\Delta(p) = X(p) - Y_1(p) = X(p) - W_{\text{OC}}(p)Y(p). \quad (1)$$

Ikkinchi tomondan,

$$\Delta(p) = \frac{Y(p)}{W_1(p)}. \quad (2)$$

(1) va (2) tengliklarni chap va ung tomonlarinini tenglashtirib:

$$W_{xy}(p) = \frac{Y(p)}{X(p)} = \frac{W_1(p)}{1 + W_1(p)W_{\text{OC}}(p)} = W_{\text{OKB}}(p)$$




Расм 10

4. Kuchirish qoidasi

Ba'zan, strukturali aalmashtirishlarda sistemani umumiy uzatish funksiyasini olish maqsadida signalni quyilish nuqtasini zveno orqali utkazish mumkin.

Misol sifatida, agar sistemada signalni quyilish nuqtasi chiqishga quyilisa u xolda sistema strukturali sxemasi qanday xolda uzgarishini urganamiz.




Rasm. 11. Berilgan sistemani strukturali sxemasi

Agar uning uzatish funksiyasi quyidagi kurinishga ega bulsa

$$W(p) = W_2(p)[W_1(p) + W_3(p)] . \quad (5)$$

Quyilish nuqtasini kuchirganda quyidagi qoidaga amal qilish kerak: *sistemaning uzatish funksiyasi uzgarishsiz qolishi kerak*. Shu sababli uzgartirilgan sistema quyidagi kurinishga ega buladi:



Rasm. 12. Almashtirilgan sistemani strukturali sxemasi

12 rasmda keltirilgan sistemaning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = W_1(p)W_2(p) + W_3(p)W_4(p) . \quad (6)$$

(5) dagi uzatish funksiyasini (6) tenglashtirib $W_4(p)$, ni aniqlaymiz,

$$W_4(p) = W_2(p) . \quad (7)$$

Strukturali usulni qullanilish soxasi


Strukturaviy usul chiziqli sistemalarni hisoblash uchun qulay usul, ammo uzining kamchiliklariga ega. Ya'ni, usulda faqat uzatish funksiyalaridan foydalaniladi, shuning uchun u faqat nolli boshlang'ich qiymatlarda foydalanish mumkin.

Agar haqiqiy sistemada boshlang'ich shartlar nolga teng bulmasa, u xolda quyidagi qoidadan foylanish mumkin: xar qanday almashtirishda sistemaning tartibi pasaymasligi kerak, ya'ni uzatish funksiyasidagi surat va maxrajlarda bir xil ifoda qisqartirilmasligi kerak..

Uxshash ifodalarni qisqartirish xisobiga, sistemaning kerakli zvenolari qisqarib ketishi mumkin

Misol

Ikkita ketma-ket ulangan zvenolardan iborat(integrallovchi va differensiallovchi zvenolar).



Rasm. 13. Sistemani strukturali sxemasi

Strukturali almashtirishlardan foydalanib sistemani uzatish funksiyasini topamiz:

$$W(p) = 1/p * p = 1 .$$


Bundan shunday xulosaga kelish mumkiniki, kuruladigan zvenolar juftligi inersiyasiz zvenodir, ya'ni chikishdagi signal kirish signalini takrorlaydi.. Shunday qilib,

$$z(t) = z(0) + \int_0^t u(\tau) d\tau ,$$

bu erda $z(0)$ – boshlangich shartlar. Chikish signalini olamiz

$$y(t) = \dot{z}(t) = u(t)$$

Zvenolarni urnini almashtirib



Bu sistemaning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = p * 1/p = 1 .$$

Nazorat savollari

1. ABS zvenolarini ulaydigan tipik sxemalarni sanab bering?
2. Ketma-ket ulangan zvenolarni uzatish funksiyasi qanday aniklanadi?
3. Ketma-ket ulangan zvenolarni qanday kilib birta zvenoga keltirish mumkin?
4. Parallel ulangan zvenolarni qanday kilib birta zvenoga keltirish mumkin?

MA'RUZA № 10.


CHIZIQLI AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMALARINING TURG'UNLIGI. TURG'UNLIK MASALASINI QUYILSHI.

Turg'unlik to'g'risida tushuncha

ABSlarni ishlash qobiliyatiga qo'yilgan talab, ularning turli xil tashqi qo'zg'atuvchi ta'siriga nosezgir bo'lishiga mo'ljallangan bo'lishidir.

Agarda sistema turg'un bo'lsa, unda u tashqi qo'zg'atuvchi ta'sirlarga bordosh bera oladi va o'zining muvozanat holatidan chiqarilganda yana ma'lum aniqlikda shu holatiga qaytib keladi. Agarda sistema noturg'un bo'lsa, unda u tashqi qo'zg'atuvchi ta'sir natijasida muvozanat holati atrofida cheksiz katta amplitudaga ega bo'lgan tebranishlar hosil qiladi yoki muvozanat holatidan cheksiz uzoqlashadi.


Agarda har qanday cheklangan kirish kattaligining absolyut qiymatida chiqish kattaligi ham cheklangan qiymatga ega bo'lsa, bunday sistema *turg'un* deb yuritiladi (1-rasm.).



1-rasm. a, v turg'un xolatlar; b noturg'un xolat.

Turg'unlik shartlari. Lyapunov teoremlari.

Kirish kattaligi $x(t)$ va chiqish kattaligi $y(t)$ bo'lgan sistemani ko'rib chiqamiz (2-rasm).



2-rasm.

Sistemaning xarakat tenglamasini umumiy ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:

$$a_0 \frac{d^n y}{dt^n} + a_1 \frac{d^{n-1} y}{dt^{n-1}} + \dots + a_n y(t) = b_0 \frac{d^m x}{dt^m} + b_1 \frac{d^{m-1} x}{dt^{m-1}} + \dots + b_m x(t). \quad (1)$$

Sistemaning turg'un yoki noturg'unligini ko'rish uchun (1) tenglamaning echimini aniqlash kerak bo'ladi.

$$y(t) = y_s(t) + y_m(t), \quad (2)$$

bu erda $y_m(t)$ – (1) tenglamaning xususiy echimi bo'lib (majburiy tashkil etuvchi), sistemada muvozanat rejimini ifodalaydi; $y_e(t)$ – (1) tenglamaning o'ng tomoni nolga

teng bo'lgandagi umumiy echimi bo'lib (erkin tashkil etuvchisi), u tenglamaning o'tkinchi rejimini ifodalaydi.

$$t \rightarrow \infty \text{ bo'lganda } y_y(t) \rightarrow 0 \quad (3)$$

bo'lishi sistemaning turg'unligini ifodalaydi.

Agar (3) shart bajarilsa, unda sistema turg'un bo'ladi. (1) tenglamaning o'tkinchi (erkin) tashkil etuvchisi $y_e(t)$

$$a_0 \frac{d^n y}{dt^n} + a_1 \frac{d^{n-1} y}{dt^{n-1}} + \dots + a_n y(t) = 0 \quad (4)$$

tenglamaning echimini ifodalaydi.

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, uning echimi (1) tenglamaning o'ng tomonidagi b_i koeffitsientga va $x(t)$ funksiyaning o'zgarish xarakteriga bog'liq emas ekan. (3) shartga ko'ra, sistemaning turg'unligi yoki noturg'unligi koeffitsientlar b_i va kirish kattaligi $x(t)$ funksiyaga bog'liq emas ekan

Demak, sistemaning turg'unligi uning ichki xususiyati bo'lib, unga ta'sir etuvchi signallarga bog'liq emas.

(4) tenglamaning echimini aniqlash uchun xarakteristik tenglamani olamiz:

$$a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0, \quad (5)$$

bu erda p_1, p_2, \dots, p_n – (5) xarakteristik tenglamaning ildizlari bo'lib, ular xar xil bo'lsin, unda (4) tenglamaning echimini quyidagi ko'rinishda ko'rsatish mumkin:

$$y_y(t) = \sum_{i=1}^n c_i e^{p_i t} \quad (6)$$

s_i – sistemaga quyilgan boshlang'ich shartlar bo'ytcha aniqlanadigan ixtiyoriy o'zgarmas son.

Shunday qilib, chiziqli sistemaning turg'unligini xarakteristik tenglamaning ildizlari aniqlar ekan. Ildizlar esa haqiqiy, kompleks va mavhum bo'lishi mumkin.

Chiziqli sistema uzatish funksiyasi $W(p)$ ning hamma qutblari haqiqiy qismining manfiy ishoraga ega bo'lishi uning **turg'un bo'lishining zarur va etarli sharti** hisoblanadi.

Uzatish funksiyasining maxrajidagi polinom ildizlarini uzatish funksiyasining qutblari suratidagi polinom ildizlarini uzatish funksiyasining *nollari* deyiladi.

Ochiq sistema uchun

$$W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)}. \quad (7)$$

Ochiq sistema uzatish funksiyasining xarakteristik tenglamasi $Q(p)=0$ ning ildizlari haqiqiy qismining manfiy bo'lishi ochiq sistemaning turg'un bo'lishining etarli va zarur shartidir.

Berk sistema uchun

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{P(p)}{Q(p)}}{1+\frac{P(p)}{Q(p)}} = \frac{P(p)}{Q(p)+P(p)} = \frac{B(p)}{A(p)}, \quad (8)$$

$A(p)=1+W(p)=0$ – berk sistemaning xarakteristik tenglamasi.

Berk sistema xarakteristik tenglamasi $A(p)=0$ ildizlari *haqiqiy qismining manfiy bo'lishi uning turg'un bo'lishining etarli va zaruriy shartidir.*


Turg'unlikning bu sharti A.M.Lyapunov tomonidan *nochiziqli sistemalarning chiziqlantirilgan tenglamalari uchun isbotlandi* va qo'llanildi. Quyida bu teoremani isbotsiz keltiramiz:

1 – teorema: *Agar chiziqlantirilgan sistema xarakteristik tenglamasi hamma ildizlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lsa, unda real sistema xam turg'un bo'ladi, ya'ni juda kichik nochiziqli hadlari sistemaning turg'unlik xolatiga ta'sir ko'rsata olmaydi.*

2 – teorema: *Agarda chiziqlantirilgan sistema xarakteristik tenglamasining birorta ildizi musbat haqiqiy qismga ega bo'lsa, unda real sistema noturg'un bo'ladi, ya'ni juda kichik nochiziqli hadlari sistemani turg'un qila olmaydi.*

3 – teorema: *Agar chiziqlantirilgan sistema xarakteristik tenglamasining ildizlari mavhum yoki nolga teng bo'lsa, unda real sistema turg'unlik chegarasida bo'ladi, bunda juda kichik nochiziqli xadlar o'tkinchi jarayon ko'rinishini tubdan o'zgartirib yuborishi, hamda real sistemani turg'un yoki noturg'un holatga keltirishi mumkin.*

SHunday qilib, sistema turg'unligini tadqiq etish uining xarakteristik tenglamasi ildizlarining ishorasini aniqlashdan, ya'ni xarakteristik tenglama ildizlarini kompleks tekisligida mavhum o'qqa nisbatan qanday joylashganligini aniqlashdan iborat ekan.



Kompleks tekisligida xarakteristik tenglama ildizlarining mavhum o'qqa nisbatan joylashganligini aniqlaydigan qoidalarga *turg'unlik me'zonlari* deyiladi.


Sistemaning turg'unlik masalalarini echishda quyidagi turg'unlik mezonlaridan foydalaniladi:

- 1) Turg'unlikning algebraik mezonlari:
 - a) *Gurvits mezoni;*
 - b) *Rauss mezoni.*
- 2) Turg'unlikning chastotaviy mezonlari:
 - a) *Mixaylov mezoni;*
 - b) *Naykvist mezoni;*
 - v) *Turg'unlikning logarifmik mezoni.*
- 3) D – bo'linish usuli.

MA'RUZA №11

TURG'UNLIKNING ALGEBRAIK MEZONLARI. RAUS VA GURVITS TURG'UNLIK MEZONLARI.

Sistema turg'unligini tadqiq etish uning xarakteristik tenglamasi ildizlarining ishorasini aniqlashdan, ya'ni xarakteristik tenglama ildizlarini kompleks tekisligida mavhum o'qqa nisbatan qanday joylashganligini aniqlashdan iborat. YA'ni



Kompleks tekisligida xarakteristik tenglama ildizlarining mavhum o'qqa nisbatan joylashganligini aniqlaydigan qoidalarga *turg'unlik me'zonlari* deyiladi.

Sistemaning turg'unlik masalalarini echishda quyidagi turg'unlik mezonlaridan foydalaniladi:

- 1) Turg'unlikning algebraik mezonlari:
 - a) *Gurvits mezonlari*;
 - b) *Rauss mezonlari*.
- 2) Turg'unlikning chastotaviy mezonlari:
 - a) *Mixaylov mezonlari*;
 - b) *Naykvist mezonlari*;
 - v) *Turg'unlikning logarifmik mezonlari*.
- 3) D – bo'linish usuli

. Agar xarakteristik tenglama yuqori darajali bulsa u xolda uning ildizlarini aniqlash murakkab masaladir. SHu sababli xarakteristik tenglamaning ildizlarini aniqlamasdan bevosita tenglama koeffitsientlari asosida xulosa beradigan turg'unlik mezonlari yaratilgan. ABNda esa algebraik mezonlardan eng ko'p ishlatiladiganlari bu Raus va Gurvits mezonlari bo'lib, biz asosan Gurvits mezonini ko'rish bilan cheklanamiz, chunki ularning mazmuni bir bo'lib, bayonlash shakli har xildir.

ABS ning xarakteristik tenglamasi berilgan bo'lsin

$$a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0. \quad (9)$$

SHu xarakteristik tenglama koeffitsientlaridan tuzilgan jadvalga Gurvits aniqlovchisi yoki determinanti deyiladi.

Gurvits aniqlovchisini tuzishda quyidagi qoidaga rioya qilish kerak:

- 1) bosh diogonal bo'yicha « a_1 » dan to « a_n » gacha o'sish tartibi bilan yozib chiqiladi;
- 2) bosh diogonalga nisbatan qatorlarning pastga tomon indeklari kamayuvchi, yuqoriga tomon indeklari o'sib boruvchi koeffitsientlar bilan to'ldiriladi;

3) indekslari noldan kichik hamda «n» dan katta bo'lgan koeffitsientlar o'rniga nollar yoziladi;

4) Gurovits aniqlovchisining yuqori tartibi xarakteristik tenglamaning darajasiga teng bo'ladi;

5) Gurovits aniqlovchisining oxirgi tartibi $\Delta_n = a_n \cdot \Delta_{n-1}$ ga tengdir.

$$\Delta_n = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 & a_5 & a_7 & \cdot & 0 \\ a_0 & a_2 & a_4 & a_6 & \cdot & 0 \\ 0 & a_1 & a_3 & a_5 & \cdot & 0 \\ 0 & a_0 & a_2 & a_4 & \cdot & 0 \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \cdot & a_n \end{vmatrix}$$

Gurovits mezonining ta'rifi:

Agarda $a_0 > 0$ bo'lib, Gurovitsning hamma aniqlovchilari noldan katta bo'lsa, u holda sistema turg'un bo'ladi, ya'ni $a_0 > 0$ bo'lganda $\Delta_1 > 0$; $\Delta_2 > 0$; $\Delta_3 > 0 \dots \Delta_n > 0$ bo'lishi kerak. $\Delta_n = a_n \cdot \Delta_{n-1}$ bo'lishi Gurovits aniqlovchisining tuzilish strukturasi kelib chiqadi. SHunga ko'ra, agar $\Delta_n = a_n \cdot \Delta_{n-1} = 0$ bo'lsa, sistema turg'unlik chegarasida bo'ladi. Bu tenglik esa ikki holda, ya'ni $a_n = 0$ yoki $\Delta_{n-1} = 0$ bo'lganda bajarilishi mumkin.

Agarda $a_n = 0$ bo'lsa, unda tekshirilayotgan sistema turg'unlik holatining aperiodik chegarasida bo'ladi (ya'ni xarakteristik tenglamaning bitta ildizi nolga teng bo'ladi).

Agarda $\Delta_{n-1} = 0$ bo'lsa, unda tekshirilayotgan sistema turg'unlik holatining tebranma chegarasida bo'ladi (ya'ni xarakteristik tenglama juft mavhum ildizga ega bo'ladi).

Endi $n=1,2,3,4$ ga teng bo'lgan tenglamalar bilan ifodalangan sistemalar uchun Gurovits mezonining shartlarini ko'rib chiqamiz.

a) $n=1, \quad a_0 p + a_1 = 0.$

Bunda $a_0 > 0$; $\Delta_1 = a_1 > 0$ turg'unlik sharti bo'ladi. Demak, birinchi tartibli sistemalar turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglama koeffitsientlarining musbat bo'lishi etarlidir.

b) $n=2, \quad a_0 p^2 + a_1 p + a_2 = 0.$

Bunda turg'unlik shartlari quyidagicha bo'ladi:

$$a_0 > 0; \quad \Delta_1 = a_1 > 0; \quad \Delta_2 = a_1 \cdot a_2 > 0$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & 0 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 \cdot 0 = a_1 a_2 > 0$$

Demak, ikkinchi tartibli tenglama bilan ifodalangan sistemalarning turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglama koeffitsientlarining musbat bo'lishi etarli shart hisoblanadi.

b) $n=3, \quad a_0 p^3 + a_1 p^2 + a_2 p + a_3 = 0$

Turg'unlikning zaruriy shartlari:

$$a_0 > 0; \quad \Delta_1 = a_1 > 0;$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0$$

$$\Delta_3 = a_3 \cdot \Delta_2 > 0$$

SHunday qilib, uchunchi tartibli tenglama bilan ifodalangan sistema turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglama koeffitsentlarining musbat bo'lishi etarli bo'lmay, bunda $(a_1 a_2 - a_0 a_3) > 0$ tengsizlikning bajarilishi zarur shart hisoblanadi.

$$g) \quad n = 4, \quad a_0 p^4 + a_1 p^3 + a_2 p^2 + a_3 p + a_4 = 0$$

Turg'unlik shartlari:

$$a_0 > 0; \quad \Delta_1 = a_1 > 0;$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0;$$

$$\Delta_3 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 & 0 \\ a_0 & a_2 & a_4 \\ 0 & a_1 & a_3 \end{vmatrix} = a_1 a_2 a_3 + 0 + 0 - 0 - a_0 a_3^2 - a_1^2 a_4 = a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0;$$

$$\Delta_4 = a_4 \cdot \Delta_3.$$

To'rtinchi tartibli tenglama bilan ifodalangan sistemalar turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglama koeffitsentlarining musbat bo'lishidan tashqari yana ikki $(a_1 a_2 - a_0 a_3) > 0$, $a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0$ shartlar bajarilishi kerak.

Xarakteristik tenglamaning darajasi «n» ortgan sari yuqoridagi kabi bajarilishi kerak bo'lgan shartlar ham ko'payib boradi. SHuning uchun turg'unlikning Gurvits mezonining $n \leq 4$ bo'lgan sistemalar uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Misollar:

1. $12p^3 + 10p^2 + 8p + 10 = 0$ xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin.

Bunda $a_0 = 12 > 0$, $a_2 = 8 > 0$,

$a_3 = 10 > 0$, $a_3 = 10 > 0$

Gurvits mezonining etarli sharti bajarilgan. Endi zarur shartini aniqlaymiz. Buning uchun

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 = 10 \cdot 8 - 12 \cdot 10 = -40 > 0$$

Noldan kichik bo'lganligi sababli sistema noturg'un bo'ladi.

$$\Delta_3 = a_3 \cdot \Delta_2 = 10 \cdot (-40) = -400 < 0.$$

2. $0.1p^4 + 6p^3 + 4p^2 + p + 4 = 0$ tenglama berilgan bo'lsin.

Bunda $a_0 = 0.1 > 0$, $a_1 = 6 > 0$, $a_2 = 4 > 0$,

$a_3 = 1 > 0$, $a_4 = 4 > 0$.

$$\Delta_2 = a_1 a_2 - a_0 a_3 = 6 \cdot 4 - 0.1 \cdot 1 = 24 - 0.1 = 23.9 > 0;$$

$$\Delta_3 = a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 = 1 \cdot 23.9 - 2^2 \cdot 4 = 23.9 - 16 = 7.9 > 0.$$

$$\Delta_4 = a_4 \Delta_3 = 4 \cdot 7.9 = 31.6 > 0.$$

Gurvits mezonining etarli va zaruriy sharti bajarilganligi sababli sistema turg'un.

3. $3p^5+10p^4+5p^3-7p^2+p+100=0$ tenglama berilgan bo'lsin.

Bunda $a_0=3>0$, $a_1=10>0$, $a_2=5>0$,
 $a_3=-7<0$, $a_4=1>0$, $a_5=100>0$.

$a_3=-7$ manfiy ishorali bo'lganligi sababli Gurvits mezonining zaruriy sharti bajarilmayapti. SHuning uchun bu sistema noturg'un.

Kiritik kuchaytirish ko'effitsientini aniqlash

$D(p)=(1+pT_1)(1+pT_2)(1+pT_3)+K=0$ xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin.

Bunda K – ochiq sistemaning kuchaytirish ko'effitsienti; T_1, T_2, T_3 – sistemadagi dinamik zvenolarning vaqt doimiysi.

Turg'unlikning Gurvits mezonini qo'llanib, ochiq sistemaning kuchaytirish ko'effitsientining chegara (kritik) qiymati « K_{kr} » ni vaqt doimiylari T_1, T_2, T_3 ning funksiyasi sifatida aniqlaymiz. Buning uchun berilgan xarakteristik tenglamani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz.

$$D(p)=T_1T_2T_3p^3+(T_1T_2+T_1T_3+T_2T_3)p^2+(T_1+T_2+T_3)p+1+K=a_0p^3+a_1p^2+a_2p+a_3=0$$

$$a_0=T_1T_2T_3p^3; \quad a_1=T_1T_2+T_1T_3+T_2T_3;$$

$$a_2=T_1+T_2+T_3; \quad a_3=1+K.$$

Uchinchi tartibli sistema turg'un bo'lishi uchun Gurvits mezoniga binoan quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

$$a_0=0; \quad \Delta_1=a_1>0; \quad \Delta_2=a_1 \cdot a_2 - a_0a_3 > 0.$$

Bizning misolimizda hamma ko'effitsientlar musbat, shuning uchun quyidagi shart bajarilsa, sistema turg'un bo'ladi

$$(T_1T_2+T_1T_3+T_2T_3)(T_1+T_2+T_3) > T_1T_2T_3(1+K),$$

$$K_{sp} < 1 + \frac{T_1}{T_2} + \frac{T_1}{T_3} + \frac{T_2}{T_3} + 1 + \frac{T_2}{T_1} + 1 + \frac{T_3}{T_2} + \frac{T_3}{T_1} - 1$$

Agar $T_1 = T_2 = T_3$ bo'lsa, unda kritik kuchaytirish ko'effitsienti $K_{kr} = 8$ ga teng bo'ladi.

Demak, vaqt doimiylari T_1, T_2, T_3 ni o'zgartirish bilan ochiq sistemaning kuchaytirish ko'effitsientini o'zgartirish mumkin.

MA'RUZA №12

TURG'UNLIKNING CHASTOTAVIY MEZONLARI.

Mixaylovning turg'unlik mezoni o'zining mohiyati jixatdan argumentlar prinsipining geometrik tasviridir.

$$D(p) = a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0 \quad (1)$$

harakteristik tenglama berilgan bo'lsin. Bu erda $D(p)$ polinomni xarakteristik polinom deb ataladi.

Sistema turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglamaning hamma ildizlari kompleks tekisligining chap yarim tekisligida joylashishi, ya'ni o'ng ildizlar soni $l=0$ bo'lishi kerak. U holda argumentlar prinsipiga muvofiq $\Delta_{0 < \omega < \infty} \arg D(j\omega) = n \frac{\pi}{2}$ yoki $\Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg D(j\omega) = n\pi$ shart bajarilishi kerak.

CHastota $-\infty < \omega < \infty$ o'zgarganda $D(j\omega)$ vektroning kompleks tekisligidagi geometrik o'rniga Mixaylov gadografi deyiladi.

$$D(j\omega) = a_0 (j\omega)^n + a_1 (j\omega)^{n-1} + \dots + a_n = U(\omega) + jV(\omega),$$

bunda $U(\omega) = (a_n - a_{n-2}\omega^2 + a_{n-4}\omega^4 - \dots)$ haqiqiy qism bo'lib, u chastotaga nisbatan juft funksiyadir, ya'ni $U(\omega) = U(-\omega)$.

Mavhum qism esa chastotaga nisbatan toq funksiya bo'ladi.

$$V(\omega) = \omega(a_{n-1} + a_{n-3}\omega^2 - a_{n-5}\omega^4 + \dots),$$

$$V(-\omega) = -V(\omega).$$

SHunday qilib,

$$D(\omega) = U(\omega) - jV(\omega)$$

bo'ladi.

Mixaylov mezonining ta'rifi:


Agar chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda Mixaylov gadografi haqiqiy musbat o'qdan boshlab koordinata boshi atrofida musbat (soat strelkasiga qarshi) yo'nalishda $n \frac{\pi}{2}$ burchakka burilsa, u holda sistema turg'un bo'ladi (bu erda «n» xarakteristik tenglamaning darajasi).

1a-rasmda turg'unlik shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari keltirilgan.

Mixaylov gadografi taxlil etilganda, unda quyidagi natija kelib chiqadi.


Mixaylov gadografi koordinata tekisligida kvadratlarni ketma-ket kesib o'tganda, u haqiqiy va mavhum o'qlarni birin-ketin kesib o'tadi.

Mixaylov gadografi haqiqiy o'qni kesib o'tganda, uning mavhum funksiyasi $V(\omega)$ nolga aylanadi, mavhum o'qni kesib o'tganda esa Mixaylovning haqiqiy funksiyasi $U(\omega)$ nolga aylanadi.



1-rasm. a) sistemaning turg'unlik shartlari; b) sistemaning noturg'unlik shartlari; v) sistemaning turg'unlik chegaralari shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari.

SHuning uchun gadografning haqiqiy va mavhum o'qlarni kesib o'tgan nuqtalaridagi chastotaning qiymati $U(\omega) = 0$ (a), $V(\omega) = 0$ (b) tenglamalarining ildizlari bo'lishi kerak. 2-rasmda bu funksiyalarning grafigi keltirilgan.



2-rasm.

Bu egri chiziqlarning absissa o'qi bilan kesishgan nuqtalari (a) va (b) tenglamalarning ildizlarini bildiradi.

Agar $\omega_0, \omega_2, \omega_4, \dots$ (b) tenglamaning ildizlari $\omega_1, \omega_3, \omega_5, \dots$ esa (a) tenglamaning ildizlari bo'lib, shu bilan birga $\omega_0 < \omega_2 < \omega_4$ va $\omega_1 < \omega_3 < \omega_5$ bo'lsa, unda sistema turg'un bo'lishi uchun $\omega_0 < \omega_1 < \omega_2 < \omega_3 < \omega_4 < \omega_5$ tengsizlik bajarilishi kerak.

Misol 1: $2p^3 + 6p^2 + 10p + 15 = 0$ xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin. Mixaylov mezonini yordamida sistemaning turg'unligini tekshiring.

Buning uchun xarakteristik tenglamada « p » ni « $j\omega$ » bilan almashtiramiz va haqiqiy hamda mavho‘m qismlarga ajratamiz.

$$2(j\omega)^3 + 6(j\omega)^2 + 10(j\omega) + 15 = 0$$

$$U(\omega) = 15 - 6\omega^2$$

$$V(\omega) = \omega(10 - 2\omega^2)$$

a) $\omega = 0$ bo‘lsa $U(\omega) = 15$; $V(0) = 0$;


b) $U(\omega) = 0$; $15 - 6\omega^2 = 0$ $\omega^2 = 15/6 = 2.5$;

$$V(\sqrt{2.5}) = \sqrt{2.5}(10 - 2 \cdot 2.5) = \sqrt{2.5} \cdot 5 = 7$$
;

v) $V(\omega) = 0$; $(10 - 2\omega^2) = 2$ $\omega^2 = 5$;

$$U(\sqrt{5}) = 15 - 6 \cdot 5 = -15.$$

SHu qiymatlar asosida Mixaylov gadografini chizamiz (3-rasm).



3 – rasm.

Mixaylov gadografi uchta kvadratni ketma-ket kesib o‘tyapti, ya’ni I, II va III – choraklarni. SHuning uchun sistema turg‘un, chunki xarakteristik tenglamaning darajasi $n=3$ teng.

MIXAYLOV TURG'UNLIK MEZONI.

Mixaylovning turg'unlik mezoni o'zining mohiyati jixatdan argumentlar prinsipining geometrik tasviridir.

$$D(p) = a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0 \quad (1)$$

harakteristik tenglama berilgan bo'lsin. Bu erda $D(p)$ polinomni xarakteristik polinom deb ataladi.

Sistema turg'un bo'lishi uchun xarakteristik tenglamaning hamma ildizlari kompleks tekisligining chap yarim tekisligida joylashishi, ya'ni o'ng ildizlar soni $l=0$ bo'lishi kerak. U holda argumentlar prinsipiga muvofiq $\Delta_{0 < \omega < \infty} \arg D(j\omega) = n \frac{\pi}{2}$ yoki $\Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg D(j\omega) = n\pi$ shart bajarilishi kerak.

Chastota $-\infty < \omega < \infty$ o'zgarganda $D(j\omega)$ vektroning kompleks tekisligidagi geometrik o'rniga Mixaylov gadografi deyiladi.

$$D(j\omega) = a_0 (j\omega)^n + a_1 (j\omega)^{n-1} + \dots + a_n = U(\omega) + jV(\omega),$$

bunda $U(\omega) = (a_n - a_{n-2}\omega^2 + a_{n-4}\omega^4 - \dots)$ haqiqiy qism bo'lib, u chastotaga nisbatan juft funksiyadir, ya'ni $U(\omega) = U(-\omega)$.

Mavhum qism esa chastotaga nisbatan toq funksiya bo'ladi.

$$V(\omega) = \omega(a_{n-1} + a_{n-3}\omega^2 - a_{n-5}\omega^4 + \dots),$$

$$V(-\omega) = -V(\omega).$$

Shunday qilib,

$$D(\omega) = U(\omega) - jV(\omega)$$

bo'ladi.

Mixaylov mezonining ta'rifi:


Agar chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda Mixaylov gadografi haqiqiy musbat o'qdan boshlab koordinata boshi atrofida musbat (soat strelkasiga qarshi) yo'nalishda $n \frac{\pi}{2}$ burchakka burilsa, u holda sistema turg'un bo'ladi (bu erda «n» xarakteristik tenglamaning darajasi).

1a-rasmda turg'unlik shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari keltirilgan.

Mixaylov gadografi taxlil etilganda, unda quyidagi natija kelib chiqadi.


Mixaylov gadografi koordinata tekisligida kvadratlarni ketma-ket kesib o'tganda, u haqiqiy va mavhum o'qlarni birin-ketin kesib o'tadi.

Mixaylov gadografi haqiqiy o'qni kesib o'tganda, uning mavhum funksiyasi $V(\omega)$ nolga aylanadi, mavhum o'qni kesib o'tganda esa Mixaylovning haqiqiy funksiyasi $U(\omega)$ nolga aylanadi.



1-rasm. a) sistemaning turg'unlik shartlari; b) sistemaning noturg'unlik shartlari; v) sistemaning turg'unlik chegaralari shartlari uchun Mixaylov gadograflarining ko'rinishlari.

SHuning uchun gadografning haqiqiy va mavhum o'qlarni kesib o'tgan nuqtalaridagi chastotaning qiymati $U(\omega) = 0$ (a), $V(\omega) = 0$ (b) tenglamalarining ildizlari bo'lishi kerak. 2-rasmda bu funksiyalarning grafigi keltirilgan.



2-rasm.

Bu egri chiziqlarning absissa o'qi bilan kesishgan nuqtalari (a) va (b) tenglamalarning ildizlarini bildiradi.

Agar $\omega_0, \omega_2, \omega_4, \dots$ (b) tenglamaning ildizlari $\omega_1, \omega_3, \omega_5, \dots$ esa (a) tenglamaning ildizlari bo'lib, shu bilan birga $\omega_0 < \omega_2 < \omega_4$ va $\omega_1 < \omega_3 < \omega_5$ bo'lsa, unda sistema turg'un bo'lishi uchun $\omega_0 < \omega_1 < \omega_2 < \omega_3 < \omega_4 < \omega_5$ tengsizlik bajarilishi kerak.

Misol 1: $2p^3 + 6p^2 + 10p + 15 = 0$ xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin. Mixaylov mezoni yordamida sistemaning turg'unligini tekshiring.

Buning uchun xarakteristik tenglamada « p » ni « $j\omega$ » bilan almashtiramiz va haqiqiy hamda mavho‘m qismlarga ajratamiz.

$$2(j\omega)^3 + 6(j\omega)^2 + 10(j\omega) + 15 = 0$$

$$U(\omega) = 15 - 6\omega^2$$

$$V(\omega) = \omega(10 - 2\omega^2)$$

$$a) \omega = 0 \text{ bo'lsa } U(\omega) = 15; \quad V(0) = 0;$$


$$b) U(\omega) = 0; \quad 15 - 6\omega^2 = 0 \quad \omega^2 = 15/6 = 2.5;$$

$$V(\sqrt{2.5}) = \sqrt{2.5}(10 - 2 \cdot 2.5) = \sqrt{2.5} \cdot 5 = 7;$$

$$v) V(\omega) = 0; \quad (10 - 2\omega^2) = 2 \quad \omega^2 = 5;$$

$$U(\sqrt{5}) = 15 - 6 \cdot 5 = -15.$$

SHu qiymatlar asosida Mixaylov gadografini chizamiz (3-rasm).



3 – rasm.

Mixaylov gadografi uchta kvadratni ketma-ket kesib o‘tyapti, ya’ni I, II va III – choraklarni. SHuning uchun sistema turg‘un, chunki xarakteristik tenglamaning darajasi $n=3$ teng.

TURG'UNLIKNING NAYKVIST MEZONI

Turg'unlikning Naykvist mezoni ochiq sistemaning amplituda faza xarakteristikasi (AFX) bo'yicha berk sistemaning turg'unligini tekshirish imkoniyatini beradi. Ochiq sistemaning AFX sini esa ham analitik ham tajriba yo'li bilan olish mumkin.

Turg'unlikning bu mezoni aniq ravshan fizik ma'noga ega, ya'ni bu mezon ochiq sistemaning statsionar chastotali xususiyatlarini berk sistemaning nostatsionar xususiyatlari bilan bog'laydi.

Ochiq sistemaning uzatish funksiyasi $W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)}$ berilgan bo'lsin. Bu erda $Q(p) = 0$ – ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi. Berk sistemaning uzatish funksiyasi:

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{P(p)}{Q(p)}}{1+\frac{P(p)}{Q(p)}} = \frac{P(p)}{Q(p)+P(p)},$$

$$A(p) = 1+W(p) = 1+\frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{Q(p)+P(p)}{Q(p)} \quad (1)$$

Berk sistemaning xarakteristik tenglamasi:

$Q(p)+P(p)$ – berk sistemaning xarakteristik polinomini ifodalaydi.

$Q(p)$ – polinomi « n » darajaga ega;

$P(p)$ – polinom « m » darajaga ega.

Sistemani ishga tushirish uchun doimo $m < n$ bo'lishi kerak. SHuning uchun $Q(p)+P(p)$ polinom « n » darajaga ega bo'ladi.

Ochiq sistemaning o'zi turg'un va noturg'un holarda bo'lishi mumkin. Biz mana shu ikki holatda berk sistemaning turg'unligini tekshirib ko'ramiz.

a) Ochiq sistema turg'un holatda.

Xarakteristik tenglamaning o'ng ildizlari soni $l=0$. Mixaylov mezoniga muvofiq ochiq sistema xarakteristik tenglamasi argumentining o'zgarishi:

$$\Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} \quad (0 < \omega < \infty)$$

Endi berk sistema turg'un bo'lishini talab etamiz. Unda quyidagi tenglik bajarilishi lozim:


$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2} \quad (2)$$

(1) ifodaga muvofiq berk sistemaning xarakteristik tenglamasining argument o'zgarishi:

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - n \frac{\pi}{2} = 0. \quad (3)$$

SHunday qilib, berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'qi atrofidagi burchak burilishi (argument o'zgarishi) nolga teng bo'lishi kerak yoki chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda berk sistema AFXsi $A(j\omega)$ koordinata boshini, ya'ni $(0; 0)$ nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak.

$A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ gazografining ko'rinishi 1-rasmda ko'rsatilgan.




1 – rasm. I – berk sistema turg'un; II – berk sistema noturg'un.

Lekin sistemaning AFX $A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ si ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ sidan faqat «+1» gagina.

SHuning uchun yuqorida keltirilgan Naykvist mezonining ta'rifini ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ ga tadbiiq etganimizda Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ si chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $(-1; j0)$ kritik nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak (2-rasm).



2 – rasm. I – berk sistema turg'un; II – berk sistema noturg'un.

b) Ochiq sistema noturg'un.

Bunda ochiq sistema xarakteristik tenglamasi « l » o'ng ildizga ega, ya'ni $l \neq 0$, unda argumentlar prinsipiga muvofiq

$$\Delta \arg Q(j\omega) = (n-2l) \frac{\pi}{2} \quad (4)$$

bo'ladi.

Agar sistemaning turg'un bo'lishi talab etilsa, unda quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2}. \quad (5)$$


U holda $A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ vektorining argument o'zgarishi

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - (n-2l) \frac{\pi}{2} = l\pi \quad (6)$$

bo'ladi. YA'ni $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'qining boshi atrofidagi summar burchak burilishi turg'un berk sistema uchun « $l\pi$ » ga teng bo'lishi lozim.

Bundan Naykvist mezonining quyidagi ta'rifi kelib chiqadi:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ si kritik nuqta $(-1; j0)$ ni $l/2$ marta o'z ichiga olishi kerak; bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni (3-rasm).




3-rasm.

$W(j\omega)$ gadografi $(-1; j0)$ nuqtani bir marta o'z ichiga olyapti. SHuning uchun bunda ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l = 2$, chunki $l/2 = 1 \Rightarrow l = 2$. Demak ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l = 2$ bo'lsa, berk sistema ham noturg'un bo'ladi.

Amaliy masalalarni echishda YA.Z.Sыpkin taklif etgan «o'tish qoidasini» qo'llash maqsadga muvofiqdir.

$W(j\omega)$ xarakteristikani o'tishi deganda shu xarakteristikaning kompleks tekisligida manfiy haqiqiy o'qni $(-1; j0)$ nuqtaning chap tomonini, ya'ni $[-\infty; -1]$ kesmani chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda pastdan yuqoriga kesib o'tsa, musbat o'tish yuqoridan pastga kesib o'tsa, manfiy o'tish deyiladi (4-rasm).




4 – rasm.

Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olgan holda Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFXsining chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda $[-\infty; -1]$ kesma orqali musbat va manfiy o'tishlarning ayirmasi $l/2$ ga teng bo'lishi kerak. Bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni.

Agar ochiq sistemaning AFXsi $\omega=0$ bo'lganda $[-\infty; -1]$ kesmada boshlansa yoki $\omega=\infty$ bo'lganda shu kesmada tugasa, unda bunday o'tishni yarim o'tish deyiladi (5-rasm).



5 – rasm.

Statik ochiq sistemaning $W(j\omega)$ xarakteristiklari chastota o'zgariganda yopiq kontur hosil qiladi.

Ideal integrallagich zvenosi bo'lgan astatik ochiq sistemalarning $W(j\omega)$ xarakteristiklari chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda yopiq kontur hosil qilmaydi.

v) Astatik sistema uchun Naykvist mezonini qo'llash.

Astatik sistemaning AFX

$$W(j\omega) = \frac{P(j\omega)}{(j\omega)^v Q(j\omega)}, \quad (7)$$

ko‘rinishga ega bo‘lib, yopiq kontur hosil qilmaydi.

Bunday sistemalar uchun ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi nol ildizga ega bo‘lib, quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin.

$$Q(p) = p^\nu Q_1(p), \quad (8)$$

bu erda ν - astatizm darajasi, ya‘ni sistemadagi ideal integral zvenolar soni; $Q(p)$ - nol ildizga ega bo‘lmagan polinom.

Astatik sistemaalarning AFXsi (5) ifodaga ko‘ra $\omega=0$ bo‘lganda ∞ bo‘ladi. SHuning uchun kritik $(-1; j0)$ nuqtani «kontur ichida» yoki «kontur tashqarisida» ekanligini aniqlash qiyinlashadi, ya‘ni $W(j\omega)$ xarakteristikasi $(-1; j0)$ kritik nuqtani o‘z ichiga oladimi yoki yo‘qmi ekanligini aytish mumkin bo‘lmay qoladi. O‘z navbatida berk sistemaning turg‘unlik masalalarini echish qiyinlashadi.

Sistema tarkibidagi ideal integrallovchi zvenolar chastota $0 < \omega < \infty$ o‘zgarganda $-\nu \frac{\pi}{2}$ burchak o‘zgarishini beradi. Bunda ν – ketma-ket ulangan idal integrallovchi zvenolar soni.


Shuning uchun $\Delta \arg A(j\omega)$ ni hisoblash uchun $W(j\omega)$ gadografi cheksiz katta radiusga ega bo‘lgan aylananing yoyi bilan musbat haqiqiy yarim o‘qqa qadar to‘ldiriladi ($l=0$ yoki juft son bo‘lganda). Unda Naykvist mezoni quyidagicha ta‘riflash mumkin:

Agar ochiq sistemaning « ∞ » radiusga ega bo‘lgan aylaning yoyi bilan to‘ldirilgan ochiq sistemaning $W(j\omega)$ xarakteristikasi chastota $0 < \omega < \infty$ o‘zgarganda kritik $(-1; j0)$ nuqtani $l/2$ marta o‘z ichiga olsa, berk astatik sistema turg‘un bo‘ladi. Bunda l - ochiq sistema tarakteristik tenglamasining o‘ng ildizlar soni.

6-rasmda ochiq sistema turg‘un bo‘lgan ($l=0$) xolda berk sistemaning turg‘o‘nligini aniqlashga misollar keltirilgan.

6-rasmda keltirilgan gadograflardan ko‘rinib turibdiki, agar sistema turg‘un bo‘lsa, u holda kritik $(-1; j0)$ nuqta « ∞ » radiusga ega bo‘lgan aylananing yoyi bilan to‘ldirilgan ochiq sistema AFX ning tashqarisida yotadi. Agar bu nuqta shu xarakteristikaning ichida bo‘lsa, unda sistema noturg‘un bo‘ladi.

Agar ochiq sistema turg‘un bo‘lsa, ($l=0$), unda AFX manfiy haqiqiy yarim o‘qni $[-\infty; -1]$ kesmada kesib o‘tadi yoki bu kesmani juft marta kesib o‘tadi. Agar $[-\infty; -1]$ kesmani kesib o‘tishlar soni toq bo‘lsa, unda berk sistema noturg‘un bo‘ladi.



6-rasm. a) $v=1$ berk sistema noturg'un; b) $v=1$ berk sistema turg'un;
 v) $v=2$ berk sistema turg'un; g) $v=2$ berk sistema noturg'un;

Ochiq sistema yoki uning tarkibidagi birorta zvenoning tenglamasi noma'lum bo'lsa-yu, lekin ochiq sistemaning $W(j\omega)$ AFX si tajriba yo'li bilan olingan bo'lsa, unda bunday sistemaning turg'unligini tekshirish uchun faqatgina Naykvist mezonini qo'llash mumkin. Bu esa Naykvist turg'unlik mezonining boshqa turg'unlik mezonlaridan afzalligini ko'rsatadi. Bundan tashqari kechikuvchi sistemalarning turg'unligini tekshirishda faqatgina Naykvist mezonini qo'llash mumkin.

Ma'ruza № 15.

Turg'unlikning zahiralari va sohalari. D – bo'linish tushunchasi

Asosiy ta'riflar va tushunchalar

Turg'unlikning Naykvist mezonini ochiq sistemaning amplituda faza xarakteristikasi (AFX) bo'yicha berk sistemaning turg'unligini tekshirish imkoniyatini beradi. Ochiq sistemaning AFX sini esa ham analitik ham tajriba yo'li bilan olish mumkin.

Turg'unlikning bu mezonini aniq ravshan fizik ma'noga ega, ya'ni bu mezon ochiq sistemaning statsionar chastotali xususiyatlarini berk sistemaning nostatsionar xususiyatlari bilan bog'laydi.

Ochiq sistemaning uzatish funksiyasi $W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)}$ berilgan bo'lsin. Bu yerda $Q(p) = 0$ – ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi. Berk sistemaning uzatish funksiyasi:

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{P(p)}{Q(p)}}{1+\frac{P(p)}{Q(p)}} = \frac{P(p)}{Q(p)+P(p)},$$
$$A(p) = 1+W(p) = 1+\frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{Q(p)+P(p)}{Q(p)} \quad (1)$$

Berk sistemaning xarakteristik tenglamasi:

$Q(p)+P(p)$ – berk sistemaning xarakteristik polinomini ifodalaydi.

$Q(p)$ – polinomi « n » darajaga ega;

$P(p)$ – polinom « m » darajaga ega.

Sistemani ishga tushirish uchun doimo $m < n$ bo'lishi kerak. Shuning uchun $Q(p)+P(p)$ polinom « n » darajaga ega bo'ladi.

Ochiq sistemaning o'zi turg'un va noturg'un holarda bo'lishi mumkin. Biz mana shu ikki holatda berk sistemaning turg'unligini tekshirib ko'ramiz.

a) Ochiq sistema turg'un holatda.

Xarakteristik tenglamani o'ng ildizlari soni $l=0$. Mixaylov mezoniga muvofiq ochiq sistema xarakteristik tenglamasi argumentining o'zgarishi:

$$\Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} \quad 0 < \omega < \infty$$

Endi berk sistema turg'un bo'lishini talab etamiz. Unda quyidagi tenglik bajarilishi lozim:


$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2} \quad (2)$$

(1) ifodaga muvofiq berk sistemaning xarakteristik tenglamasining argument o'zgarishi:

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - n \frac{\pi}{2} = 0. \quad (3)$$

Shunday qilib, berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'qi atrofidagi burchak burilishi (argument o'zgarishi) nolga teng bo'lishi kerak yoki chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda berk sistema AFXsi $A(j\omega)$ koordinata boshini, ya'ni $(0; 0)$ nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak.

$A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ gazografining ko'rinishi 1-rasmda ko'rsatilgan.




1 – rasm. I – berk sistema turg'un; II – berk sistema noturg'un.

Lekin sistemaning AFX $A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ si ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ sidan faqat «+1» gagina.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan Naykvist mezonining ta'rifini ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ ga tadbiq etganimizda Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ si chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $(-1; j0)$ kritik nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak (2-rasm).



2 – rasm. I – berk sistema turg'un; II – berk sistema noturg'un.

b) Ochiq sistema noturg'un.

Bunda ochiq sistema xarakteristik tenglamasi « l » o'ng ildizga ega, ya'ni $l \neq 0$, unda argumentlar prinsipiga muvofiq

$$\Delta \arg Q(j\omega) = (n-2l) \frac{\pi}{2} \quad (4)$$

$0 < \omega < \infty$

bo'ladi.

Agar sistemaning turg'un bo'lishi talab etilsa, unda quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2}. \quad (5)$$

$0 < \omega < \infty$

U holda $A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ vektorining argument o'zgarishi


$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - (n-2l) \frac{\pi}{2} = l\pi \quad (6)$$

$0 < \omega < \infty$

bo'ladi. YA'ni $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'qining boshi atrofidagi summar burchak burilishi turg'un berk sistema uchun « $l\pi$ » ga teng bo'lishi lozim.

Bundan Naykvist mezonining quyidagi ta'rifi kelib chiqadi:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ si kritik nuqta $(-1; j0)$ ni $l/2$ marta o'z ichiga olishi kerak; bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni (3-rasm).




3-rasm.

$W(j\omega)$ gadografi $(-1; j0)$ nuqtani bir marta o'z ichiga olyapti. Shuning uchun bunda ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l = 2$, chunki $l/2 = 1 \Rightarrow l = 2$. Demak ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l = 2$ bo'lsa, berk sistema ham noturg'un bo'ladi.

Amaliy masalalarni yechishda Y.Z.Sipkin taklif etgan «o'tish qoidasini» qo'llash maqsadga muvofiqdir.

$W(j\omega)$ xarakteristikani o'tishi deganda shu xarakteristikaning kompleks tekisligida manfiy haqiqiy o'qni $(-1; j0)$ nuqtaning chap tomonini, ya'ni $[-\infty; -1]$ kesmani chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda pastdan yuqoriga kesib o'tsa, musbat o'tish yuqoridan pastga kesib o'tsa, manfiy o'tish deyiladi (4-rasm).




4 – rasm.

Yuqorida aytilganlarni eʼtiborga olgan holda Naykvist mezonini quyidagicha taʼriflash mumkin:

Berk sistema turgʻun boʻlishi uchun ochiq sistemaning AFXsining chastota $0 < \omega < \infty$ oʻzgarganda $[-\infty; -1]$ kesma orqali musbat va manfiy oʻtishlarning ayirmasi $l/2$ ga teng boʻlishi kerak. Bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining oʻng ildizlar soni.

Agar ochiq sistemaning AFXsi $\omega=0$ boʻlganda $[-\infty; -1]$ kesmada boshlansa yoki $\omega=\infty$ boʻlganda shu kesmada tugasa, unda bunday oʻtishni yarim oʻtish deyiladi (5-rasm).



5 – rasm.

Statik ochiq sistemaning $W(j\omega)$ xarakteristiklari chastota oʻzgarganda yopiq kontur hosil qiladi.

Ideal integrallagich zvenosi boʻlgan astatik ochiq sistemalarning $W(j\omega)$ xarakteristiklari chastota $0 < \omega < \infty$ oʻzgarganda yopiq kontur hosil qilmaydi.

v) Astatik sistema uchun Naykvist mezonini qoʻllash.

Astatik sistemaning AFX

$$W(j\omega) = \frac{P(j\omega)}{(j\omega)^v Q(j\omega)}, \quad (7)$$

koʻrinishga ega boʻlib, yopiq kontur hosil qilmaydi.

Bunday sistemalar uchun ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi nol ildizga ega bo'lib, quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin.

$$Q(p) = p^\nu Q_1(p), \quad (8)$$

bu yerda ν - astatizm darajasi, ya'ni sistemadagi ideal integral zvenolar soni; $Q(p)$ - nol ildizga ega bo'lmagan polinom.

Astatik sistemaalarning AFXsi (5) ifodaga ko'ra $\omega=0$ bo'lganda ∞ bo'ladi. Shuning uchun kritik $(-1; j0)$ nuqtani «kontur ichida» yoki «kontur tashqarisida» ekanligini aniqlash qiyinlashadi, ya'ni $W(j\omega)$ xarakteristikasi $(-1; j0)$ kritik nuqtani o'z ichiga oladimi yoki yo'qmi ekanligini aytish mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida berk sistemaning turg'unlik masalalarini yechish qiyinlashadi.

Sistema tarkibidagi ideal integrallovchi zvenolar chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $-\nu \frac{\pi}{2}$ burchak o'zgarishini beradi. Bunda ν - ketma-ket ulangan idal integrallovchi zvenolar soni.


Shuning uchun $\Delta \arg A(j\omega)$ ni hisoblash uchun $W(j\omega)$ gadografi cheksiz katta radiusga ega bo'lgan aylananing yoyi bilan musbat haqiqiy yarim o'qqa qadar to'ldiriladi ($l=0$ yoki juft son bo'lganda). Unda Naykvist mezoni quyidagicha ta'riflash mumkin:

Agar ochiq sistemaning « ∞ » radiusga ega bo'lgan aylaning yoyi bilan to'ldirilgan ochiq sistemaning $W(j\omega)$ xarakteristikasi chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda kritik $(-1; j0)$ nuqtani $l/2$ marta o'z ichiga olsa, berk astatik sistema turg'un bo'ladi. Bunda l - ochiq sistema tarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni.

6-rasmda ochiq sistema turg'un bo'lgan ($l=0$) xolda berk sistemaning turg'olonligini aniqlashga misollar keltirilgan.

6-rasmda keltirilgan gadograflardan ko'rinib turibdiki, agar sistema turg'un bo'lsa, u holda kritik $(-1; j0)$ nuqta « ∞ » radiusga ega bo'lgan aylananing yoyi bilan to'ldirilgan ochiq sistema AFX ning tashqarisida yotadi. Agar bu nuqta shu xarakteristikaning ichida bo'lsa, unda sistema noturg'un bo'ladi.

Agar ochiq sistema turg'un bo'lsa, ($l=0$), unda AFX manfiy haqiqiy yarim o'qni $[-\infty; -1]$ kesmada kesib o'tadi yoki bu kesmani juft marta kesib o'tadi. Agar $[-\infty; -1]$ kesmani kesib o'tishlar soni toq bo'lsa, unda berk sistema noturg'un bo'ladi.



6-rasm. a) $v=1$ berk sistema noturg'un; b) $v=1$ berk sistema turg'un;
 v) $v=2$ berk sistema turg'un; g) $v=2$ berk sistema noturg'un;

Ochiq sistema yoki uning tarkibidagi birorta zvenoning tenglamasi noma'lum bo'lsa-yu, lekin ochiq sistemaning $W(j\omega)$ AFX si tajriba yo'li bilan olingan bo'lsa, unda bunday sistemaning turg'unligini tekshirish uchun faqatgina Naykvist mezonini qo'llash mumkin. Bu esa Naykvist turg'unlik mezonining boshqa turg'unlik mezonlaridan afzalligini ko'rsatadi. Bundan tashqari kechikuvchi sistemalarning turg'unligini tekshirishda faqatgina Naykvist mezonini qo'llash mumkin.

Ma'ruza №16.

BARQAROR REJIMLARDA ROSTLASH SIFATINI BAHOLASH.

Biror avtomatik rostlash tizimining amalda ishlatilishi uning turg'unlik talablarini bajarishiga bog'liq (bular faqat zarur bo'lgan shartlardir). ART ning ishlatilishi uchun yetarli bo'lgan shart - tizimning talab qilingan rostlash sifatini ta'minlash qobiliyatidir. Bu sifat rostlash tizimidagi o'tish jarayonlarining shakliga bog'liq.

Tizimning turli parametrlari rostlash jarayoniga ko'rsatilgan differensial yoki xarakteristik tenglamalarning umumiy ko'rinishini yechish uchun lozim.

Agar tizim to'rtinchi tartibdan yuqori bo'lsa yechish mumkin bo'lmaydi, chunki uning ildizlari radikallar orqali ifodalanmaydi. Shuning uchun, rostlash sifati, ya'ni turg'unlik darajasi, bilvosita integral yoki xususiy tahlil yordamida baholanadi. Amalda rostlash sifatini integral baholash usuli bilan baholash keng tarqalgan.

Integral baholash usuli - ma'lum integralni rostlanadigan parametrdan chetga chiqishida hisoblashga asoslanib, differensial tenglamalarni yechishni talab qilmaydi. Rostlash sifatini chiziqli kvadratik va tuzatilgan kvadratik baholash usullari mavjud. Bu baholashlar rostlash jarayonining bir yo'la ikki tomonini: so'nish tezligi va o'tish jarayonidagi rostlanuvchi parametrdan chetga chiqish kattaligini ta'riflaydi.

Chiziqli integral baholash I_1 . O'tish jarayonining sifati rostlanuvchi parametrdan berilgan qiymatdan chetga chiqishi va rostlash vaqti orqali aniqlanadi. O'tish jarayonining egri chizig'i ostidagi yuza bu ikki faktorni o'z ichiga olib, shu yuza qanchalik kichik bo'lsa, qolgan shartlardagi rostlash jarayonining sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Rostlashning vazifasi tizimdagi o'tish xarakteristikasi sifatining I_1 chiziqli integral baholashning eng kichik qiymatini ta'minlashdan iborat:

$$I_1 = \int_0^{\infty} \varphi dt$$

Chiziqli integral baholashning mezonning kamchiligi uning nodavriy jarayonlarga yaqin bo'lgan jarayonlarni ta'minlovchi tizimlar uchun ishlatilishidir. Tebranishli o'tish jarayonlarining sifatini baholash uchun bu mezondan foydalanib bo'lmaydi, chunki o'tish jarayonining musbat yarim to'lqinlari manfiy yarim to'lqinlar bilan almashib turadi; bu yarim to'lqinlar yuzasining ishorasi ham ketma-ket qarama-qarshi ishoralar bilan almashinib turadi.

Kvadratik integral baholash I_2 . Nodavriy va tebranishli o'tish jarayonlari uchun rostlash jarayonining sifatini kvadratik integral baholash I_2 usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir:

$$I_2 = \int_0^{\infty} \varphi^2 dt$$

Bunday baholash $\varphi^2(t)$ egri chiziq va absissalar o'qi bilan cheklangan yuzani hosil qiladi. φ tengsizlikning ishorasi o'zgarganda rostlanuvchi kattalikning berilgan qiymatining chizig'ini ikki tomonida joylashgan yuzalarining mutloq qiymatini

jamlashga halaqit bermaydi. Alohida yuzalarning qiymatini hisoblashda ordinataning o'rniga uning kvadratik qiymati hisobga olinadi.

Bu mezonning ma'nosi shundaki, I_2 integral kattalik qancha kichik bo'lsa, rostlashning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Shunday qilib, kvadratik integral balansni qo'llash I_2 integralning eng kichik qiymatini ta'minlovchi parametrlar izlashni nazarda tutadi.

I_2 integral baholashning minimal qiymatga ega bo'lgan ikkita (masalan S_0 va S_1 parametrini topish kerak bo'lsa, integral baholashni shu S_0 va S_1 parametrlar funksiyasida yozish va $I_2(S_0, S_1)$ funksiyaning xususiy hosilalarini nolga tenglashtirish kerak:

$$I_2 = f(S_0, S_1) \quad (1)$$

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial I_2(S_0, S_1)}{\partial S_0} &= 0 \\ \frac{\partial I_2(S_0, S_1)}{\partial S_1} &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

(2) tizim bo'yicha I_2 integral baholashning minimumini qanoatlantiradigan S_0 va S_1 parametrlar aniqlanadi. Ba'zan ko'rilayotgan S_0 va S_1 parametrlar bo'yicha I_2 minimumga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda boshqa faktorlarga ko'ra tuzilgan tarmoqdagi I_2 baholashning eng kichik qiymati bo'yicha optimal parametrlar tanlanadi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, turli o'tish jarayonlariga ega bo'lgan ART lar bir xil kattalikni baholash bilan ham ta'riflanishi mumkin. Shuning uchun, I_2 baholash kichik bo'lgan o'tish jarayoni solishtirilayotgan jarayondan yaxshiroq deb ta'kidlash o'rinli bo'lavermaydi. Rostlash jarayonining sifatini aniqlashdagi kvadratik integral baholash usulining asosiy kamchiligi ham shundadir.

Tuzatilgan kvadratik integral baxrolash I_3 . Rostlash jarayonining sifatini tuzatilgan kvadratik integral usul I_3 bo'yicha baholashni A. A. Feldbaum taklif etgan:

$$I_3 = \int_0^{\infty} \left[\varphi^2 + K_2 \cdot \left(\frac{d\varphi}{dt} \right)^2 \right] \cdot dt;$$


bu yerda, K - o'tish jarayonidagi egri chiziqning vaqt doimiysi.

Integral kvadratik baholash. K vaznli $\frac{d\varphi}{dt}$ hosilani kiritish o'tish jarayoni tezligining rostlash sifatiga ko'rsatgan ta'sirini e'tiborga olish imkonini beradi.

Istalgan ART sintezining vazifasi I_3 integralning eng kichik qiymatini ta'minlovchi shartlarni topishdan iborat. I_3 integralning minimumlashtirish xususiyati uning mukammal jarayonining eksponentasiga to'g'ri kelishida I_3 integral baholashning minimumi rostlash tizimida o'tayotgan jarayonning va monoton ekanligidan dalolat beradi.

ABS o'tish jarayonining sifat ko'rsatkichlari

ABSning o'tish jarayoni turg'unlik talablariga javob bera olish bilan birga texnologik jarayon yoki agregatning ishlash talablariga muvofiq sifat ko'rsatkichlariga ham ega bo'lishi zarur. Aks xolda ABS o'zining asosiy vazifasini bajara olmaydi. O'tish jarayonining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun odatda sistemaning turli tipik kirish ta'sirlariga javob reaksiyasi, ya'ni o'tish funksiyasining grafigi analiz qilinadi. ABS ish jarayonida yetarli darajadagi tezkorlik bilan yangi qaror holatga o'ta olishi, berilgan qiymatiga nisbatan chiqish kattaligini ma'lum bir yetarli aniqlikda ushlab turishi, ya'ni chiqish kattaligining ayni qiymatining berilganidan qaror holatdagi og'ishi, o'tish jarayonida chiqish kattaligining maksimal og'ish kattaligi va jarayonning tebranuvchanligi kabi ko'rsatkichlar o'tish jarayonining sifat ko'rsatkichlari deyiladi.



1-rasm. ABS ning o'tish jarayoni grafigi

ABSning ishlash aniqligi turli qaror rejimlardagi chiqish kattaligining ayni qiymati bilan berilgan qiymati orasida farq $\delta(t)$ (3.6-rasm) bilan baholanadi.

Amalda ABSlar qoniqarli ishlashi uchun $\delta \leq 0,05 y_\infty$, ya'ni chiqish kattaligining ayni qiymati barqarorlashgan qiymatining 5% dan katta bo'lmasligi kerak.

Sistemaning tezkorligi rostlash vaqti bilan baholanadi va u kirish ta'siri berilgan ondan boshlab, to chiqish kattaligi ayni qiymatining berilganidan farqi $\varepsilon(t) \leq \Delta = (0,03...0,05)y_\infty$ bo'lganda tugaydi.

Chiqish kattaligining o'tish jarayonidagi maksimal og'ishi o'tarostlash ko'rsatkichi orqali baholanadi:
$$\sigma = \frac{y_{\max} - y_\infty}{y_\infty} \cdot 100\%,$$
 bu yerda y_{\max} - chiqish

kattaligining o'tish jarayonidagi maksimal qiymati.

O'tish jarayoni vaqti (T_p)dagi chiqish kattaligining yarim tebranishlar soni sistemaning *tebranuvchanligini* miqdoran baholaydi. Ushbu ko'rsatkich va o'tarostlash asosan sistemaning turg'unlik zahirasiga bog'liq bo'lib, uning bilvosita ko'rsatkichlari bo'la oladi. Sistema qanchalik turg'unlik chegarasiga yaqin bo'lsa, shunchalik σ va $n_{me\ddot{o}}$ qiymati katta bo'ladi. Sistema texnologik jarayon talablariga javob beradigan tezkorlikka ega bo'lishi, hamda $\sigma \leq 20\%$ va $n_{me\ddot{o}} \leq 2...3$ kabi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.

Avtomatik sistema ishlash sifatining dinamik ko'rsatkichlari (roslash vaqti - t_p , o'tarostlash σ va o'tish jarayoning tebranuvchiligi $n_{me\sigma}$) yuqorida takidlanganidek, sistema o'tish jarayonining grafigini analiz qilish orqali aniqlanadi. Bu grafikni tajriba yo'li bilan,elekton(EHM) yoki analog(AHM) hisoblash mashinalarida modellashtirish yoki hisoblash (analitik) usullari bilan olish mumkin.

Tajriba usuli bilan o'tish jarayonining grafigi olish uchun ABS, ya'ni boshqarish obyekti va boshqaruvchi qurilma (rostlagich) zarur o'lchov, qayt qiluvchi asbob va qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Bunday sistemaga birlik kirish ta'siri $1(t)$ berilib, chiqish kattaligi $y(t)$ ning o'zgarishi yozib (qayt kilib) olinadi va shular asosida o'tish jarayoni egri chizig'i quriladi. Bu usulning kamchiligi- uni har doim ham amalga oshirib bo'lmaydi, chunki loyihalash davrida bo'lajak ABSning u yoki bu qismi yetishmasligi mumkin, yetarli aniqlikda o'lchash qiyinligi va amalga oshirish uchun qimmat baho qurilma kerakligidir.

Xarakteristik tenglamaning ildizlari xaqiqiy qismining manfiy ishoraga ega bo'lishi sistema turg'unligining etarli va zaruriy shartidir.

$W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)}$ - ochiq sistemaning uzatish funksiyasi.

Uning xarakteristik tenglamasi $Q(p)$ ning ildizlari manfiy bo'lishi kerak.

Berk sistema uchun $\Phi(P) = \frac{W(p)}{1+W(p)}$, berk sistema turg'un bo'lishi uchun

$A(p) = 1+W(p) = 0$ manfiy ishoraga teng bo'lishi kerak.

Lyapunov bu sistemalarni ishlab chiqib, chiziqlantirilgan teorema xosil qilgan. Turg'unlikning bu shartlari Lyapunov tomonidan nochiziqli sistemalarning chiziqlantirilgan tenglamalari uchun isbotlandi va qo'llanildi.

Lyapunov teoremlari:

1 – Teorema: Agarda chiziqlantirilgan sistemaning xarakteristik tenglamasining xama ildizlari manfiy xaqiqiy qismga ega bo'lsa, unda real sistema turg'un bo'ladi, ya'ni juda kichik nochiziqlixadlar sistemaning turg'unligiga ta'sir eta olmaydi.

2 – Teorema: Agarda chiziqlantirilgan sistemaning xarakteristik tenglamasining birorta ildizidan xaqiqiy qismga ega bo'lsa, unda real sistema noturg'un bo'ladi va juda kichik nochiziqli xadlar sistemani turg'un qila olmaydi.

3 – Teorema: Agar chiziqlantirilgan sistema xarakteristik tenglamasi 0 yoki juft mavxum ildizga ega bo'lsa, unda real sistema turg'unlik chegarasida bo'ladi va juda kichik nochiziqli xadlar o'tkinchi jarayonni tubdan o'zgartirishi mumkin, hamda real sistemani turg'un yoki noturg'un xolatga keltirishi mumkin.

Kompleks tekisligida xarakteristik tenglama ildizlarining qanday joylashganligini aniqlaydigan qoidalarga turg'unlik mezonlar yoki kriteriylari bor.

Turg'unlikning quyidagi mezonlari mavjud:

- 1) Turg'unlikning algebraik mezoni
 - a) Gurvis mezoni;
 - b) Rauss mezoni.
- 2) Chastotaviy mezonlari
 - a) Mixaylov mezoni;
 - b) Naykvist mezoni;
 - v) Turg'unlikning logarifmik mezoni.
- 3) D – bo'linish usuli.

12-ma`ruza

Turg'unlikni chastotaviy usuli. Absolyut turg'unlik to'g'risida Popov teoremasi.

$a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0$ (1) tenglama xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin. Shu xarakteristik tenglamaning koeffisientlaridan tuzilgan jadvalga Gurvis aniqlovchisi yoki determinanti deyiladi.

Gurvis aniqlovchisini tuzishning qoidasi

- 6) Bosh diogonal bo'yicha a_1 dan a_n koeffisientgacha indeksi o'sish tartibida yoziladi;
- 7) Bosh diogonalga nisbatan ustunlarining yuqori tomon indeklari ortib borish tomon, paski tomon indeklari kamayuvchi koeffisientlar bilan to'ldiriladi;
- 8) Koeffisientlarning 0 dan kichik va n dan katta bo'lgan koeffisientlari o'rniga nollar yoziladi;
- 9) Gurvis aniqlovchisining yuqori tartibi xarakteristik tenglama darajasiga tengdir;
- 10) Oxirgi determinantni $\Delta_n = a_n \Delta_{n-1}$ ga teng.

Gurvis mezonining ta'rifi

Sistema turg'un bo'lishi uchun $a_0 > 0$ bo'lgan xolda Gurvis aniqlovchiining xammasi 0 dan katta bo'lishi kerak.

$$\Delta_1 > 0, \Delta_2 > 0, \dots, \Delta_n > 0.$$

Agar determinant 0 dan katta bo'lsa, turg'un, 0 dan kichik bo'lsa, noturg'un, 0 ga teng bo'lsa, turg'unlik chegarasida bo'ladi.

Turg'unlik chegarasida bo'lishi uchun

a) $a_n = 0$ b) $\Delta_{n-1} = 0$ bo'lishi kerak.

$n = 1, 2, 3, 4$ bo'lgan tenglamalar uchun terq'unlik shartlarini ko'rib chiqamiz

1) $n = 1$ $a_0 p + a_1 = 0$ birinchi tartibli tenglama

Zaruriy shart $a_0 > 0$ bo'lishi kerak, etarli shart esa $\Delta_1 = a_1 > 0$ bo'lishi kerak.

2) $n = 2$ ikkinchi tartibli tenglama $a_0 p^2 + a_1 p + a_2 = 0$

Zaruriy shart $a_0 > 0$ bo'lishi kerak, etarli shart esa

$$\Delta_1 = a_1 > 0$$

$$\Delta_2 = a_1 \cdot a_2 > 0 \text{ etarli shart.}$$

3) $n = 3$ $a_0 p^3 + a_1 p^2 + a_2 p + a_3 = 0$

Zaruriy shart $a_0 > 0$ bo'lishi kerak, etarli shart esa

$$\Delta_1 = a_1 > 0$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0$$

$$\Delta_3 = a_3 \Delta_2 > 0 \text{ bo'lishi kerak.}$$

4) $n = 4$ to'rtinchi tartibli tenglama $a_0 p^4 + a_1 p^3 + a_2 p^2 + a_3 p + a_4 = 0$

Zaruriy shart $a_0 > 0$ bo'lishi kerak, etarli shart esa

$$\Delta_1 = a_1 > 0$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0$$

$$\Delta_3 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 & a_5 \\ a_0 & a_2 & a_4 \\ 0 & a_1 & a_3 \end{vmatrix} = a_1 a_2 a_3 + 0 + 0 - 0 - a_1^2 a_4 + a_0 a_3^2 = a_3 (a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0$$

$$\Delta_4 = a_4 \cdot \Delta_3 > 0 \text{ bo'lishi kerak.}$$

$$\text{Misol: } 12p^3 + 10p^2 + 8p + 10 = 0$$

Zaruriy sharti: $a_0 = 12 > 0$, $a_1 = 10 > 0$, $a_2 = 8 > 0$, $a_3 = 10 > 0$

Etarli sharti: $\Delta_1 = a_1 = 10 > 0$,

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} 10 & 10 \\ 12 & 8 \end{vmatrix} = 10 \cdot 8 - 12 \cdot 10 = -40 < 0$$

$\Delta_3 = a_3 \Delta_2 = 10 \cdot (-40) = -400 < 0$ etarlilik sharti bajarilmaganligi uchun sistema noturg'un.

Ochiq sistemaning kritik kuchaytirish koeffisientini aniqlash.

Quyidagi uzatish funksiya berilgan bo'lsin

$$W(p) = \frac{k}{(1 + pT_1)(1 + pT_2)(1 + pT_3)};$$

k - sistemaning kuchaytirish koeffisienti (sek^{-1})

T_1, T_2, T_3 - sistemaning vaqt doimiylarisi.

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{k}{(1+pT_1)(1+pT_2)(1+pT_3)}}{1+\frac{k}{(1+pT_1)(1+pT_2)(1+pT_3)}} = \frac{k}{(1+pT_1)(1+pT_2)(1+pT_3)+k};$$

$$A(p) = 1 + W(p) = (1 + pT_1)(1 + pT_2)(1 + pT_3) + k = 0;$$

$$A(p) = (1 + pT_1)(1 + pT_2)(1 + pT_3) + k = [p^3 T_1 T_2 T_3 + p^2(T_1 T_2 + T_2 T_3 + T_1 T_3) + p(T_1 + T_2 + T_3) + 1 + k];$$

$$a_0 = T_1 T_2 T_3 > 0$$

$$a_1 = (T_1 T_2 + T_2 T_3 + T_1 T_3) > 0$$

$$a_2 = T_1 + T_2 + T_3 > 0$$

$$a_3 = 1 + k > 0$$

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & a_3 \\ a_0 & a_2 \end{vmatrix} = a_1 a_2 - a_0 a_3 = (T_1 T_2 + T_2 T_3 + T_1 T_3)(T_1 + T_2 + T_3) - T_1 T_2 T_3(1 + k) > 0$$

$$(T_1 T_2 + T_2 T_3 + T_1 T_3)(T_1 + T_2 + T_3) - T_1 T_2 T_3(1 + k) > 0$$

$$(T_1 T_2 + T_2 T_3 + T_1 T_3)(T_1 + T_2 + T_3) > T_1 T_2 T_3(1 + k)$$

$$k < \frac{T_1}{T_3} + \frac{T_3}{T_2} + 1 + \frac{T_2}{T_3} + 1 + \frac{T_2}{T_1} + \frac{T_3}{T_1} - 1$$

agar $T_1 = T_2 = T_3$ bo'lsa $k < 8$ demak $k_{kp} = 8$ k_{kp} - kritik koeffisient

agar $k < k_{kp}$ bo'lsa sistema turg'un

agar $k > k_{kp}$ bo'lsa sistema noturg'un

13-ma`ruza

Chiziksiz sistemalarda jarayenlarni taxlili. Garmonik balans usuli

Turg'unlikning chasotaviy mezonlari avtomatik sistemalarning chasotaviy xarakteristikalarining ko'rinishiga qarab ularning turg'unlik holatlarini tekshirishga imkon beradi. Turg'unlikning chasotaviy mezonlari grafo-analitik mezon bo'lib sistemalarning turg'unligini tekshirishda juda keng qo'llaniladi, chunki bu mezonlar yordamida yuqori darajali sistemalarning turg'unlik holatini tekshirish ancha oson va qulaydir va ular juda geometrik tasvirga egadir.

Argumentlar prinsipi.

Turg'unlikning chasotaviy mezonlari asosida kompleks o'zgaruvchi funksiyalar nazariyasidan ma'lum bo'lgan argumentlar prinsipi yotadi. Biz shu prinsipni qisqacha bayonini ko'rib chiqamiz

$$D(p) = a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + a_2 p^{n-2} + \dots + a_n = 0 \quad (1)$$

xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin.

Bu tenglamani Bezu tenglamasi orqali quyidagiga keltirishimiz mumkin.

$$D(p) = a_0 (p - p_1)(p - p_2)(p - p_3) \cdot \dots \cdot (p - p_n) \quad (2)$$

bunda $p_1, p_2, p_3, \dots, p_n$ - xarakteristik tenglamaning ildizlari yig'indisidir.

p_1 ildizni vekior ko'rinishda tasvirlash mumkin $p_1 = -\alpha_1 + j\beta_1$

$p = j\omega$ almashtirish bajarib quyidagiga ega bo'lamiz

$$D(j\omega) = a_0(j\omega - p_1)(j\omega - p_2)(j\omega - p_3) \dots (j\omega - p_n) \quad (3)$$

$D(j\omega)$ ni amplitudasi quyidagicha

$$|D(j\omega)| = a_0 |j\omega - p_1| |j\omega - p_2| \dots |j\omega - p_n| \quad (4)$$


$$\arg D(j\omega) = \sum_{i=1}^n \Delta \arg(j\omega - p_i) \quad (5)$$

$-\infty < \omega < \infty$

$$\Delta \arg D(j\omega) = \sum_{i=1}^n \Delta \arg(j\omega - p_i) \quad (6)$$

$-\infty < \omega < \infty$

vektorning $-\infty < \omega < \infty$ o'zgarishi shu kompleks ildizlarning argumenti o'zgarishlarining yig'indisiga tengdir (6) formula bo'yicha $\Delta D(j\omega)$ vektorining argument o'zgarishi $\Delta \arg D(j\omega)$ ni kompleks tekisligida joylashishini bilish lozim ekan



a) Kompleks tekisligining p_1 ildiz chap

tomonida joylashishi

Chastota $-\infty < \omega < \infty$ o'zgarganda mavhum o'q bo'yicha pastdan yuqoriga $j\omega - p_1$ vektori soat strelkasiga qarshi yo'nalishda buriladi.

b) p_1 ildiz kompleks tekisligining o'ng tomonida joylashgan bo'lsin. Chastota

$-\infty < \omega < \infty$ o'zgarganda mavhum o'q bo'yicha pastdan yuqoriga o'zgarganda

$$\Delta \arg D(j\omega - p_1) = +\pi \quad (7)$$

$-\infty < \omega < \infty$

$$\Delta \arg D(j\omega - p_1) = +\pi \quad (8)$$

$-\infty < \omega < \infty$

$D(p) = 0$ karakteristik tenglamaning l ta ildizi o'ng ildizi o'ng ildiz ya'ni musbat ildiz bo'lsin $(n-l)$ tasi chap (manfiy) ildiz bo'lsa (7) va (8) formulalarni e'tiborga olib $\Delta \arg D(j\omega)$ ni o'zgarishini quyidagicha hisoblash mumkin.

$$\Delta \arg D(j\omega) = (n-l)\pi - l\pi = (n-2l)\pi \quad (9)$$

$-\infty < \omega < \infty$

yoki $\Delta \arg D(j\omega) = (n-2l)\frac{\pi}{2}$ (10) bo'ladi.

(9) va (10) formulalarni argumentlar prinsipining ifodasi deyiladi va quyidagicha o'qiladi.

$D(j\omega)$ vektor argumentining o'zgarishi chastota 0 dan ∞ gacha o'zgarganda chap elkasi $(n-2l)\pi$ gacha o'zgarishi shart.

14-ma`ruza

Chiziksiz sistemalarni sintezlash. Sintezlash masalasini yechilish sharti.

$A(p) = a_0 p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_n = 0$ (1) xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin.

Sistema turg'un bo'lishi uchun o'ng ildizlar soni 0 ga teng bo'lishi kerak $l=0$

$\Delta \arg A(j\omega) = n\pi$ yoki $\Delta \arg A(j\omega) = n\frac{\pi}{2}$

$A(j\omega)$ vektor argumentining o'zgarishi chastota $-\infty < \omega < \infty$ gacha o'zgarsa, u holda u $n\pi$ ga yoki $n\frac{\pi}{2}$ ga teng bo'lishi zarur va etarli.

$A(p)$ ni $D(p)$ ga aolmashtirib $D(p)=0$ xarakteristik polinomning kompleks tekisligidagi geometrik o'rniga **Mixaylov godografi** deyiladi.

Mixaylov godografini tuzish uchun xarakteristik tenglamadagi p ni $j\omega$ bilan almashtiramiz va haqiqiy, mavhum qismlarga ajratiladi.

$D(j\omega) = a_0(j\omega)^n + a_1(j\omega)^{n-1} + \dots + a_n = U(\omega) + jV(\omega)$

haqiqiy qism $U(\omega) = a_n - a_{n-2}\omega^2 + a_{n-4}\omega^4 - \dots$

mavhum qism $V(\omega) = \omega(a_{n-1} - a_{n-3}\omega^2 + a_{n-5}\omega^4 - \dots)$

Mixaylov mezonning ta`rifi.

Agar chastota 0 dan ∞ gacha o'zgarganda Mixaylov godografi musbat haqiqiy o'qdan boshlanib, soat ko'rsatkichi (strelkasi)ga qarshi (musbat yo'nalishda)

koordinata boshi atrofida $n\frac{\pi}{2}$ burchakka burilsa unda sistema turg'un bo'ladi.

n xarakteristik tenglamaning darajasi.

Misol: $2p^3 + 4p^2 + 6p + 10 = 0$

$2(j\omega)^3 + 4(j\omega)^2 + 6(j\omega) + 10 = 0$

$U(\omega) = 10 - 4\omega^2$

$V(\omega) = \omega(6 - 2\omega^2)$

A) $\omega = 0$ $U(0) = 10$ $V(0) = 0$

B) $U(0) = 0$ $10 - 4\omega^2 = 0$ $\omega^2 = 2.5$ $V(\sqrt{2.5}) = \sqrt{2.5}(6 - 2 \cdot 2.5) = 1.5$

V) $V(\omega) = 0$ $(6 - 2\omega^2) = 0$ $\omega^2 = 3$ $U(\sqrt{3}) = 10 - 4 \cdot 3 = -2$

Bu godograf birin ketin soat ko'rsatkichi bo'yicha faqat I, II va III – choraklarni kesib o'tadi. Kritik kuchaytirish koeffisienti godograf turg'unlik chegarasida bo'lgan holda tekshiriladi.

15-ma`ruza

Optimal boshkarish nazariyasi usullari. Masalani quyilishi. Optimal boshqarish masalalarini sinflanishi

Turg'unlikning Naykvist mezoni ochiq sistemaning amplituda-fazaviy xarakteristikasi bo'yicha berk siseining turg'unligini tekshiriladi. Ochiq sistemaning AFXsini esa ham analitik ham taxriba yo'li bilan aniqlash mumkin. Turg'unlikning Naykvist mezoni schiq ravshan fizik ma'noga egadir, ya'ni u ochiq sistemaning stasionar xususiyatlari bilan bog'laydi.

$$W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)}$$

$P(p)$ - darajasi « m »ga teng bo'lgan algebraik polinom

$Q(p)$ - darajasi « n »ga teng bo'lgan algebraik polinom, har doim $m < n$ bo'lishi shart.

$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)}$ berk sistemaning uzatish funksiyasi $Q(p) = 0$ - ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi.

$$A(p) = 1 + W(p) = 1 + \frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{Q(p) + P(p)}{Q(p)} \quad (1)$$

$Q(p) + P(p)$ ni berk sistemaning xarakteristik polinomi deyiladi. Bu polinomning darajasi « n »ga teng.

A) **Ochiq sistema turg'un.** ($l = 0$) o'ng ildizlar soni 0ga teng.

Argumentlar prinsipiga asosan $\Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2}$ teng bo'lishi kerak. Endi

berk sistema turg'un bo'lishini talab qilamiz. Unda $\Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg [Q(j\omega) + P(p)] = n \frac{\pi}{2}$

bo'lishi kerak. $A(j\omega)$ - vektorining argumentlar o'zgarishi (1) formulaga asosan

$$\Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg A(j\omega) = \Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg [Q(j\omega) + P(p)] - \Delta_{-\infty < \omega < \infty} \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - n \frac{\pi}{2} = 0$$
 oxirgi ifodaga ko'ra

$A(j\omega)$ vektorining koordinata boshiga nisbatan burchak burilishi 0ga teng bo'lishi kerak yoki bo'lmasa berk sistema turg'un bo'lishi uchun uning AFXsi $A(j\omega)$ koordinata boshini ya'ni (0;0) nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak

I – berk sistema turg'un

II – berk sistema noturg'un.

$$A(j\omega) = 1 + W(j\omega) \text{ berk sistemaning AFXsi.}$$

Berk sistemaning AFXsi $A(j\omega) = 1 + W(j\omega)$ bo'lib, ochiq sistemaning AFXsi $W(j\omega)$ dan +1gagina farq qiladi. Shuning uchun Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Ta'rif: Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFXsi chastota 0dan ∞ gacha o'zgarganda kritik nuqta $(-1; j0)$ ni o'z ichiga olmasa berk sistema turg'un bo'ladi.

B) Ochiq sistema noturg'un. ($l \neq 0$) o'ng ildizlar soni Odan farqli.

Argumentlar prinsipiga ko'ra $\Delta \arg Q(j\omega) = (n-2l) \frac{\pi}{2}$
 $-\infty < \omega < \infty$

$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(p)] = n \frac{\pi}{2}$ $A(j\omega)$ vektorining summar o'zgarishi (1) formulaga asosan quyidagicha bo'ladi.

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(p)] - \Delta \arg A(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - (0-2l) \frac{\pi}{2} = 2l \frac{\pi}{2} = \pi$$

demak berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFXsi kritik nuqta $(-1; j0)$ ni $l/2$ marta o'z ichiga olishi kerak, bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni.

$$l = \frac{l}{2} \Rightarrow l = 2 \quad l = 2 \text{ dan katta bo'lmasa noturg'un bo'ladi.}$$

Bu kriteriy faqat eksperimental ishlarda qo'llaniladi.

Amaliy masalalarni echishda Sipkin Ya. Z tomonidan taklif etilgan o'tishlar qoidasidan foydalaniladi. Ochiq sistema AFXsining o'tishi deganda chastota Odan ∞ gacha o'zgarganda $W(j\omega)$ xarakteristikaning $[-\infty; -1]$ kesmada manfiy haqiqiy o'qni kesib o'tishi tushuniladi. Agar bu o'tish pastdan yuqoriga bo'lsa musbat, yuqoridan pastga bo'lsa manfiy o'tish deyiladi. Utishlar qoidasini e'tiborga olib Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Ta'rif: Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFXsi chastota $(0; \infty)$ o'zgarganda $[-\infty; -1]$ kesmada musbat va manfiy o'tishlar ayirmasi $l/2$ ga teng bo'lishi kerak bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni.

Ochiq sistemaning AFXsi $\omega = 0$ da $[-\infty; -1]$ kesmada boshlansa, yoki $\omega = \infty$ da shu kesmada tamom bo'lsa, bunday o'tishni yarim o'tish deyiladi.

Naykvist turg'unlik mezonining astatik sistema uchun qo'llanilishi

Yuqorida ko'rib chiqilgan statik sistemalarning AFXsi berk kontur hosil qiladi.

Astatik sistemaning AFXsi esa $W(j\omega) = \frac{P(j\omega)}{(j\omega)^\nu Q(j\omega)}$ (1) ko'rinishga ega bo'lib,

berk kontur hosil qilmaydi. Bunday sistemalar uchun ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi 0 ildizga ega bo'lib, quyidagi ko'rinishga egadir.

$Q(p) = p^\nu Q_1(p)$ bunda ν - astatik (ideal integral) zvenosining soni

$Q(p)$ - esa 0 ildizga ega bo'lmagan polinom

astatik sistemaalarning AFXsi (1) ifodaga ko'ra $\omega = 0$ bo'lganda $W(j\omega) \rightarrow \infty$ cheksizlikka intiladi. Shuning uchun kritik nuqta $(-1; j0)$ ni ochiq sistema AFXsining ichida yoki tashqarisida ekanligini aniqlash qiyinlashadi.

Bu savolga javob berish uchun ochiq sistemaning AFXsini radiusi ∞ katta bo'lgan aylananing yoyi bilan musbat haqiqiy o'qqacha to'ldiriladi hamda aykvist mezonini qo'llaniladi.

Naykvist mezonining ta'rifi

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun radiusi ∞ bo'lgan aylaning yoyi bilan to'ldirilgan ochiq sistemaning AFXsi kritik nuqta $(-1;j0)$ ni chastota $(0;\infty)$ ga o'zgarganda $l/2$ marta o'z ichiga olishi kerak. Bunda l - ochiq sistema tarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni

Turg'unlikning logarifmik kriteriysi.

Muxandislik amaliyotida ABSlarning turg'unligini tekshirish uchun ochiq sistemaning LChXdan keng foydalaniladi. Chunki ochiq sistemaning asimptotik LChXsini qurish AFXni qurishdan ancha oson va qulaydir.

Sistemaning turg'unligi ochiq sistema AFXsi $W(j\omega)$ ning $(-\infty;-1)$ kesmada manfiy haqiqiy uqni kesib o'tish soni bilan bog'liqdir. Shuning uchun ochiq sistemaning AFXsi $W(j\omega)$ bilan LChXsi orasidagi bog'liqlikni ko'ramiz. Ochiq sistemaning AFXsi $W(j\omega)$ manfiy haqiqiy o'qni kesib o'tganda LFChX $-\pi$ to'g'ri chizig'ini kesib o'tadi. Sistemaning turg'unligi nuqtai nazaridan olganda bu o'tishlar soni kritik nuqtaning o'ng tomonida, ya'ni $[-1;0]$ kesmada $|W(j\omega)| < 1$ Bo'lganda kichik xolda ya'ni $L(\omega) = 20lg|W(j\omega)| < 0$ oblostda sodir bo'lsa, unda bu o'tishlar sistemaning turg'unligida hech qanday xavf solmaydi.

$$\omega = \omega_k; A(\omega_k) = 1$$

$$L(\omega_k) = 20lg A(\omega_k) = 0$$

$$\omega = \omega_y; \varphi(\omega_y) = -\pi$$

Demak ochiq sistema turg'un bo'lganda berk sistema turg'un bo'lishi uchun kesish chastotasi o'tish chastotasidan kichik bo'lish shart $\omega_k < \omega_y$ ochiq sistema noturg'un bo'lganda berk sistemaning turg'unligini aniqlash uchun o'tishlar qoidasidan foydalanamiz.

Ochiq sistema AFXsi $W(j\omega)$ ning manfiy haqiqiy o'qni $[-\infty;-1]$ kesmada musbat o'tishga (pastdan yuqoriga) LFChXning $L(\omega) > 0$ sohasida $-\pi$ tug'ri chizig'ini yuqoridan pastga (musbat) o'tishi tug'ri keladi.

$W(j\omega)$ xarakteristikasining manfiy haqiqiy o'qning $[-\infty;-1]$ kesmada manfiy (yuqoridan pastga) o'tishiga LFChXning $L(\omega) = 0$ sohsida $-\varphi(\omega)$ chizig'ining pastdan yuqoriga (manfiy) o'tishi to'g'ri keladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Agar ochiq sistema noturg'un bo'lsa berk sistema turg'un bo'lishi uchun LFChXning $L(\omega) > 0$ sohasidagi $-\pi$ to'g'ri chizig'ini musbat va manfiy o'tishlar ayirmasi $l/2$ ga teng bo'lishi kerak bunda l - ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni

Agar sistema faqat turg'un yoki noturg'un inersial zveno, ideal integrallovchi zveno va tebranuvchi zvenolardan tashkil topgan bo'lsa, unda tarkibida ikkita idual

integrallovchi zveno, yoki bita ideal integrallovchi va bitta noturg'universal zveno bo'lsa, bunday sistema strukturasi jihatdan noturg'un sistema deyiladi.

16-ma`ruza

Impulsli va raqamli ABS. Umumiy tushunchalar.

Avtomatik sistemani tekshirganda o'tkinchi jarayonning sifatini ta'minlashga doir masalalarni echishga to'g'ri keladi. O'tkinchi jarayonning aniqligini va rostdash bir tekisligini xarakterlovchi sifat ko'rsatkichlarga o'tkinchi jarayon tezkorligi (o'tkinchi jarayon vaqti) tebranishlar soni (o'tkinchi jarayonning tebranishlar soni) hamda o'tarostlash kiradi.

O'zgaras koeffisientli chiziqli differensial tenglama bilan ifodalangan chiziqli sistema berilgan bo'lsin

Kirish kattaligi $x(t)$ o'zgarganda sistemaning chiqishidagi $y(t)$ kattalikni o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin

$$y(t) = y_0(t) + y_M(t) \quad (1)$$

bunda $y(t)$ - sistemani ifoda etuvchi tenglamaning umumiy echimi

$y_0(t)$ - shu echimning erkin tashkil etuvchisi

agar $y_0(t)$ karra ildizga ega bo'lmasa, unda

$$y_0(t) = \sum_{i=1}^n C_i e^{p_i t}$$

bunda C_i - sistemaning parametrlari va boshlang'ich shartlarga bog'liq bo'lgan o'zgaras son

p_i - berk sisitemaning xarakteristik tenglamasi $A(p) = 0$ ildizlaridir.

$y_M(t)$ - kirish signali $x(t)$ ning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan o'tkinchi jarayonni qaror rejimini ifodalovchi majburiy tashkil etuvchidir.

(1) tenglamadan ko'rinib turibdiki, o'tkinchi jarayonning sifatini uning $y_0(t)$ va $y_M(t)$ tashkil etuvchilari yordamida aniqlash mumkin shu nuqtai nazardan qaraganda rostdash jarayonining sifatini aniqlash yoki baholash ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh. O'tkinchi jarayon $y_0(t)$ ning sifat ko'rsatkichi

Ikkinchi guruh. Sistemaning aniqligini belgilovchi o'tkinchi jarayonning majburiy tashkil etuvchi xarakterlovchi ko'rsatkichlari.

O'tkinchi jarayon egri chizig'i bo'yicha aniqlangan sifat ko'rsatkichlarini sistemaning sifatini bevosita baholash usuli deyiladi.

O'tkinchi jarayon egri chizig'ini tajriba hamda nazariy olish mumkin. Ayrim hollarda yuqori tartibli sistemalar uchun o'tkinchi jarayon egri chizig'ini aniqlash aniqlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Shunday hollarda o'tkinchi jarayon egri chizig'ini aniqlamasdan turib shu jarayonning sifatini baholashga imkon beruvchi usuni sifat ko'rsatkichlarini baholashning bilvosita usuli deyiladi.

Sifat ko'rsatkichning bilfosita usullari quyidalardir:

1. so'nish usuli
2. interval usuli
3. chastotaviy usul.

17-ma`ruza

Adaptiv boshkarish sistemalarini vazifasi, tuzilishi va tiplari.

Sistemaning pog'onali signaldan olgan reaksiyasiga o'tkinchi funksiya deyiladi.

Sistemaning o'tkinchi xarakteristikasi bo'yicha quyidagilarga sifat ko'rsatkichini aniqlash mumkin.

1) t_p - rostlanish vaqti yoki o'tkinchi jarayon vaqti, rostlanuvchi qiymat o'zining qaror qiymatiga ma'lum Δ darajada aniq bo'lishi kerak ya'ni $|h_{max} - h_{kap}| \leq \Delta$
 $\Delta = (2 \div 5)\% h_{kap}$ bu texnik qiymatda beriladi.

2) O'ta rostlash $\sigma\% = \frac{h_{max} - h_{kap}}{h_{kap}} \cdot 100\%$ odatda $h_{kap} = 1$ chunki birlik pog'onali singal berayotirmiz.

O'rta va kichik quvvatlar uchun $\sigma = (10 \div 20)\%$ katta quvvatli sistemalar uchun $\sigma = (30 \div 40)\%$

3) Tebranishlar soni μ .

$h(t)$ xarakteristikani tebranishlar soni.

Odatda $\mu \leq (1 \div 2)$ ayrim hollarda $\mu \leq (3 \div 4)$

4) Oshish vaqti t_H (vremya virastaniya) bu $h(t)$ xarakteristika h_{kap} qiymatining birinchi uchrashgan nuqtasidir.

5) t_{max} - $h(t)$ xarakteristikaning maksimal qiymatga erishishga ketgan vaqt

6) $\omega = \frac{2\pi}{T}$ tebranish chastotasi (davri)

7) χ - so'nish dekrementi, $\chi = \left| \frac{h_{max} - h_{kap}}{h_{mix} - h_{kap}} \right| \cdot 100\%$ fizik ma'nosi o'tkinchi

xarakteristikaning so'nish tezligini bildiradi.

Pog'onali signalda sistemada uchta ko'rinish bo'lishi mumkin.

- 1) Monoton jarayon
- 2) Aperiodik jarayon
- 3) Tebranuvchi jarayon

$h(t)$ ni nazariy tomondan topadigan bo'lsak

$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \frac{1}{p} \right\}$ orqali bajaramiz.

Garmonik signal ta'siridagi rostlashning sifat ko'rsatkichlari

Bu holda rostlashning sifat ko'rsatkichlarini chastotaviy xarakteristikalari AChX, AFX, LChX orqali topiladi.

Sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi.

- 1) Tebranishlar ko'rsatkichi M .

- 2) Rezonans chastota ω_p .
- 3) O'tkazish yo'li ω_y .
- 4) Kesish chastota ω_k .
- 5) Amplituda va faza bo'yicha zapas $\Delta L, \gamma$.

Berk sistemaning amplituda-chastotaviy xarakteristikasi bo'yicha quyidagi sifat ko'rsatkichini aniqlash mumkin.

1. $M = \frac{A_{\sigma_{max}}(\omega)}{A_{\sigma}(0)}$ ga teng tebranishlarga moyilligini bildiradi. M qancha katta bo'lsa o'tkinchi jarayonning sifat ko'rsatkichi shuncha yomon bo'ladi, agar $A_{\sigma}(0) = 1$ bo'lsa, $M = A_{\sigma_{max}}(\omega)$ $M = (1,1 \div 1,4)$ bo'lsa yaxshi undan yuqori si bo'lmaydi.

Bunda biz qanday ko'rinishda bo'lishini bilamizu ammo qancha vaqt ketishini bilmaymiz.

2. rezonans chastotada signal eng yuqori qiymat bilan o'tadi.
3. ω chastota ($0 \div \omega_0$) bo'lgan intervalda bo'lganda, berk sistemaning amplitudasi $A_{\sigma}(\omega_0) = 0,707 A_{\sigma}(0)$ bo'lib, agar $A_{\sigma}(0) = 1$ bo'lsa u holda $A_{\sigma}(\omega_0) = 0,707$ bo'ladi.
4. kesish chastotasida amplituda birga teng bo'ladi $\omega = \omega_k$, $A_{\sigma}(\omega_k) = 1$ jarayonga ketgan vaqt esa $t_p \approx \frac{(1 \div 2)2\pi}{\omega_k}$ $t_{max} \approx \frac{\pi}{\omega_k}$;

5. bu zapaslarni aniqlaganimizda asosan AFX yordamida aniqlaymiz.

va faza bo'yicha zapas γ aniqlanadi $\omega = \omega_y$, $\varphi(\omega_y) = -\pi$ va amplituda bo'icha zapas aniqlanadi, ya'ni $\Delta h, \Delta L$

$\gamma \geq 30^0$ yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qiymat $\Delta L \geq (8 \div 16)$ dB

ABSlarning muvozanat rejimidagi xatolig'lar.

Chiziqli ABSlarining sifatini baholashdagi baholashning to'g'ri usullaridan biri bu sistemaning muvozanat rejimidagi xatoligidir. Quyidagi sistema berilgan bo'lsin

Berk sistemaning muvozanat rejimidagi xatolig'ini aniqlash uchun uning xatolik bo'yicha uzatish funksiyasini topamiz.

$$\Delta x(p) = x(p) - y(p) \quad (1)$$

bunda $\Delta x(p)$ - xatolikning Laplas tasviri

$x(p)$ - kirish signalining Laplas tasviri

$y(p)$ - chiqish signalining Laplas tasviri

$$y(p) = W(p) \cdot \Delta x(p) \quad (2)$$

(2) tenglamani (1) tenglamaga qo'yamiz va quyidagini hosil qilamiz

$$\Delta x(p) = x(p) - W(p) \cdot \Delta x(p) \quad (3)$$

$$\Delta x(p) [1 + W(p)] = x(p)$$

$$\Delta x(p) = \frac{1}{1+W(p)} \cdot x(p) \quad (4)$$

$$\Phi_{\Delta}(p) = \frac{\Delta x(p)}{x(p)} = \frac{1}{1+W(p)} \quad (5)$$

(5) formula berk sistemaning xatolik bo'yicha uzatish funksiyasi $W(p)$ - ochiq sistemning uzatish funksiyasi ikki polinomning nisbati ko'rinishida berilgan bo'lsin.

$$W(p) = \frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{k(1+b_1p+b_2p^2+b_3p^3+\dots+b_m p^m)}{p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)}; \quad (6)$$

(6)-tenglamani (4)-tenglamaga qo'yamiz

$$\begin{aligned} \Delta x(p) &= \frac{x(p)}{1+W(p)} = \frac{x(p)}{1+\frac{k(1+b_1p+b_2p^2+b_3p^3+\dots+b_m p^m)}{p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)}} = \\ &= \frac{x(p)p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)}{p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)+k(1+b_1p+b_2p^2+b_3p^3+\dots+b_m p^m)} \\ \Phi_{\Delta} &= \frac{p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)}{p^v(1+a_1p+a_2p^2+a_3p^3+a_n p^n)+k(1+b_1p+b_2p^2+b_3p^3+\dots+b_m p^m)} \quad (7) \end{aligned}$$

(7)-ifodani Teylor qatoriga yoyamiz.

$$\Phi_{\Delta} = C_0 + C_1p + \frac{C_2}{2!} p^2 + \frac{C_3}{3!} p^3 + \dots + \frac{C_n}{n!} p^n \quad (8)$$

(8)- va (4)- ifodaga ko'ra berk sistemaning xatoligini Laplas tasviri kuyidagicha

$$\Delta x(p) = (C_0 + C_1p + \frac{C_2}{2!} p^2 + \frac{C_3}{3!} p^3 + \dots + \frac{C_n}{n!} p^n)x(p) \quad (9)$$

(9) ifodada originalni topsak

$$\Delta x(t) = C_0x(t) + C_1x'(t) + \frac{C_2}{2!} x''(t) + \dots + \frac{C_n}{n!} x^{(n)}(t) \quad (10)$$

$\Delta x(t)$ - berk sistemaning muvozanat rejimidagi xatoligi.

$C_0, C_1, C_2, \dots, C_n$ - xatolik koeffisientlari deyiladi va ular quyidagicha aniqlaniladi.

$$C_0 = \lim_{p \rightarrow 0} \Phi_{\Delta}(p);$$

$$C_1 = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} [\Phi_{\Delta}(p) - C_0];$$

$$C_2 = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p^2} [\Phi_{\Delta}(p) - C_0 - C_1p];$$

.....

$$C_n = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p^n} [\Phi_{\Delta}(p) - C_0 - C_1p - \dots - C_{n-1}p^{n-1}];$$

C_0 - statik xatolik;

C_1 - tezlik bo'yicha xatolik;

C_2 - tezlantish bo'yicha xatolik;

a) statik sistemadagi muvozanat rejimidagi xatoligi

$$\Phi_{\Delta} = \frac{1}{1+pT} = \frac{1+pT}{1+pT+k}$$

$$C_0 = \lim_{p \rightarrow 0} \Phi_{\Delta}(p) = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1+pT}{1+pT+k} = \frac{1}{1+k};$$

$$C_1 = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} [\Phi_{\Delta} - C_0] = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} \left[\frac{1+pT}{1+pT+k} - \frac{1}{1+k} \right] =$$

$$= \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} \left[\frac{1+pT+k+kpT-1-pT-k}{(1+pT+k)(1+k)} \right] = \frac{kT}{(1+k)^2}$$

$$\Delta x(t) = C_0 x(t) + C_1 x'(t) = \frac{1}{1+k} \cdot x(t) + \frac{kT}{(1+k)^2} \cdot x'(t) \quad - \quad \text{astatik sistemaning}$$

muvozanat rejimidagi xatoligidir.

1) sistemaning kirishiga pog'onali signal bergandagi xatoligi $x(t) = A$

$$\Delta x(t) = \frac{1}{1+k} \cdot A + \frac{kT}{(1+k)^2} \cdot 0;$$

2) sistemaning kirishiga $x(t) = A \cdot t$ ko'rinishdagi signal beramiz u holda sistemaning xatoligi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

$$\Delta x(t) = \frac{1}{1+k} \cdot At + \frac{kT}{(1+k)^2} \cdot A;$$

$$t \rightarrow \infty, \Delta x(t) \rightarrow \infty;$$

demak statik sistemalar pog'onali signallar ta'sirida ishlashi kerak ekan.

b) astatik sistemadagi muvozanat rejimidagi xatoligi

Astatik sistema dab tarkibida ideal integrallovchi zveno bo'lgan sistemaga aytiladi.

$$\Phi_{\Delta}(p) = \frac{1}{1+W(p)} = \frac{1}{1+\frac{k}{p(1+pT)}} = \frac{p(1+pT)}{p(1+pT)+k};$$

$$C_0 = \lim_{p \rightarrow 0} \Phi_{\Delta}(p) = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{p(1+pT)}{p(1+pT)+k} = 0$$

$$C_1 = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} [\Phi_{\Delta} - C_0] = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p} \left[\frac{p(1+pT)}{p(1+pT)+k} - 0 \right] = \frac{1}{k};$$

$$C_2 = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p^2} [\Phi_{\Delta}(p) - C_0 - C_1 p] = \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p^2} \left[\frac{p(1+pT) - p^2(1+pT) - kp}{[p(1+pT)+k]} \cdot k \right] =$$

$$= \lim_{p \rightarrow 0} \frac{1}{p^2} \left[\frac{kp + kp^2T - p^2(1+p^2T) - kp}{[p(1+pT)+k]} \cdot k \right] = \lim_{p \rightarrow 0} \left[\frac{kT - 1 - pT}{kp + p^2Tk + k^2} \right] = \frac{kT - 1}{k^2};$$

$$\Delta x(t) = C_0 x(t) + C_1 x'(t) + C_2 x''(t) = 0 \cdot x(t) + \frac{1}{k} \cdot x'(t) + \frac{kT-1}{2! \cdot k^2} x''(t);$$

muvozanat rejimidagi xatoligi

1) sistemaning kirishiga pog'onali signal bergandagi xatoligi $x(t) = A$

$$\Delta x(t) = 0 \cdot A + \frac{1}{k} \cdot 0 + \frac{kT-1}{2! \cdot k^2} \cdot 0 = 0;$$

demak astatik sistemalardagi pog'onali signal ta'sirida muvozanat rejimida xatolik yo'q ekan.

2) sistemaning kirishiga $x(t) = A \cdot t$ ko'rinishdagi signal beramiz u holda sistemaning xatoligi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

$$\Delta x(t) = 0 \cdot A + \frac{1}{k} \cdot A + \frac{kT-1}{2! \cdot k^2} \cdot 0 = \frac{A}{k};$$

3) sistemaning kirishiga $x(t) = A \cdot t^2$ ko'rinishdagi signal beramiz u holda sistemaning xatoligi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

$$\Delta x(t) = 0 \cdot A \cdot t^2 + \frac{1}{k} \cdot A \cdot t^2 + \frac{kT-1}{2! \cdot k^2} \cdot A;$$

$$\Delta x(t) \underset{t \rightarrow \infty}{\Rightarrow} \infty;$$

demak sistemaga ideal integrallovchi zvenolarni kiritish bilan $x(t) = A \cdot t^n$ ko'rinishdagi signal ta'siridagi sistemalarning muvozanat rejimidagi xatoligini yo'qotish mumkin ekan.

Lekin har bir ideal integrallovchi zvenoni kiritilishi sistemaning turg'unlik holatini yomonlashtiradi. Shuning uchun avtomatik sistemalarni loyihalashda sistemaning aniqlik va turg'unlik masalalarini echishda kompromiss echim qidirish kerak bo'ladi. Sistemaning aniqligini uning kuchaytirish koefitsientini oshirish bilan ham ko'paytirish mumkin.

18-ma`ruza

Etalon modeli sistemalarini adaptiv boshkarish algoritmlari. 1-tartibli chizikli obektni adaptiv boshkarish algoritmi

Baholashning bu usuli rostlanuvchi kattalik orttirmasining qiymatini va so'nish tezligini birgalikda aniqlashga imkon beradi.

ABS'larning sifatini integral baholashning eng oddiyi quyidagi integrlardir.

$$I_1 = \int_0^{\infty} \Delta y(t) dt \quad (1)$$

$\Delta y(t)$ - bu rostlanuvchi miqdorning yangi qaror qiymatdan farqi yoki orttirmasi. Turg'un bo'lgan sistemalarda $t \rightarrow \infty$ da $\Delta y(t) \rightarrow 0$ intiladi.

I_1 - integralni chizikli integral deyiladi va bu integralning qiymati qancha kichik bo'lsa o'tkinchi jarayon sifatida shuncha yaxshi bo'ladi.

Agar bu ko'rinishda bo'lsa

$I_1' = \int_0^{\infty} |\Delta y(t)| dt$ buj uda katta xatolik bilan hisoblanadi.

Tebranuvchi jarayonlarni hisoblashda kvadrat integraldan foydalaniladi.

$$I_2 = \int_0^{\infty} \Delta y^2(t) dt \quad (2)$$

I_1, I_2 da pog'onali signal ta'siridagi jarayonni hisodlash mumkin. Lekin biz bilamizki sistemaga faqatgina pog'onali signal ta'sir etmaydi. Bunda biz quyidagi integraldan foydalanamiz.

$$\Delta I_3 = \int [\Delta y^2(t) + \Delta y^2(t)T^2] dt$$

T - ekstremalning vaqt doimiysi.

Agar biz sistemaga pog'onali signal bersak biz I_1, I_2 integrallardan sistemaning sifatini baholashimiz mumkin. Agar boshqa signal berilsa, u holda biz I_3 integraldan foydalanamiz.

ABSlarning sifatini baholashning chastotaviy usullari

Odatda ABSlarini tekshirishda va o'tkinchi jarayon sifatini baholashda berk sistemaning haqiqiy chastotaviy xarakteristikasi $P(\omega)$ quriladi shu xarakteristika yordamida o'tkinchi jarayon egri chizig'ini qurish hamda o'tkinchi jarayonning sifat ko'rsatkichini kurish mumkin. Berk sistemaning $P(\omega)$ xarakteristikasini qurishning uch xil yo'li bor.

1) berk sistemaning uzatish funksiyasi yordamida. $\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)}$ da $p \rightarrow j\omega$ almashtirish bajariladi hamda haqiqiy va mavhum qismlarga ajratiladi.

$$\Phi(j\omega) = \frac{W(j\omega)}{1+W(j\omega)} = P(\omega) + Q(j\omega)$$

ω_k - musbat chastotalar intervali.

$F(0)$ - xarakteristikaning balandligi.

2) ochiq sistemaning AFXsi $W(j\omega)$ va haqiqiy doiraviy diagramma yordamida quriladi.

3) ochiq sistemaning $L(\omega)$ va $\varphi(\omega)$ va maxsus nomogramma yordamida.

Keyin $P(\omega)$ bilan ω orasidagi grafik quriladi.

Berk sistemaning haqiqiy chastotaviy xarateristikasi yordamida o'tkinchi jarayonning sifatini bilvosita baholash mumkin.

1)

xar bir $P(\omega)$ ga mos $h(t)$ to'g'ri keladi.

2) $P(0) = h(\infty)$

3) $P(\omega) \cdot a = h(t) \cdot a$

4) agar $P(\omega)$ monoton kamayuvchi funktsiya bo'lsa $h(t)$ rostlashsizotadi.

5)

6)

$$\sigma\% \leq \frac{1,18P_{max}(\omega) - P(0)}{p(0)} \cdot 100\%$$

7) $\frac{\pi}{\omega_n} < t_p < \frac{4\pi}{\omega_n}$

8)

$P(\omega)$ biror nuqtada uzilish bo'lsa o'tkinchi jarayon noturg'un bo'ladi.

Chiziqli ABSlarni sintez qilish va stabilash.

Ochiq sistemaning kuchaytirish koeffitsienti k ni ko'paytirish bilan sistemaning statik aniqligini oshirish mumkin. Chunki $\Delta x = \frac{1}{1+k} x(t)$ lekin kuchaytirish koeffitsienti k ning oshishi berk sistemaning turg'unlik zapaslari kamayishiga olib keladi hamda sistemani noturg'un qilib qo'yishi mumkin.

Juda ko'p hollarda sistemaning talab qilingan aniqligi hamda turg'unligiga erishish uchun uning tarkibiga korrektlovchi moslamalar kiritiladi. Sistemaning dinamik xususiyatlarini yaxshilashni ta'minlovchi funktsional elementga korrektlovchi moslama deyiladi. Korrektlovchi moslamalar sistema elementlariga parallel, ketma-ket va qarshi parallel yoki teskari bog'lanishli zanjir yordamida ulanadi.

1) korrektlovchi moslamalarni ketma-ket ulash.

$$W_3(p) = W_{km}(p) \cdot W_1(p) \cdot W_2(p) = W_{km}(p) \cdot W_0(p)$$

$W_3(p)$ - zaruriy sistemaning (korrektlangan) uzatish funktsiyasi.

$W_{km}(p)$ - korrektlovchi moslamaning uzatish funktsiyasi

$W_0(p)$ - berilgan yoki korrektlanmagan sistemaning uzatish funktsiyasi.

Korrektlovchi moslama taqqoslovchi elementdan so'ng yoki birlamchi kuchaytirgichdan so'ng ulanishi mumkin taqqoslovchi elementdan hosil bo'lgan Δx signalning qiymati kichik bo'lganligi sababli korrektlovchi moslamani birlamchi kuchaytirgichdan so'ng ulanishi maqsadga muvofiqdir.

2) korrektlovchi moslamani parallel ulash

Bunday ulash amalda ishlatilmaydi.

3) korrektlovchi moslamani qarshi parallel ulash.

(teskari bog'lanish zanjiri yordamida ulash)

$$W_3(p) = \frac{W_{\sigma}(p)}{1 \pm W_{\kappa M}(p)W_{\sigma}(p)}$$

+ - manfiy teskari bog'lanish uchun

- - musbat teskari bog'lanish uchun

Qamrab olingan zvenoning uzatish funksiyasiga teskari bog'lanishning ta'siri.

Teskari bog'lanishni quyidagi turlari mavjud.

- 1) Musbat va manfiy teskari bog'lanish.
- 2) Birlik va nobirlik teskari bog'lanish.
- 3) Maxalliy va asosiy teskari bog'lanish.
- 4) Qattiq va elastik teskari bog'lanish.

Qattiq teskari bog'lanish ham o'tkinchi rejimda ham muvozanat rejimda ta'sir etadi va inersiyasiz zveno $W_{m\sigma}(p) = k_0$ yordamida amalga oshiriladi. Elastik teskari bog'lanish esa faqat o'tkinchi rejimda ta'sir etadi hamda ideal differensiallanuvchi zveno orqali bajariladi. $W_{m\sigma}(p) = k_0(p)$

+ - manfiy teskari bog'lanish uchun

- - musbat teskari bog'lanish uchun

$$a) W_{\sigma}(p) = \frac{k}{1 + pT}$$

$$W_3(p) = \frac{\frac{k}{1 + pT}}{1 \pm \frac{k}{1 + pT} \cdot W_{m\sigma}(p)} = \frac{k}{1 + pT \pm k \cdot W_{m\sigma}(p)}$$

1) Qattiq manfiy teskari bog'lanish

$$W_3(p) = \frac{k}{1 + pT + k \cdot k_0} = \frac{\frac{k}{1 + k \cdot k_0}}{1 + p \cdot \frac{k}{1 + k \cdot k_0}} = \frac{k_3}{1 + p \cdot k_3}$$

manfiy teskari bog'lanish ulash bilan biz kuchaytirish koeffitsientini kamaytirdik, inersionlik kamaydi.

2) Qattiq musbat teskari bog'lanish.

$$W_3(p) = \frac{k}{1 + pT - k \cdot k_0} = \frac{\frac{k}{1 - k \cdot k_0}}{1 + p \cdot \frac{k}{1 - k \cdot k_0}} = \frac{k_3}{1 + p \cdot k_3}$$

$$k_3 = \frac{k}{1 - k \cdot k_0}; T_3 = p \cdot \frac{k}{1 - k \cdot k_0};$$

Agar $k \cdot k_0 > 1$ bo'lsa inersial zveno noturg'un bo'lib qoladi.

3) Elastik manfiy teskari bog'lanish

$$W_3(p) = \frac{k}{1 + pT + k \cdot k_0 p} = \frac{k}{1 + p(T + k \cdot k_0)};$$

4) Elastik musbat teskari bog'lanish.

$$W_3(p) = \frac{k}{1 + pT - k \cdot k_0 p} = \frac{k}{1 + p(T - k \cdot k_0)};$$

Agar $k \cdot k_0 > 1$ bo'lsa inersial zveno noturg'un bo'lib qolishi mumkin.

b) $W_6(p) = \frac{k}{p}$

$$W_3(p) = \frac{\frac{k}{p}}{1 \pm \frac{k}{p} W_{m.6}(p)} = \frac{k}{1 \pm k \cdot W_{m.6}(p)};$$

1) Qattiq manfiy teskari bog'lanish.

$$W_3(p) = \frac{k}{p + k \cdot k_0} = \frac{\frac{1}{k_0}}{\frac{1}{k \cdot k_0} p + 1} = \frac{k_9}{pT_9 + 1};$$

$$k_9 = \frac{1}{k_0}; T_9 = \frac{1}{k \cdot k_0};$$

2) Qattiq musbat teskari bog'lanish.

$$W_3(p) = \frac{k}{p - k \cdot k_0} = \frac{\frac{1}{k_0}}{\frac{1}{k \cdot k_0} p - 1} = \frac{k_9}{pT_9 - 1};$$

sistema noturg'un bo'lib qoladi.

Korrektlovchi moslamalarni LACHX yordamida sintez qilish.

Bu usul Solodovnikov V. V. Tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib ochiq sistemaning LACHXsi va uning berk sistemaning statik hamda dinamik xususiyatlari orasidagi bog'liqlikka asoslangandir. Bu usul minimal fazali tipdagisistemalar uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ochiq sistemaning LACHXsini qurib chiqamiz.

Zaruriy LACHXni qurish.

Ochiq sistemaning LACHXsi loyihalashtirilayotgan sistemaga qo'yiladigan talablar:

- talab etilgan kuchaytirish koeffisienti;
- sistemaning astotizmi, o'tkinchi jarayon vaqti hamda ruxsat etilgan o'tarostlash qiymati asosida quriladi.

Agarda kesish chastotasi ω_k da LACHXning og'ishi $-20\delta\delta / \partial \epsilon k$ ga teng bo'lsa, berk sistemaning turg'un bo'lishligi amalda isbot etilgandir.

Ochiq sistemaning LACHXsini uch qismga bo'lish mumkin.

1. Quyi chastotali qism.
 2. O'rta chastotali qism.
 3. Yuqori chastotali qism.
- 1) Zaruriy LChXning quyi chastotaviy qismi sistemaning aniqligini balgilaydi. Sistemaning aniqligi esa ochiq sistemaning kuchaytirish koeffisienti hamda uning astotizm darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun zaruriy LChXning quyi chastotali balandlikda -20vdb/dek og'ishga ega bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkaziladi.
 - 2) O'rta chastotaviy qism muhim ahamiyatga egadir. Chunki u berk sistemaning turg'unligini hamda o'tkinchi jarayon sifat ko'rsatkichini aniqlaydi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**

«AVTOMATIK BOSHQARISH NAZARIYASI»

fanidan

**amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha
uslubiy qo‘llanma**

Navoiy

Boybutayev S.B. «Avtomatik boshqarish nazariyasi» fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - Navoiy, NDKI, 2015y., - 36 bet.

Ushbu qo'llanma 5311000 – Texnologik jaryonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqaruv (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, chizikli sistemalarni tadqiq etish masalalarini o'z ichiga olgan.

Uslubiy ko'rsatma – «Avtomatik boshqarish nazariyasi» fanining o'quv dasturi asosida tuzilgan.

«Avtomatlashtirish va boshqaruv» kafedrası

Taqrizchilar: Eshmurodov Z.O., t.f.n., dots., «AB» kaf. NDKI.


Xudoyorov SH.J.,f.-m. f. n., dots., «I va AT» NDPI.

1. Prinsipial sxemalar bo'yicha funksional sxemalar tuzish

1.1-masala

O'zgaras tok generatori kuchlanishini avtomatik rostlash tizimining funksional sxemasini tuzish.

Rostlash tizimining prinsipial sxemasi 1.1-rasmda keltirilgan. Tizim quyidagicha ishlaydi: rostlanadigan kattalik – generator U_g kuchlanishiga proporsional teskari bog'lanish kuchlanishi $U_{t.b.}$ taqqoslash kuchlanishi U_t bilan solishtiriladi. $U_t - U_{t.b.}$ kuchlanishlar farqi elektron kuchaytirgich K, generator G ning qo'zg'atuvchisi hisoblangan ko'ndalang maydonli elektromashinaviy kuchaytirgichi EMK ning manba boshqarish chulg'ami BCh kirishiga keladi. Tizimning dinamik ustuvorligini ta'minlash uchun EMK kuchlanishi bo'yicha kondensator C va rostlovchi qarshilik R_s yordamida amalga oshiriladigan mo'tadillovchi mahalliy teskari bog'lanish nazarda tutilgan. Asosiy teskari bog'lanish kattaligi rostlagich qarshilik R_o orqali o'rnatiladi.




1.1-rasm. O'zgaras tok generatori kuchlanishini avtomatik rostlash tizimining soddalashtirilgan prinsipial sxemasi

Avtomatik rostlash tizimini funksional bo'laklarga ajratganda, birinchi navbatda generator G ni ko'rsatamiz. Uni rostlash ob'ekti RO sifatida qaraymiz. Generatorga rostlovchi ta'sir hisoblangan qo'zg'atish kuchlanishi U_{gq} va to'lqinlantiruvchi ta'sir – I_{yu} yuklama toki ta'sir qiladi.

Rostlanadigan U_g kuchlanishi asosiy teskari bog'lanish elementi TB_{as} orqali $U_{t.b}$ kuchlanishiga aylantiriladi va taqqoslash elementi TE yordamida U_t kuchlanishi bilan solishtiriladi. Kuchaytirgich elementi sifatida elektron kuchaytirgich K qabul qilingan, EMK esa ushbu holda bajaruvchi element BE hisoblanadi.

SR_s mo'tadillovchi konturni mahalliy teskari bog'lanish elementi TB_m sifatida tasavvur qilamiz. Uning kirish kattaligi EMK kuchlanishi, chiqish kattaligi kuchaytirgich kirishiga beriladigan mahalliy teskari bog'lanish signali hisoblanadi $U_t - U_{t.b.}$ asosiy signaldan hisoblanadigan U_0 kuchlanishidir.

Generator kuchlanishini rostlash tizimini keltirilgan elementlarga bo'lgach, 1.2-rasmda keltirilgan funksional sxema hosil bo'ladi.




1.2-rasm. O'zgarmas tok generatori kuchlanishini avtomatik rostlash tizimining funksional sxemasi

1.2-masala

Ikki fazali asinxron dvigatelli AD oddiy kuzatuvchi tizimning funksional sxemasini tuzing.


Kuzatuvchi tizimning prinsipial sxemasi 1.3-rasmda keltirilgan. Tizim quyidagi prinsip bo'yicha ishlaydi. Tizimning kirish va chiqish o'qi holatini P potensiometr harakatlantirgichi bog'langan DR mexanik differensial taqqoslaydi. Ikkilangan triod L asosida yig'ilgan bir kaskadli U lampali kuchaytirgichda P potensiometr dan olinadigan U_s kuchlanish kuchaytiriladi. Ikki fazali asinxron dvigatelning boshqaruvchi chulg'amiga kuchaytirgichning chiqish kuchlanishi U_k beriladi. Asinxron dvigatelning boshqaruvchi chulg'ami potensiometr ulangan o'zgaruvchan kuchlanish manbaidan ta'minot oladi. Chiqish transformatorining ikkinchi chulg'amiga parallel ulangan S kondensator, U_k kuchlanishini dvigatel qo'zg'atish chulg'amining kuchlanishiga moslashtirish vazifasini bajaradi.



1.3-rasm. Ikki fazali asinxron sodda dvigatelli kuzatuvchi tizimning prinsipial sxemasi

Mexanik diferensialni taqqoslash elementi TE, potensiometrni o'zgartiruvchi element O'E deb qabul qilsak, 1.4-rasmda keltirilgan funksional sxemaga ega

bo`lamiz. Sxemada asinxron dvigatel reduktor bilan birga bitta bajaruvchi elementda BE joylashtirilgan.



1.4-rasm. Kuzatuvchi tizimning funksional sxemasi

1.3-masala

Asinxron taxogenerator ATG va ikki fazali AD asinxron dvigatelli kuzatuvchi tizimni funksional sxemasini tuzing.

Tizimning ishlash prinsipi 1.5-rasmdagi tasvir orqali izohlanishi mumkin. Kuzatuvchi tizimning kirish va chiqish o`qlari P_1 topshiriq va P_2 qayta ishlovchi potensimetrlarning harakatlantirgichiga bog`langan. $\Theta = \Theta_{kir} - \Theta_{chiq}$ xatoligiga proporsional potensimetrlardan olingan kuchlanish asinxron taxogeneratorning teskari bog`lanishidan olinadigan U_0 kuchlanishiga algebraik qo`shiladi va ikki kaskaddan iborat lampali kuchaytirgich kirishiga keladi. Birinchi kaskad fazoinversli bo`lib, L1 lampasida yig`ilgan. Birinchi kaskad dastlabki kuchaytirishni amalga oshiradi, ikki taktli so`nggi kaskadlar (L1, L2 lampalar)ni boshqaradi. Bu kaskadlar Tr_{chiq} tranzistori orqali asinxron dvigatelning boshqaruvchi chulg`amida ishlaydi. Dvigatel` chulg`amidagi S kondensator ta`minot kuchlanishini boshqaruv chulg`amidagi kuchlanishga nisbatan 90^0 fazaga aylantiradi. Kuzatuvchi tizim boshqaruvchi va qayta ishlovchi signallar elektrik kattalik yig`indisi shaklida taqqoslanadigan distansion tizimlar qatoriga kiradi.

Tizimning funksional sxemasi 1.6,a-rasmda keltirilgan. Sxemada ikkita o`zgartiruvchi element O`E mavjudligi, kirish va chiqish o`qlaridan tashqari, ularga proporsional P_1 va P_2 potensimetrlardan olinadigan U_{p1} va U_{p2} kuchlanishlarning burilish burchagi taqqoslanadi. Tizimning qolgan elementlari – lampali kuchaytirgich, tizimning chiqish o`qining $\Omega_{\chi\mu\kappa}$ aylanish tezligini U_0 kuchlanishga aylantiruvchi asinxron taxogenerator yordamida amalga oshiriluvchi mahalliy va teskari bog`lanish va reduktorli dvigateldan iborat.

1.6,a-rasmda keltirilgan sxema bitta o`zgartiruvchi elementga ega ekvivalent sxemaga aylantirilishi mumkin (1.6,b-rasm). Bu sxemada kirish signallari bevosita taqqoslanadi. U_{p1} va U_{p2} kuchlanishlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$U_{p1} = k_{n1}\Theta_{\kappa\mu\psi}, U_{p2} = k_{n2}\Theta_{\chi\mu\kappa}$$

Bu erda, k_{n1} , k_{n2} – potensimetrlarni uzatish koeffitsientlari.

Ikkinchi taqqoslash elementiga beriladigan potensimetr kuchlanishlarining farqi

$$U_p = U_{p1} - U_{p2} = k_{n1}\Theta_{\kappa\mu\psi} - k_{n2}\Theta_{\chi\mu\kappa} \quad (1.1)$$

Muvofiqlashtirish bo`lmasa, nolga teng bo`lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki:


$$k_{n1}\Theta_{\kappa\mu\psi} = k_{n2}\Theta_{\chi\mu\kappa}$$

bunda, $\Theta_{\kappa\mu\psi} = \Theta_{\chi\mu\kappa}$, $k_{n1} = k_{n2} = k_n$ bo`lishi kerak.


(1.1) ifodaga k_n ni qo`yib, quyidagi ifodaga ega bo`lamiz:

$$U_p = k_n (\Theta_{\kappa\mu\psi} - \Theta_{\chi\mu\kappa}) = k_n \Theta$$

Bu esa 1.6,b-rasmda keltirilgan funksional sxemaga mos keladi.



1.5-rasm. Ikki fazali asinxron dvigatelli kuzatuvchi tizimning prinsipial sxemasi



1.6-rasm. Kuzatuvchi tizimning funksional sxemasi.

2. Differensial tenglamalar va bo`g`inlarning uzatish funksiyalari

2.1-masala

Elektr zanjirining (2.1-rasm) U_1 va U_2 kuchlanishga nisbatan uzatish funksiyasi va differensial tenglamasini toping.

Echish: 2.1-rasmda keltirilgan elektr zanjirining uzatish funksiyasini topishda qarshilikning operator formasi – pL –induktiv, $\frac{1}{pC}$ –sig`im, R –aktiv qarshiliklardan


(bu erda, $p = \frac{d}{dt}$ – differensiallash ramzi yoki operatori) foydalanish qulaydir.

2.1-rasmdagi elektr zanjirini ekvivalent sxemaga (2.2-rasm) aylantiramiz:


$$Z_1(p) = \frac{\frac{1}{pC_1} R_1}{R_1 + \frac{1}{pC_1}} + pL_1 = \frac{R_1(T_1 p^2 + T_{1L} p + 1)}{T_{1C} p + 1}, \quad (2.1)$$

$$Z_2(p) = \frac{R_2 L_2 p}{R_2 + L_2 p} + \frac{1}{C_2 p} = \frac{R_2(T_2^2 p^2 + T_{2L} p + 1)}{p(T_{2C} + T_2^2 p)}, \quad (2.2)$$

$$T_1 = \sqrt{C_1 L_1}, \quad T_{2L} = \frac{L_1}{R_1}, \quad T_{1C} = R_1 C_1, \quad T_2 = \sqrt{C_2 L_2}, \quad T_{2L} = \frac{L_2}{R_2}, \quad T_{2C} = R_2 C_2 \text{ (sek)} \quad (2.3)$$



2.1-rasm. 1-masala uchun sxema



2.2-rasm. Ekvivalent sxema

Ketma-ket ulangan qarshiliklarda kuchlanish tushuvi qarshilikka proporsional bo`lgani uchun ekvivalent zanjirning uzatish funksiyasi quyidagicha topiladi:

$$W(p) = \frac{U_2(p)}{U_1(p)} = \frac{Z_{\text{chik}}(p)}{Z_{\text{kir}}(p)} = \frac{Z_2(p)}{Z_1(p) + Z_2(p)} \quad (2.4)$$

(2.1), (2.2) ni (2.4) ga qo`yib, elektr zanjirning uzatish funksiyasini topamiz:

$$W(p) = \frac{R_2(b_0 p^3 + b_1 p^2 + b_2 p + b_3)}{R_2(b_0 p^3 + b_1 p^2 + b_2 p + b_3) + R_1(d_0 p^4 + d_1 p^3 + d_2 p^2 + d_3 p)} \quad (2.5)$$

$$b_0 = T_2^2 T_{1C}, \quad b_1 = T_2^2 + T_{2L} T_{1C}, \quad b_2 = T_{2L} + T_{1C}, \quad b_3 = 1,$$


$$d_0 = T_1^2 T_2^2, \quad d_1 = T_1^2 T_{2C} + T_2^2 T_{1L}, \quad d_2 = T_{1L} T_{2C} + T_2^2, \quad d_3 = T_{2C},$$

Ko`rilayotgan elektr sxemaning kuchlanishga nisbatan differensial sxemasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$[R(b_0 p^3 + \dots + b_3) + R_1(d_0 p^4 + \dots + d_3 p)]u_2(t) = R_2(b_0 p^3 + \dots + b_3)u_1(t) \quad (2.6)$$

2.2-masala

Transformatorning (2.3-rasm) u_1 va u_2 kuchlanishga nisbatan differensial tenglamasi va uzatish funksiyasini toping. Transformatorning elektrik ko`rsatkichlari 2.3-rasmda keltirilgan.



2.3-rasm. 2.2-masala uchun sxema

Echish: Transformatorning birinchi va ikkinchi chulg`ami zanjiridagi kuchlanish muvozanatining differensial tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$u_1 = r_1 i_1 + L_1 p i_1 + M p i_2 \quad (2.6)$$

$$0 = r_2 i_2 + L_2 p i_2 + M p i_1 + u_2 \quad (2.7)$$

Bu erda, r_1, L_1, i_1 – birlamchi chulg`am qarshiligi, induktivligi, toki; r_2, L_2, i_2 – ikkilamchi chulg`amning qarshiligi, induktivligi, toki; R – yuklamaning qarshiligi; u_1, u_2 – transformatorning kirish va chiqish kuchlanishlari; M - chulg`amlarning o`zaro induksiyaviy koeffisienti.

(2.6) tenglamadan tok ifodasini (2.7) ifodaga qo`ysak, transformatorning differensial tenglamasini topamiz:

$$\left[\frac{L_1 L_2 - M^2}{r_1 (R + r_2)} p^2 + \frac{L_2 r_1 + L_1 (R + r_2)}{r_1 (R + r_2)} p + 1 \right] u_2(t) = - \frac{MR}{r_1 (R + r_2)} p u_1(t) \quad (2.8)$$

yoki

$$[(T_1 T_2 - T_3^2) p^2 + (T_1 + T_2) p + 1] u_2(t) = -k \tau_1 p u_1(t) \quad (2.9)$$

Bu erda,

$$T_1 = \frac{L_1}{r_1}, T_2 = \frac{L_2}{R + r_2}, \tau_1 = \frac{M}{r_1}, T_3 = \sqrt{\frac{M^2}{r_1 (R + r_2)}} \text{ (sek)}, k = \frac{R}{R + r_2}.$$

Po`lat o`zakli transformatorlarda bog`lanish koeffisienti $\frac{M}{\sqrt{L_1 L_2}}$ birga yaqin

bo`lgani uchun $M \approx \sqrt{L_1 L_2}$, $L_1 L_2 - M^2 \approx 0$ yoki $T_1 T_2 - T_3^2 \approx 0$ bo`ladi. Bunda (2.9) transformatorning tenglamasi soddalashadi:

$$[(T_1 + T_2) p + 1] u_2(t) = -k \tau_1 p u_1(t) \quad (2.10)$$

Salt yurish rejimi uchun quyidagiga ega bo`lamiz:

$$(T_1 p + 1) u_2(t) = -\tau_1 p u_1(t)$$

(2.10) differensial tenglama asosida kuchlanish bo`yicha transformatorning uzatish funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$W(p) = \frac{U_2(p)}{U_1(p)} = - \frac{k \tau_1 p}{(T_1 + T_2) p + 1}$$

Bu ifodadan ko`rinib turibdiki, transformator inersial differensial bo`g`in hisoblanadi. Transformatorning differensial tenglamasidagi manfiy ishora chiqish kuchlanishining fazasi kirish kuchlanishidan 180° ga farq qilishini ko`rsatadi.

2.3-masala

Sust RC elektr zanjirining (2.4-rasm) u_1 va u_2 kuchlanishga nisbatan differensial tenglamasi va uzatish funksiyasini toping.

Echish: Ko`prik elka toki


$$i_1 = \frac{u_1 C_1 p}{T_1 p + 1}, \quad i_2 = \frac{u_1 C_2 p}{T_2 p + 1}, \quad T_1 = R_1 C_1, \quad T_2 = R_2 C_2, \quad p = \frac{d}{dt}.$$

Unda,

$$u_2(t) = \frac{1}{C_2 p} i_2(t) - R_1 i_1(t) = \frac{1 - T_1 T_2 p^2}{(T_1 p + 1)(T_2 p + 1)} u_1(t)$$

Bu ifodadan differensial tenglama kelib chiqadi:

$$(T_1 p + 1)(T_2 p + 1) u_2(t) = (1 - \tau_1^2 p^2) u_1(t) \quad (2.11)$$



2.4-rasm. 2.3-masala uchun sxema

Uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(p) = \frac{1 - \tau_1^2 p^2}{(T_1 p + 1)(T_2 p + 1)} = \frac{1 - T_1 T_2 p^2}{(T_1 p + 1)(T_2 p + 1)} \quad (2.12)$$

Bu erda, $\tau_1^2 = T_1 T_2$.

2.4-masala


Elektr zanjirda (2.4-rasm) $C_1 = C_2$, $R_1 = R_2$ bo`lganda, elektr zanjirning uzatish funksiyasini toping.

2.5-masala

Gidravlik dempferning (2.5-rasm) uzatish funksiyasini toping (Xarakat qiluvchi massalar ta`siri hisoblanmaydi, kirish kattaligi sifatida F kuch, chiqish kattaligi sifatida x porshen siliji olinsin).


Echish: F kuchga qarshi $F_d = c_1 x$ (c_1 —dempferlash koefitsienti) dempferlash kuchi mavjud. Unda quyidagiga ega bo`lamiz: $px = kF$, bu erda $k = c_1^{-1}$. Bundan

uzatish funksiyasi kelib chiqadi: $W(p) = \frac{X(p)}{F(p)} = \frac{k}{p}$



2.6-masala

2.6-rasmda keltirilgan tasvir konturlarning differensial tenglamasini toping.



2.6-rasm. 2.6-masala uchun rasm

3. Tuzilmaviy (strukturaviy) sxemalar va ularni o`zgartirish

3.1-masala


Quyidagi keltirilgan differensial tenglama orqali ifodalanadigan dinamik bo`g`inni teskari bog`linishli ketma-ket va differensial bo`g`inga o`zgartiring:

$$(T_2^2 p + T_1 p + 1)x_2 = \kappa x_1 \tag{3.1}$$

Echish: (3.1) differensial tenglamani quyidagi shaklga keltiramiz:

$$x_2 = \frac{k}{T_2^2 p^2 + 1} x_1 - \frac{T_1 p}{T_2^2 p^2 + 1} x_2 \tag{3.2}$$


(3.2) tenglama bo`yicha tuzilmaviy sxema tuzamiz (3.1,a-rasm). Bu sxemadagi jamlovchi yoki taqqoslash elementini ko`chiramiz. Sxemani soddalashtirib, 3.1,b-rasmdagi sxemaga kelamiz.



3.1-rasm. 3.1-masala uchun tuzilmaviy sxema

3.2-masala

Tuzilmaviy sxemasi 3.2,a-rasmda keltirilgan avtomatik tizimdagi yopiq tizimning uzatish sxemasini toping.



3.2-rasm. 3.2-masala uchun tuzilmaviy sxema

Echish: 3.2,a-rasmdagi kesishgan bog`liqlardan xolos bo`lib olamiz. Buning uchun 1-tugunni signal harakati bo`yicha W_3 bo`g`inidan olib o`tamiz (3.2,b-rasm). Olingan tuzilmaviy sxema bo`yicha uzatish funksiyasini topamiz:


$$\Phi(p) = \frac{W_1 W_2 W_3}{1 + W_1 W_2 + W_1 W_2 W_3}$$

3.3-masala

3.3,a-rasmda tuzilmaviy sxemasi ko`rsatilgan avtomatik tizimni differensial tenglamasini $y(t)$ boshqaruvchi va $f(t)$ toydiruvchi kattaliklarga nisbatan toping. Bunda,

$$W_1(p) = k_1, \quad W_2(p) = \varphi, \quad W(p) = k_3, \quad W_4 = \frac{k_4}{T_1 p + 1}, \quad W_5 = \frac{k_5}{T_2^2 p^2 + T_3 + 1}$$

Echish: Birinchi navbatda avtomatik tizimning $F_1(r)$ toydiruvchi ta`sir bo`yicha uzatish funksiyasini topamiz. Buning uchun 2-jamlovchini W_5 bo`g`inidan o`tkazib va W_1 va W_2 bo`g`inlarini birlashtiramiz (3.3,b-rasm).



3.3-rasm. 3.3-masala uchun tuzilmaviy sxema

Berilgan va toydiruvchi ta`sir bo`yicha yopiq tizimning uzatish funksiyasini topamiz:

$$W(p) = \frac{Y(p)}{G(p)} = [(W_1 + W_2)W_4 + W_3]W_5$$

va toydiruvchi ta'sir bo'yicha:

$$W(p) = \frac{Y(p)}{F(p)} = W_5(p)$$

unda,

$$\Phi_f(p) = \frac{H(p)}{F(p)} = \frac{W_f(p)}{1+W(p)} = \frac{d_0p + d_1}{a_0p^3 + a_1p^2 + a_2p + a_3}$$

Bu erda, $Y(p)$, $F(p)$ – $y(t)$ boshqaruvchi va $f(t)$ toydiruvchi ta'sirning ifodasi, $p = c + jw$ – kompleks o'zgaruvchi,

$$d_0 = k_5T_1, \quad d_1 = k_5, \quad a_0 = T_1T_2^2, \quad a_1 = T_2^2 + T_1T_3, \quad a_2 = T_1 + T_3 + k_4k_5\tau + k_3k_5T_1,$$

$$a_3 = 1 + k_3k_5 + k_1k_4k_5$$


bu erdan differensial tenglama kelib chiqadi:

$$(a_0p^3 + a_1p^2 + a_2p + a_3)y(t) = (d_0p + d_1)f(t), \quad p = \frac{d}{dt}$$



3.4-masala


3.4,a-rasmda keltirilgan avtomatik tizimning boshqaruvchi va toydirma ta'sirga nisbatan uzatish funksiyasini toping.

Echish: Tuzilmaviy sxemani soddalashtiramiz(3.4,b,v,g-rasm). 3.4,g-rasmga binoan quyidagilarni topamiz:



$$W(p) = W_1W_2 + (1 + W_1W_2W_3)W_4 + W_5, \quad W_f(p) = W_3W_4$$






3.4-rasm. 3.4-masala uchun tuzilmaviy sxema

3.5-masala

3.5-rasmda keltirilgan tuzilmaviy sxema uchun

a) signal yo`nalishi bo`yicha tugunni tugun orqali va bo`g`in orqali ko`chirish qoidasi, shuningdek signalga teskari yo`nalishda jamlovchini jamlovchi va bo`g`in orqali ko`chirish qoidalarini qo`llab 2-bo`g`inda-gi 7-teskari bog`lanishni 5-bo`g`inga ko`chiring;

b) yangi sxemada ishlash rejimi o`zgargan bo`g`inlarni ko`rsating.




3.5-rasm. 3.5-masala uchun tuzilmaviy sxema

3.6-masala

3.6-rasmda keltirilgan tuzilmaviy sxema uchun

a) 2-bo`g`indagi 7-parallel bog`lanishni 5-bo`g`inga ko`chiring;

b) berilgan va bajarilgan sxemaning ekvivalik shartlariga baho bering.




3.6-rasm. 3.6-masala uchun tuzilmaviy sxema

3.7-masala

$W(p) = k_{II}$ uzatish funksiyali kuchaytiruvchi bo`g`in teskari bog`lanishga ega (3.7-rasm). Jadvalda keltirilgan k_{II} va $k_{T.B.}$ qiymatlarida k kuchaytirish koeffisientini aniqlang.

Ko`rsatkich	Variantlar							
	1	2	3	4	5	6	7	8

k_{Π}	10	10	10	10	10	10	10	30
$k_{T.B.}$	0,01	0,09	0,099	0,2	1	10	20	100
Teskari bog'lanish belgisi	+	+	+	+	-	-	-	-



3.7-rasm. 3.7-masala uchun tuzilmaviy sxema

4. Dinamik bo'g'lar tavsifi

4.1 Bo'g'larining amplituda-faza (xarakteristika) tavsiflari

4.1-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega bo'g'ning amplituda-faza tavsifini toping:


$$W(p) = \frac{k}{p}$$

Echish: Bo'g'ning amplituda-faza tavsifini topishda p Laplas operatorini $j\omega$ bilan almashtiramiz:

$$W(p) = \frac{k}{j\omega}$$

Bo'g'inni aniq va mavhum qismlarga ajratamiz: $U(\omega) = 0$ – aniq qism, $V(j\omega) = \frac{k}{\omega}$ – mavhum qism. ω ga qiymat berib jadval tuzamiz va jadval asosida tavsif yasaymiz:

ω	$V(j\omega)$	$U(\omega)$
$0,5k$	2	0
k	1	0
$2k$	0,5	0
∞	0	0



4.1-rasm. Integral bo'g'ning amplituda-faza tavsifi

4.2-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega bo`g`inning amplituda-faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{k}{p^2}$$

4.3-masala

4.2-rasmda keltirilgan RC zanjirining amplituda-faza tavsifini toping ($R=1 \text{ kOm}$, $S=10 \text{ mkF}$).

Echish: Zanjirning chastotaviy uzatish funksiyasi quyidagiga teng:


$$W(j\omega) = \frac{j\omega T}{1 + j\omega T} \quad (4.1)$$

Bu erda, $T = RC = 10^3 \cdot 10^{-5} = 10^{-2} \text{ c}$


(4.1) ifodani quyidagi ko`rinishga keltirib olamiz (aniq va mavhum qismlarga ajratamiz):

$$W(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega) = \frac{\omega^2 T^2}{1 + \omega^2 T^2} + j \frac{\omega T}{1 + \omega^2 T^2} = \frac{10^{-4} \omega^2}{1 + 10^{-4} \omega^2} + j \frac{10^{-2} \omega}{1 + 10^{-4} \omega^2} \quad (4.2)$$

ω ga qiymat berib, $U(\omega)$ aniq va $V(\omega)$ mavhum qismlarning qiymatlarini aniqlab, amplituda-faza tavsifi quriladi (4.3-rasm).



4.2-rasm. Differensial bo`g`in



4.3-rasm. Differensial bo`g`in va uning amplituda-faza tavsifi

Kompleks sonning argumenti quyidagiga teng:

$$\psi = \arg W(j\omega) = \text{arctg} \frac{1}{\omega T} = \text{arctg} \frac{100}{\omega} \quad (4.3)$$

4.4-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega aperiodik bo`g`inning amplituda-faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{k}{1 + Tp} = \frac{5}{1 + 0.1p}$$

4.5-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega ikkinchi tartibli aperiodik bo`g`inning amplituda-faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{k}{(1+T_1 p)(1+T_2 p)}, \quad k=8, \quad T_1=80 \text{ msec}, \quad T_2=12 \text{ msec}$$


4.6-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega tebranma bo`g`inning amplituda-faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{k}{1+2\xi T p + T^2 p^2}, \quad k=1, \quad \xi=0,15, \quad T=0,02 \text{ sek}$$

4.7-masala

4.4-rasmda keltirilgan sust differensial konturli kuzatuvchi tizimning amplituda-faza tavsifini quring.



4.4-rasm. Sust differensial konturli kuzatuvchi tizimning amplituda-faza tavsifi
Tizim ko`rsatkichlari:

$$k_c = 28 \text{ e/pad}; \quad k_y = 1158; \quad c_e = 0.18 \frac{\text{e}}{\text{pad} \cdot \text{sek}}; \quad j_p = 400; \quad T_m = 0.04 \text{ sek}; \quad \alpha = 0,333; \quad \tau = 0,01 \text{ sek}$$

izimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{k_c k_y \frac{1}{c_e j_p} (\alpha + \tau p)}{p(1 + \tau p)(1 + T_m p)} = \frac{D(\alpha + \tau p)}{p(1 + \tau p)(1 + T_m p)}, \quad D = \frac{k_c k_y}{c_e j_p}$$

4.8-masala

Aperiodik bo`g`inning amplituda-chastota, faza-chastota va amplituda-faza tavsiflarini tuzing.

Uzatish koeffitsientini $k = 1$, vaqt o`zgarmassini $T = 2.5; 0.5 \text{ sek}$ deb olamiz.

Aperiodik bo`g`inning uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(p) = \frac{k}{1 + T p}$$

p operatorini $j\omega$ ga almashtirib, amplituda-chastota va faza-chastota tavsiflariga mos ravishda ega bo`lamiz:

$$A(\omega) = \frac{1}{\sqrt{1 + \omega^2 T^2}}$$


$$\varphi(\omega) = \arg[W(j\omega)] = -\arctg \omega T$$

ω ga qiymatlar berib, $A(\omega)$ va $\varphi(\omega)$ ni topamiz. Xisoblashlarning natijasi 4.1-jadvalda ko`rsatilgan. Bu jadvalga muvofiq $A(\omega)$ va $\varphi(\omega)$ tavsiflari quriladi (4.5-rasm).


4.1-jadval

T = 2.5			T = 0.5		
ω	$A(\omega)$	$\varphi(\omega)$	ω	$A(\omega)$	$\varphi(\omega)$
0.5	0.622	-51°6'	1	0.895	-26°36'
1	0.372	-68°24'	2	0.708	-46°
1.5	0.258	-75°6'	3	0.554	-56°18'
2	0.195	-78°48'	5	0.372	-68°12'
2.5	0.158	-81°	7	0.279	-74°
3	0.127	-82°6'	10	0.196	-78°42'
20	0.02	-86°30'	50	0.04	-87°48'

Aperiodik bo`g`inning amplituda-faza tavsifi (4.5-rasm) to`rtinchi kvadrantda joylashgan, diametri k kesimga teng, haqiqiy o`qda ($\frac{k}{2}; j0$) koordinata markazida joylashgan yarim doirani ifoda etadi.



4.5-rasm. Aperiodik bo`g`inning chastotaviy tavsiflari: a – amplituda; b – faza; v – amplituda-faza.



4.6-rasm. Ketma-ket ulangan aperiodik bo`g`inning chastotaviy tavsiflari: a – amplituda; b – faza; v – amplituda-faza.

4.9-masala

Ikkita ketma-ket ulangan aperiodik bo`g`inning amplituda-chastota, faza-chastota va amplituda-faza tavsiflarini tuzing.

Umumiy uzatish koeffisientini $k = k_1 = k_2 = 1$, vaqt o`zgarmasini $T_1 = 0.05 \text{ cek}; T_2 = 0.12 \text{ cek}$ deb olamiz.

Aperiodik bo`g`inning uzatish funksiyasi quyidagiga teng:

$$W(p) = \frac{k}{(1 + T_1 p)(1 + T_2 p)}$$

p operatorini $j\omega$ ga almashtirib, amplituda-chastota va faza-chastota tavsiflariga mos ravishda ega bo`lamiz:

$$A(\omega) = |W(j\omega)| = \frac{k}{\sqrt{(1 + \omega^2 T_1^2)(1 + T_2^2 \omega^2)}} = \frac{1}{\sqrt{(1 + 0.05^2 \omega^2)(1 + 0.12^2 \omega^2)}}$$

$$\varphi(\omega) = \arg[W(j\omega)] = -(\arctg \omega T_1 + \arctg \omega T_2)$$

$$= -(\arctg 0.05 \omega + \arctg 0.12 \omega)$$

ω ga qiymatlar berib, $A(\omega)$, $\varphi(\omega)$ va $W(j\omega)$ ni topamiz. Xisoblashlar natijasi 4.2-jadvalda ko`rsatilgan. Bu jadvalga muvofiq $A(\omega)$, $\varphi(\omega)$ va $W(j\omega)$ tavsiflari quriladi (4.6-rasm).

4.2 -jadval

ω	$A(\omega)$	$\varphi(\omega)$
1	0.99	-10^0
2	0.968	-19^0
5	0.83	-45^0
10	0.572	$-76^0 30'$
20	0.272	$-112^0 30'$
50	0.061	$-148^0 30'$
0	1	0

4.2. Bo`g`inlarning logorifmik amplituda-faza (xarakteristika) tavsiflari

4.10-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega aperiodik bo`g`inning logarifmik amplituda faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{100}{1 + 0,05p} \quad (4.4)$$

Echish: (1) ifodaga mos keluvchi logarifmik amplituda tavsifi quyidagiga teng:


$$L(\omega) = 20 \lg |W(j\omega)| = 20 \lg \frac{k}{\sqrt{1 + (\omega T)^2}} \quad (4.5)$$

(4.4) ifodaga mos keluvchi asimptotik logarifmik amplituda tavsif 4.6-rasmda ko`rsatilgan. Absissa o`qi bo`yicha ωT kattaligi logarifmik masshtabda, ordinata o`qi bo`yicha $L(\omega)$ kattaligi desibelda joylashtirilgan.

(4.5) ifodaga muvofiq asimptotik L.A.T. (logarifmik amplituda tavsifi) $\omega T = 1$ nuqtada sinishga ega. Sinishdan chap tarafdanda tavsif gorizontaal chiziq bo`ladi va $20lgk$ balandlikda joylashadi. Sinishdan o`ng tarafdanda $-20lgk$ og`ishga ega. Chastota o`qi bilan tavsifning kesishish nuqtasi, ya`ni ω_x kesishish chastotasi quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$L(\omega_x) \approx 20lg \frac{k}{\omega_x T} = 0 \text{ yoki } \omega_x = \frac{k}{T}.$$

Tavsifning eng katta og`ish nuqtasi $\omega T = 1$ nuqtaga to`g`ri keladi, (4.5) ifodadan hisoblansa, 3 dB ga teng. $\omega T = 0.5$ va $\omega T = 2$ da tavsifning qiymati taxminan 1dB ga, $\omega T = 1 \pm 1$ hududda tavsifning og`ishi juda kichik bo`ladi.



4.7-rasm. Tizimning logarifmik tavsiflari

Bo`g`inning faza tavsifi (4.4) ifodaga muvofiq aniqlanadi:

$$\psi(\omega) = \arg W(j\omega) = -\arctg \omega T \quad (4.6)$$

Kichik chastotalar hududida $\psi(\omega) \rightarrow 0$ faza nolga intiladi, katta chastotalar hududida $\psi(\omega) \rightarrow 90^\circ$ ga intiladi, $\omega T = 1$ da $\psi(\omega) = 45^\circ$ ga teng. (4.6) ifodadan faza tavsifi, $\omega T = 1$, $\psi(\omega) = 45^\circ$ nuqtaga nisbatan simmetrikligi aniqlanadi.

(4.4) ifodada keltirgan aperiodik bo`g`inning faza tavsifi (4.5) ifodaga muvofiq quriladi (4.7-rasm).

Tavsifni qurishda quyidagi jadvaldan foydalanildi:

ωT	0	0,05	0,1	0,2	0,5	1	2	5	10	20	∞
$\psi(\omega T)$, grad	0	$-2^\circ 50'$	$5^\circ 40'$	$11^\circ 20'$	$26^\circ 30'$	-45°	$63^\circ 30'$	$78^\circ 40'$	$84^\circ 20'$	$87^\circ 10'$	-90°

4.11-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega aperiodik bo`g`inning $L = 20 \lg[W(j\omega)]$ logarifmik amplituda i $\psi(\omega)$ faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{100}{1 + 0,05p}$$


4.12-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega aperiodik bo`g`inning $L = 20 \lg[W(j\omega)]$ logarifmik amplituda i $\psi(\omega)$ faza tavsifini toping:

$$W(p) = \frac{32}{(1 + 0,01p)(1 + 0,22p)}$$

4.13-masala


4.8-rasmda keltirilgan tuzilmaviy sxemaning $L = 20 \lg[W(j\omega)]$ logarifmik amplituda i $\psi(\omega)$ faza tavsifini toping.



4.8-rasm. O`zgaruvchan tok rostlagichli kuzatuvchi tizimning tuzilmaviy sxemasi

4.14-masala

4.9-rasmda keltirilgan tuzilmaviy sxemaning $L = 20 \lg[W(j\omega)]$ logarifmik amplituda i $\psi(\omega)$ faza tavsifini toping.



4.9-rasm. O`zgaruvchan tok rostlagichli kuzatuvchi tizimning tuzilmaviy sxemasi

4.15-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega aperiodik bo`g`inning $L = 20 \lg[W(j\omega)]$ logarifmik amplituda i $\psi(\omega)$ faza tavsifini toping

$$W(p) = \frac{100}{1 + 0,05p}$$

5. Tizimlarning (sistemalarning) turg`unligi

5.1 Raus-Gurvisa mezoni bo`yicha tizim turg`unligini tekshirish

5.1-masala

Avtomatik rostlash tizimi turg`unligini Gurvisa mezoni bo`yicha tekshiring. Tizimning tavsifiy tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$p^3 + 1.48p^2 + 4.6p + 4 = 0$$

Gurvisa mezoni bo`yicha uchinchi darajali tenglamalar uchun (ijobiy koefisientlardan tashqari) quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\Delta_2 = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0$$

Bu erda, Δ_2 – ikkinchi darajali aniqlik.

Bu holda $a_0=1$; $a_1=1,48$; $a_2=4,6$; $a_3=4$.

$$\Delta_2 = 1.48 * 4.6 - 1 * 4 = 2.8 > 0$$

Demak, tizim turg`un.

5.2-masala

Avtomatik rostdash tizimi turg`unligini Gurvisa mezoni bo`yicha tekshiring.

Tizimning tavsifiy tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$p^6 + 0.212p^5 + 2.42p^4 + 36.2p^3 + 228p^2 + 1408 = 0$$

Gurvisa mezoni bo`yicha oltinchi darajali tenglamalar uchun (ijobiy koefisientlardan tashqari) quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\Delta_2 = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0;$$

$$\Delta_3 = a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0;$$

$$\Delta_4 = (a_1 a_2 - a_0 a_3)(a_3 a_4 - a_2 a_5) - (a_1 a_4 - a_0 a_5)^2 > 0;$$

$$\Delta_5 = a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1(a_1 a_4 - a_0 a_5) > 0;$$

$$\Delta_6 = (a_1 a_2 - a_0 a_3)[a_5(a_4 a_3 - a_2 a_5) + a_6(2a_1 a_5 - a_3^2)] + (a_1 a_4 - a_0 a_5)[a_1 a_2 a_6 - a_5(a_1 a_4 - a_0 a_5)] - a_1^3 a_6^2 > 0$$

Bu erda, Δ_2 , Δ_3 , Δ_4 , Δ_5 , Δ_6 – ikkinchi, uchinchi, to`rtinchi, beshinchi, oltinchi daraja aniqlagichlari.

Bu holda yuqoridagi shartlar bajarilmasligi sababli tizim turg`un emas.

5.3-masala

Avtomatik rostdash tizimi turg`unligini Raus mezoni bo`yicha tekshiring.

Tizimning tavsifiy tenglamasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$0.0008p^5 + 0.03p^4 + 1.36p^3 + 4p^2 + 52.5p + 50 = 0$$

Raus jadvalini tuzamiz:

$a_0 = 0.0008$	$a_2 = 1.36$	$a_4 = 52.5$
$a_1 = 0.03$	$a_3 = 4$	$a_5 = 50$
$b_1 = \frac{1.36 * 0.03 - 4 * 0.0008}{0.03} = 1.25$	$b_2 = \frac{52.5 * 0.03 - 50 * 0.0008}{0.03} = 51.2$	$b_3 = 0$
$c_1 = \frac{4 * 1.25 - 0.03 * 51.2}{1.25} = 2.77$	$c_2 = \frac{1.25 * 50 - 0.03 * 0}{1.25} = 50$	$c_3 = 0$
$d_1 = \frac{2.77 * 51.2 - 50 * 1.25}{2.77} = 28.6$	$d_2 = \frac{2.77 * 0 - 1.25 * 0}{2.77} = 0$	$d_3 = 0$
$e_1 = \frac{28.6 * 50 - 2.77 * 0}{28.6} = 50$	$e_2 = 0$	$e_2 = 0$


Jadvaldagi qiymatlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

$a_0 > 0$, $a_1 > 0$, $b_1 > 0$, $c_1 > 0$, $d_1 > 0$, $e_1 > 0$ bo`lgani uchun tizim turg`un.

5.4-masala

Generator kuchlanishini avtomatik rostlash tizimi turg'unligini Gurvisa mezoni bo'yicha tekshiring.

Rostlash tizimining tuzilmaviy sxemasi 5.1-rasmda keltirilgan.



5.1-rasm. Generator kuchlanishini avtomatik rostlash tizimining tuzilmaviy sxemasi
Tuzilmaviy sxemani soddalashtirib, quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$a_0 p^4 + a_1 p^3 + a_2 p^2 + a_3 p + a_4 = 0$$

bu erda,

$$a_0 = 0,256 \cdot 10^{-6}; a_1 = 0,167 \cdot 10^{-3}; a_2 = 0,0244; a_3 = 0,54; a_4 = 41.$$

Gurvisa mezoni bo'yicha to'rinchi darajali tenglamalar uchun (ijobiy koeffisientlardan tashqari) quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\Delta_3 = a_3(a_1 a_2 - a_0 a_3) - a_1^2 a_4 > 0;$$

Koeffisientlar qiymatini yuqoridagi formulaga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\Delta_3 = 0,54(0,167 \cdot 10^{-3} \cdot 0,0244 - 0,256 \cdot 10^{-6} \cdot 0,54) - (0,167 \cdot 10^{-3})^2 \cdot 41 = 0,98 \cdot 10^{-6} > 0;$$

Demak, tizim turg'un.

5.5-masala

Gurvisa mezoni bo'yicha kuzatuvchi tizim turg'unligini tekshiring.

Tizimning tavsifiy tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$0,0003 p^4 + 0,0337 p^3 + 0,43 p^2 + 51,2 p + 24,8 = 0$$


5.6-masala

Ikki ko'rsatkich tekisligida tezlik bo'yicha teskari bog'lanishli tizimning turg'unlik chegarasini aniqlang.

Tizimning tuzilmaviy sxemasi 5.2-rasmda ko'rsatilgan. k_{y1} birinchi kaskad kuchaytirgichi va k_0 teskari bog'lanish koeffisienti funksiyalarining turg'unlik chegarasini topamiz.

Tizim ko'rsatkichlari:

$k_c = 0.4 \frac{\text{В}}{\text{град}}; k_{y2} = 5.2; c_e = 0,014 \frac{\text{В}}{\text{град/сек}}; j_p = 297; T_q = 0.06 \text{ сек}; T_m = 0,1 \text{ сек}.$



5.2-rasm. Tezlik bo`yicha teskari bog`lanishli tizimning tuzilmaviy sxemasi
Avval, yopiq tizimning uzatish funksiyasini topish kerak:

$$W_1(p) = \frac{\frac{1}{1 + T_q p} * \frac{c_e j p}{1 + T_m p}}{1 + \frac{k_{y2}}{1 + T_q p} * \frac{c_e j p}{1 + T_m p} * k_0 c_e * j p}$$

Ushbu ifodani soddalashtirgandan so`ng, quyidagiga ega bo`lamiz:

$$W_1(p) = \frac{\frac{k_{y2}}{c_e j p}}{(1 + T_q p)(1 + T_m p) + k_{y2} k_0}$$

Ochiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = k_c k_{y1} W_1(p) \cdot \frac{1}{p} = \frac{k_c k_{y1} k_{y2} \frac{1}{c_e j p}}{[(1 + T_q p)(1 + T_m p) + k_{y2} k_0] p}$$

$D = k_c k_{y1} k_{y2} \frac{1}{c_e j p}$ belgilashni kiritamiz va ochiq tizimning yakuniy uzatish funksiyasiga ega bo`lamiz:

$$W(p) = \frac{D}{T_q T_m p^3 + (T_q + T_m) p^2 + (1 + k_{y2} k_0) p}$$

Bu uzatish funksiyasi tizimning tavsifiy tenglamasini topamiz:

$$a_0 p^3 + a_1 p^2 + a_2 p + a_3 = 0$$

Bu erda,

$$a_0 = T_q T_m; a_1 = T_q + T_m; a_2 = 1 + k_{y2} k_0; a_3 = D = \frac{k_c k_{y2} k_{y1}}{c_e j p}$$

Tizim ko`rsatkichlarining sonli qiymatlarini yuqoridagi ifodaga qo`yamiz:

$$a_0 = 0,06 * 0,1 = 0,006;$$

$$a_1 = 0,06 + 0,1 = 0,16;$$

$$a_2 = 1 + 5,2 k_0;$$

$$a_3 = D = \frac{0,4 * 5,2}{0,014 - 297} k_{y1}$$

Gurvisa bo`yicha turg`unlik shartlari:

$$a_0 > 0; a_1 > 0; a_2 > 0; a_3 > 0;$$

$$\Delta_2 = a_1 a_2 - a_0 a_3 > 0;$$

Birinci to'rtta shart $k_0 > 0, k_{y1} > 0$ bo'lganda bajariladi. So'nggi shartdan quyidagiga ega bo'lamiz: $0.16(1+5.2k_0) - 0.006 \cdot 0.5k_{y1} > 0$

bu erdan,


$$k_0 > 0.0036k_{y1} - 0.192$$

Bu tengsizlik tizim turg'unligi shartini ifoda qiladi. Turg'unlik chegarasi $(-0.192; j0)$ koordinatali nuqtadan $\arctg 0.0036$ burchak ostida $(-0.192; j0)$ koordinatali nuqtadan o'tuvchi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$k_0 = -0.192$ qiymati turg'unlik chegarasi hisoblanadi. Buni quyidagi tenglama ham isbotlab turibdi:

$$a_2 = 1 + 5.2k_0 > 0; \Rightarrow k_0 > -\frac{1}{5.2} = -0.192$$


k_0, k_{y1} ko'rsatkichlari tekisligidagi turg'unlik chegarasi 5.3-rasmda ko'rsatilgan.



5.3-rasm. k_0, k_{y1} ko'rsatkichlari tekisligidagi kuzatuvchi tizimning turg'unlik chegarasi

5.7-masala

5.4-rasmda tasvirlangan tezlik bo'yicha teskari bog'lanshga ega, integrallovchi va differensiallovchi bo'g'inli kuzatuvchi tizimning Raus mezoni bo'yicha turg'unligini tekshiring.



5.4-rasm. Tezlik bo'yicha teskari bog'lanshga ega, integrallovchi va differensiallovchi bo'g'inli kuzatuvchi tizim tuzilmaviy sxemasi

$$k_c = 50 \frac{\text{В}}{\text{град}}; k_y = 200; k_{\text{н}} = 1 \frac{1}{\text{с}}; k_0 = 0,1; k_{\text{д}} = 0,01 \text{сек}; c_e = 0,7 \frac{\text{В}}{\text{град/сек}}; j_p = 143; T_q = 0,12 \text{сек}; T_0 = 0,1 \text{сек}.$$

Tavsifiy tenglama:

$$a_0 p^5 + a_1 p^4 + a_2 p^3 + a_3 p^2 + a_4 p + a_5 = 0$$

5.8-masala

Tizim tavsifiy tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$p^3 + p^2 + 2p + 1 = 0$$

Tizim turg'unligini aniqlang.

5.9-masala

Tizimning tavsifiy tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$5p^3 + 2p^2 - 3p + 1 = 0$$

Tizim turg'unligini aniqlang.

5.10-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1+Tp)}$$

Yopiq tizim turg'unligining shartini aniqlang.

5.11-masala

Ochiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p^2}, K = 100 \text{сек}^{-2}$$

Ochiq tizim turg'unligini aniqlang.

5.12-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p^2(1+Tp)},$$

$K = 20 \text{cek}^2$ – tizimning tezlik bo'yicha koeffitsienti;

$T = 0,01 \text{cek}$ – vaqt o'zgarmasi;

Yopiq tizim turg'unligini aniqlang.

5.13-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p^2(1+T_1p)(1+T_2p)},$$

$K = 50 \text{cek}^2$ – yopiq tizimning umumiy uzatish koeffitsienti;


$T_1 = 1 \text{cek}, T_2 = 0,05 \text{cek}$ – vaqt o'zgarmissi.

Yopiq tizim turg'unligining aniqlang.

5.2 Mixaylov mezoni bo'yicha tizim turg'unligini tekshirish

5.14-masala

Avtomatik boshqarish tizimi to'rtinchi tartibli tavsifiy tenglamaga ega. Mixaylov chizig'i 5.5-rasmda keltirilgan. Avtomatik tizim turg'unligini aniqlang.



5.5-rasm. 5.14-masala uchun Mixaylov chizig'i

Echish: Chiziq Mixaylov mezoni talablarini bajargani, ya'ni koordinata choraklarini ketma-ket bosib o'tgani sababli tizim turg'unidir.

5.15-masala

Quyidagi uzatish funksiyasiga ega elektromexanik kuzatuvchi tizimning Mixaylov mezoni bo'yicha turg'unligini aniqlang:

$$W(p) = \frac{K}{p(1+T_y p)(1+T_m p)}$$

$K = 58 \text{cek}^2$ – yopiq tizimning umumiy uzatish koeffitsienti;

$T_m = 0,57 \text{cek}$ – dvigatelning vaqt o'zgarmasi.

$T_y = 0,01 \text{cek}$ – kuchaytirgichning vaqt o'zgarmasi.

Echish: yopiq tizimning tavsifiy polinomi:

$$D(p) = p(1+T_y p)(1+T_m p) + K = T_y T_m p^3 + (T_y + T_m)p^2 + p + K$$

Mixaylov chizig`ini qurish uchun $D(j\omega)$ funksiyasining mavhum va haqiqiy qismlarini ajratib olamiz:


$$X(\omega) = \operatorname{Re} D(j\omega) = K - (T_y + T_m)\omega^2 = 58 - 0.58\omega^2$$

$$Y(\omega) = \operatorname{Im} D(j\omega) = \omega - T_y T_m \omega^3 = \omega - 5.7 \cdot 10^{-3} \omega^3$$

$X(\omega)$ va $Y(\omega)$ ni ω chastotaning bir nechta qiymatlari uchun hisoblaymiz va jadvalga kiritamiz.

ω, cek^{-1}	$X(\omega)$	$Y(\omega)$
0	58	0
5	44	4
10	0	4.5
13	-40	0
15	-70	-5
∞	$-\infty$	$-\infty$

Jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, Mixaylov chizig`ini tuzamiz (5.6-rasm). Mixaylov chizig`i kvadrantlardan ketma-ket o'tmoqda. Demak, tizim turg'un.



5.6-rasm. 5.15-masala uchun Mixaylov chizig`i

5.16-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{-1 + Tp},$$

K – yopiq tizimning kuchaytirish koeffisienti

$T > 0$ – vaqt o'zgarmasi.


Mixaylov mezonidan foydalanib, tizim turg'unligi shartini toping.

Echish: yopiq tizimning tavsifiy polinomi uzatish funksiyasini mahraj va kasrdagi polinomlarning yig'indisiga teng:

$D(j\omega)$ vektorini tavsifiy polinomda r ni $j\omega$ ga almashtirib hosil qilamiz:

$$D(j\omega) = j\omega T + K - 1 = X(\omega) + jY(\omega), X(\omega) = K - 1, Y(\omega) = \omega T$$


Tizim turg'un bo'lishi uchun $D(j\omega)$ vektori ω chastotasi 0 dan ∞ gacha o'zgarganda, $\varphi = \frac{\pi}{2}$ burchakka o'zgarishi etarli va kerak (5.7-rasm). $K < 1$ da Mixaylov chizig`i ikkinchi kvadrantda joylashgan va ω chastotasi 0 dan ∞ gacha o'zgarganda $D(j\omega)$ vektorining o'zgarish burchagi $\varphi = -\frac{\pi}{2}$ ga, $K > 1$ da esa, $\varphi = \frac{\pi}{2}$ ga teng. Demak, yopiq tizim $K > 1$ da turg'un.



5.7-rasm. 5.16-masala uchun $D(j\omega)$ vektorining godografi

5.17-masala


Avtomatik boshqaruv tizimining tavsifiy polinomi oltinchi tartibga ega. 5.8–rasmda tizimning turli koʻrsatkichlari uchun Mixaylov chizigʻi berilgan. Tizim turgʻunligini aniqlang.



5.8-rasm. 5.17-masala uchun Mixaylov chizigʻi

5.18-masala

Avtomatik boshqaruv tizimining tavsifiy polinomi oltinchi tartibga ega. 5.9–rasmda tizimning Mixaylov chizigʻi keltirilgan. Tavsifiy tenglamaning musbat va manfiy mavhum qismlaridagi ildizlar sonini aniqlang.



5.9-rasm. 5-masala uchun Mixaylov chizigʻi

Echish: ω chastotasi 0 dan ∞ gacha oʻzgaranda $D(j\omega)$ vektorining oʻzgarish burchagi:

$$\varphi = n \frac{\pi}{2} - l\pi \quad (5.1)$$

Bu erda, n –tavsifiy tenglamaning tartibi; l –musbat mavhum qismdagi ildizlar soni.

ω chastotasi 0 dan ∞ gacha o'zgarib barcha $D(j\omega)$ vektori o'zgarish burchagi $\varphi = \frac{\pi}{2}$ ga teng ekanligi 5.9-rasmdan ko'rinadi.


(5.1) ifodaga burchakning qiymati $n=5$ va qo'yib, musbat mavhum qismdagi ildizlar soniga ega bo'lamiz:

$$l = \frac{5 \frac{\pi}{2} - \frac{\pi}{2}}{\pi} = 2$$

Mixaylov chizig'i koordinata boshidan o'tmaydi, shuning uchun manfiy mavhum qismdagi ildizlar soni $n - l = 5 - 2 = 3$ ga teng.

5.19-masala

5.10-rasmda beshinchi tartibli avtomatik boshqaruv tizimining Mixaylov chizig'i berilgan. Tavsifiy tenglama ildizlarining ildiz tekisligida joylashishini tuzing.



5.10-rasm. 5.19-masala uchun Mixaylov chizig'i

5.20-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1+T_1p)(1+T_2p)(1+T_3p)}$$

Bu erda, K -yopiq tizimning umumiy uzatishi koeffisienti,

$T_1 = 0,5 \text{cek}$, $T_2 = 0,1 \text{cek}$, $T_3 = 0,02 \text{cek}$ vaqt o'zgarmlari.

Mixaylov mezonni yordamida tizim turg'unlik chegarasida bo'ladigan yopiq tizimning umumiy uzatish koeffisienti K qiymatini aniqlang.

Echish: yopiq tizimning tavsifiy ko'p hadi:

$$D(p) = p(1+T_1p)(1+T_2p)(1+T_3p) + K = T_1T_2T_3p^4 + (T_1T_2 + T_1T_3 + T_2T_3)p^3 + (T_1 + T_2 + T_3)p^2 + p + K$$

T_1, T_2, T_3 larning o'rniga qiymatlarini qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$D(p) = p(1+T_1p)(1+T_2p)(1+T_3p) + K = 10^{-3} p^4 + 62 \cdot 10^{-3} p^3 + 610 \cdot 10^{-3} p^2 + p + K$$

$D(j\omega)$ vektorini tavsifiy polinomda r ni $j\omega$ ga almashtirib hosil qilamiz:

$$D(j\omega) = X(\omega) + jY(\omega)$$

$$X(\omega) = K - 610 \cdot 10^{-3} \omega^2 + 10^{-3} \omega^4,$$

$$Y(\omega) = \omega - 62 \cdot 10^{-3} \omega^3$$

Tizim turg'unlik chegarasida bo'lganda, koordinata boshidan o'tadi:

$$X(\omega) = K - 610 \cdot 10^{-3} \omega^2 + 10^{-3} \omega^4 = 0 \quad (5.2)$$

$$Y(\omega) = \omega - 62 \cdot 10^{-3} \omega^3 = 0 \quad (5.3)$$

Bu ifodadan chastota qiymatini topamiz:

$$\begin{aligned} \omega - 62 \cdot 10^{-3} \omega^3 &= 0 \\ \omega(1 - 62 \cdot 10^{-3} \omega^2) &= 0 \\ 62 \cdot 10^{-3} \omega^2 &= 1 \\ \omega^2 &= (62 \cdot 10^{-3})^{-1} \text{cek}^{-2} \end{aligned} \quad (5.4)$$

(5.4) ni (5.2) ifodaga qo'yib, K ni qiymatini topamiz:

$$K = \frac{610 \cdot 10^{-3}}{62 \cdot 10^{-3}} - \frac{10^{-3}}{62^2 \cdot 10^{-6}} = 9,6$$

5.21-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1 + \xi T_1 p + T_1^2 p^2)(1 + T_2 p)(1 + T_3 p)}$$

Bu erda, K – yopiq tizimning umumiy uzatishi koeffisienti, ξ – dempferlash koeffisienti;

$$T_1 = 0,05 \text{cek}, T_2 = 0,2 \text{cek}, T_3 = 0,1 \text{cek} \text{ vaqt o'zgarmaslari.}$$

Mixaylov mezoni yordamida tizim turg'unlik chegarasida bo'ladigan K yopiq tizimning umumiy uzatish koeffisienti qiymatini aniqlang.

5.22-masala

Avtomatik tizim turg'unligini Mixaylov mezoni yordamida aniqlang. Tizimning tavsifiy tenglamasi:

$$a_0 p^5 + a_1 p^4 + a_2 p^3 + a_3 p^2 + a_4 p + a_5 = 0$$

Bu erda,

$$a_0 = 0,15 \cdot 10^{-2} \text{cek}^5, a_1 = 5 \cdot 10^{-2} \text{cek}^4, a_2 = 0,6 \text{cek}^3, a_3 = 4 \text{cek}^2, a_4 = 20 \text{cek}, a_5 = 500$$

5.23-masala

Avtomatik tizimning tavsifiy ko'phadi:


$$D(p) = 2 \cdot 10^{-4} p^6 + 80 \cdot 10^{-4} p^5 + 3 \cdot 10^{-1} p^4 + 1,24 p^3 + 10 p^2 + 40 p + 34$$

Tizim turg'unligini aniqlang.

5.3 Naykvist mezoni bo'yicha tizim turg'unligini tekshirish

5.24-masala

Ochiq holda turg'un tizimning amplituda-faza tavsifi 5.11-rasmda keltirilgan. Yopiq tizimning turg'unligini aniqlang.



5.11-rasm. 5.24-masala uchun A.F.T.

5.25-masala

Elektromexanik kuzatuvchi tizimning yopiq holdagi uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1+T_m p)(1+T_y p)}$$

Bu erda, $K = 100 \text{cek}^{-1}$ – kuzatuvchi tizimning tezlik bo`yicha zichligi, $T_m = 0,02 \text{cek}$ – dvigatel o`zgarmas vaqti; $T_y = 0,02 \text{cek}$ – kuchaytirgich o`zgarmas vaqti.

Naykvist mezonidan foydalanib, elektromexanik tizimning turg`unligini aniqlang.

Echish: amplituda-faza tavsifini (AFT) qurish uchun amplituda chastota tavsifi $A(\omega)$ ni va faza chastota tavsifi $\psi(\omega)$ ni aniqlab olamiz:

$$A(\omega) = |W(j\omega)| = \left| \frac{K}{j\omega(1+j\omega T_m)(1+j\omega T_y)} \right| = \frac{K}{\omega \sqrt{1+(\omega T_m)^2} \sqrt{1+(\omega T_y)^2}} = \frac{100}{\omega \sqrt{1+(\omega \cdot 0,1)^2} \sqrt{1+(\omega \cdot 0,02)^2}},$$

$$\psi(\omega) = \arg W(j\omega) = \arg \frac{K}{j\omega(1+j\omega T_m)(1+j\omega T_y)} = -90^\circ + \psi_1 + \psi_2,$$

$$\psi_1(\omega) = -\arctg \omega T_m = \arctg 0,1\omega,$$


$$\psi_2(\omega) = -\arctg \omega T_y = -\arctg 0,02\omega.$$

$A(\omega), \psi(\omega), \psi_1(\omega), \psi_2(\omega)$ ni ω chastotani bir nechta qiymatlari uchun hisoblab, jadval tuzamiz:

5.1-jadval

ω, cek^{-1}	0	5	10	15	25	50	100
A	∞	18	6.9	3.56	1.32	0.28	0.045
ψ, grad	-90	-122	-144	-153	-184	-214	-238
ψ_1, grad	0	-26	-45	-56	-68	-79	-84
ψ_2, grad	0	-6	-11	-17	-26	-45	-64

Ushbu jadvalga asoslanib, AFTni quramiz (5.12-rasm).



5.12-rasm. Yopiq tizimning AFT

Yopiq tizimi AFT si (-1,0) nuqtadan o'tmoqda. Demak, tizim turg'un emas.

5.26-masala

Naykvist turg'unlik mezonidan foydalanib, 5.25-masalada berilgan tizimni quyidagi ko'rsatkichlar uchun turg'unligini tekshiring:

- a) $K = 50 \text{сек}^{-1}, T_m = 0,1 \text{сек}, T_y = 0,025 \text{сек}$
- b) $K = 200 \text{сек}^{-1}, T_m = 0,02 \text{сек}, T_y = 0,002 \text{сек}$
- v) $K = 50 \text{сек}^{-1}, T_m = 0,1 \text{сек}, T_y = 0,005 \text{сек}$

5.27-masala


Bir o'qli gireskopik mo'tadillashtirgichning ochiq holdagi uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1 + 2\xi T_r p + T_r^2 p^2)}$$

$K = 40 \text{сек}^{-1}, T_r = 0,02 \text{сек}, \xi = 0,15$

Naykvist mezonidan foydalanib, girostabilizatorning yopiq holatdagi turg'unligini aniqlang.

Echish: tizimning ochiq holatdagi AFTsi 5.13-rasmda keltirilgan. Girostabilizator turg'un emas.



5.13-rasm. 4-masala uchun AFT

5.28-masala

Statik turg'un ob'ektni ochiq holatdagi uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K(1+\tau p)}{p(1+T_1 p)(1+T_0^2 p^2)}$$

Bu erda, $K=1$ —ochiq tizimning kuchaytirish koeffisienti,

$\tau=0,1\text{cek}$ —rostlovchi qurilmaning o'zgaras vaqti; $T_1=0,2\text{cek}$ —bajaruvchi

qurilmaning o'zgaras vaqti, $T_0=0,5\text{cek}$ —ob'ektning o'zgaras vaqti.

Naykvist mezonidan foydalanib, yopiq tizimning turg'unligini aniqlang.

Echish: ochiq tizimning amplituda chastota tavsifi:

$$A(\omega) = \frac{K\sqrt{1+(\omega\tau)^2}}{\sqrt{1+(\omega T_1)^2} \cdot |1-(\omega_0 T_0)^2|} = \frac{\sqrt{1+(0,1\omega)^2}}{\sqrt{1+(0,2\omega)^2} \cdot |1-(0,5\omega)^2|}$$

Faza chastota tavsifi:

$$\psi(\omega) = \begin{cases} \arctg \omega\tau - \arctg \omega T_1 = \arctg 0,1\omega - \arctg 0,2\omega, \omega < \frac{1}{T_0} = 2\text{cek}^{-1} \text{ da} \\ \arctg \omega\tau - \arctg \omega T_1 - 180^\circ = \arctg 0,1\omega - \arctg 0,2\omega - 180^\circ, \omega > \frac{1}{T_0} = 2\text{cek}^{-1} \text{ da} \end{cases}$$


$A(\omega), \psi(\omega)$ ni ω chastotani bir nechta qiymatlari uchun hisoblab, jadval

tuzamiz:

5.2-jadval

ω, cek^{-1}	0	1	1.5	$\omega \rightarrow 2-0$	$\omega \rightarrow 2+0$	2.4	3	5	∞
A	1	1.33	2.2	∞	∞	2.1	0.7	1.15	0
ψ, grad	0	-6	-9	-11	-191	-192	-204	-198	-180

Jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, ochiq tizimning AFT sini quramiz (5.14-rasm).



5.14-rasm. 5-masala uchun AFT

Yopiq tizimi AFT si $(-1,0)$ nuqtadan o'tmoqda. Demak, tizim turg'un emas.

5.29-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K(1+\tau p)}{p(1+T_1 p)(1+T_2 p)(1+T_0^2 p^2)}$$

bu erda, $K=1$ —ochiq tizimning kuchaytirish koeffisienti,

$\tau = 0,4\text{сек}$ – rostlovchi qurilmaning o`zgarmas vaqti;
 $T_1 = 0,2\text{сек}, T_2 = 0,1\text{сек}$ – bajaruvchi qurilmaning o`zgarmas vaqti,
 $T_0 = 0,5\text{сек}$ – ob`ektning o`zgarmas vaqti.

Naykvist mezonidan foydalanib, yopiq tizim turg`unligini aniqlang.

5.30-masala


Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{(1+Tp)^n}$$

Bu erda, $K > 0, T > 0, n > 0$

Naykvist mezonidan foydalanib, yopiq tizim turg`unligini aniqlang.

Echish: ochiq tizimning AFT si 5.15-rasmda keltirilgan.



5.15-rasm. 7-masala uchun AFT

Tizimning faza chastotaviy tavsifi:

$$\psi(\omega) = -n \arctg \omega T$$

$$\psi(\omega) = -n \arctg \omega T = -\pi$$

da $\omega = \omega_{-\pi}$ chastota qiymatini aniqlaymiz:

$$\omega_{-\pi} = \frac{tg \frac{\pi}{n}}{T}$$

Tizim turg`un bo`lishi uchun quyidagi shart bajarilishi etarli:

$$\left| W(j\omega) \right|_{\omega=\omega_{-\pi}} = \frac{K}{(\sqrt{1 + (\omega T)^2})^n} \Bigg|_{\omega=\omega_{-\pi}} < 1$$

Ushbu ifodadan turg`unlik shartini aniqlaymiz:

$$K < (\sqrt{1 + tg^2 \frac{\pi}{n}})^n = \frac{1}{\cos^n \frac{\pi}{n}}$$

5.31-masala

Yopiq tizimning uzatish funksiyasi:

$$W(p) = \frac{K}{p(1+Tp)^n}$$

bu erda, $K > 0, T > 0$

Naykvist mezonidan foydalanib, yopiq tizimning turg`unligini aniqlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Vasil`ev D.V., Chuich V.G. Sistemi avtomaticheskogo upravleniya. M.: Visshaya shkola, 1967.
2. Sbornik zadach po teorii avtomaticheskogo regulirovaniya i upravleniya. (Pod red. V.A. Bessekerskogo) M.:Nauka, 1969.
3. Zadachnik po teorii avtomaticheskogo upravleniya. (Pod obsh. red. Shatalova A.S.) M.:Energiya,1971.
4. Osnovi teorii avtomaticheskogo regulirovaniya. (Pod red. Krutova V.I.). M.: Mashinostroenie, 1984.
5. E.I. Yurevich. Teoriya avtomaticheskogo upravleniya. M.: Energiya, 1975.
6. Teoriya avtomaticheskogo upravleniya. (Pod obsh. red. Netushila A.V.) Chast` 1,2. M.: Visshaya shkola, 1972.
7. <http://www.ispu.ru>
8. <http://www.matlab.ru>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**

«AVTOMATIK BOSHQARISH NAZARIYASI»

fanidan

**tajriba ishlarini bajarish bo‘yicha
uslubiy qo‘llanma**

Navoiy

Boybutayev S.B. «Avtomatik boshqarish nazariyasi» fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - Navoiy, NDKI, 2016 y., - 40 bet.

Ushbu qo'llanma 5311000 – Texnologik jaryonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqaruv (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda «Avtomatik boshqarish nazariyasi» fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bayon qilingan. Tajriba ishlarini bajarish davomida talabalar boshqarish sistemalarini xarakteristikalarini o'rganishda EHMdan to'g'ri foydalanish, sistemalarni kompyuterli modellashtirish bo'yicha amaliy ko'nikma va tajriba hosil qiladi.

«Avtomatlashtirish va boshqaruv» kafedrası

Taqrizchilar: Eshmurodov Z.O., t.f.n., dots., «AB» kaf. NDKI.

Xudoyorov SH.J.,f.-m. f. n., dots., «I va AT» NDPI.

1 – Tajriba ishi.

Avtomatik boshqarish tizimidagi topshiriq beruvchi qurilmasining aniqligining tahlili.

1.1. Ishdan maqsad

MatLAB amaliy dasturi tarkibiga kiruvchi **Simulink** dasturi bilan tanishish. Tadqiq etilayotgan ARS struktura sxemasini dasturda tasvirlash va zvenolar bog`lanishining stukturaviy o`zgartirishlar ko`nikmasini mustahkamlash.

1.2. Jixozlanish.

IBM PC tipidagi shaxsiy EXM, **MatLAB** dasturi.

1.3. Nazariy qism.

Uzatish funksiyasi deb chiqish kattaligi **Y(s)** ning Laplas tasviri kirish kattaligi **X(s)** ning Laplas tasviriga boshlang`ich shartlar **0** ga teng bo`lgandagi nisbatiga aytiladi.

$$W(S) = \frac{Y(S)}{X(S)} \Big|_{t=0}$$


Uzatish funksiyasining umumiy ko`rinishi:

$$W(S) = \frac{b_0 S^{m-1} + b_1 S^{m-2} + \dots + b_m}{a_0 S^n + a_1 S^{n-1} + \dots + a_n}$$

MatLAB dasturida uzatish funksiyasi aynan shunday ko`rinishda kiritiladi. Zaruriy shart $n > m$ bo`lib, bu sistemaning fizik amalga oshirish sharti hisoblanadi.


Strukturalarni o`zgartirish qoidalari:

1. Sistema zvenolarining ketma – ket bog`lanishi.



$$W_{um} = W_1 \cdot W_2 \cdot \dots \cdot W_n$$


2. Sistema zvenolarining parallel bog`lanishi.



$$W_{um} = W_1 + W_2 + \dots + W_n$$

3. Sistema zvenolarining teskari bog`lanishi


a) musbat va manfiy teskari bog`lanishli strukturalar




$$W_{um} = \frac{W_1}{1 \mp W_1 W_2}$$

4. Tugunlarni elementlararo ko`chirish


berilgan struktur sxemasi




ekvivalent struktur sxema



5. Summatorni elementlararo ko`chirish berilgan struktur sxema




ekvivalent struktur sxema



1.4. Ishni bajarish buyicha metodik ko`rsatma.

Tajriba ishini bajarish uchun avval [MatLAB](#) dasturini ishga tushirish zarur. [MatLAB](#) dasturining asosiy oynasi 1.1- rasmda ko`rsatilgan.




1.1.-rasm. [MatLAB](#) dasturining asosiy saxifasi.

[MatLAB](#) dasturining asosiy oynasi ekranda hosil bo`lgandan so`ng, **Simulink** qism dasturini ishga tushirish kerak. Buni quyidagi uchta usuldan biri yordamida amalga oshirish mumkin:

- [MatLAB](#) dasturi asosiy saxifasining instrumentlar panelidagi **Simulink** tugmasi bosish orqali;
- [MatLAB](#) asosiy saxifasining buyruqlar qatoriga **simulink** buyrug`ini yozish va Enter klavishasini bosish orqali;
- **File** menyusidagi **Open...** punktini bajarib, modellar fayli (**.mdl**-fayl) ni ochish orqali.


Oxirgi variant tayyor modellar ustida xisoblash amallarini bajarish uchun qulay xisoblanadi, ammo bu usulda qo`shimcha bloklar kiritish mumkin emas. Birinchi va ikkinchi usullarni qo`llash natijasida **Simulink** kutubxonasi bo`limlari ochiladi (1.2 -rasm).




1.2.- rasm. **Simulink** kutubxonasi bo`limlari.

Model strukturasi tuzish.


Simulink muxitida model tuzish uchun quyidagi punktlar ketma – ketligini bajarish kerak:

1. [File/New/Model](#) buyrug`i yordamida yoki instrumentlar panelidagi  tugmani qo`llash yordamida yangi model faylini tuzish (bu erda va keyinchalik, «/» belgisi yordamida ketma-ket bajarish uchun tanlash lozim bo`lgan programma menyusi punktlari ko`rsatiladi). (1.3. -rasm)



1.3.- rasm. Model tuzish oynasi.

2. [Model oynasiga bloklarni qo`yish](#). Buning uchun mos keluvchi kutubxona bo`limini ochish kerak (Masalan, **Sources** – Istochniki). Keyin esa kursor bilan kerakli blok tanlanadi va sichqonchani chap tugmachasini bosib quyib yubormagan holda, blokni tuzilgan saxifaga «ko`chirib o`tkaziladi». 1.4-rasmda bloklardan tashkil topgan model saxifasi keltirilgan.




1.4- rasm. Bloklardan tashkil topgan model oynasi.

Blokni o`chirish uchun o`chirilishi lozim bo`lgan blok tanlanadi (kursor bilan uning rasmini ko`rsatish va sichqonchanning chap tugmachasini bosish orqali), so`ngra klaviaturadagi **Delete** klavishi bosiladi.


Blok o`lchamlarini o`zgartirish uchun o`zgartirilishi lozim bo`lgan blokni tanlash kerak, sichkoncha bilan blok burchaklaridan biri belgilanadi va chap tugmachasini bosgan xolda blok o`lchamlari o`zgartiriladi (bu holda kursor ikki tomonga qaragan strelka ko`rinishiga ega bo`ladi).

- Agar extiyoji bo`lsa, dastur tomonidan o`rnatilgan parametrlarni o`zgartirish mumkin. Buning uchun kursor yordamida tanlangan blokda sichqonchanning chap tugmachasini ikki marotaba bosish kerak. Natijada, ushbu blok parametrlarini taxrir qilish saxifasi ochiladi. Sonli parametrlarni kiritish jarayonida butun sonlar vergul bilan emas, balki nuqta bilan ajratilishini inobatga olish zarur. O`zgartirishlar kiritib bo`lgandan so`ng saxifani **OK** tugmachasini bosish orqali yopish kerak. 1.5- rasmda misol tariqasida uzatish funksiyasini modellashtiruvchi blok va ushbu blok parametrlarini taxrirlovchi saxifa ko`rinishi keltirilgan. Bu oynadagi **Numerator** qatoriga uzatish funksiyasini suratidagi ko`pxadni koeffisientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi. **Denominator** qatoriga uzatish funksiyasini maxrajidagi ko`pxadni koeffisientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi.



1.5.-rasm. Uzatish funksiyasi bloki va berilgan blok parametrlarini taxrirlash oynasi.

- [Bloklar o`rtasida bog`lanishlar bajarish.](#) Kutubxonadan kerakli barcha bloklarni sxemada joylashtirgandan so`ng sxema elementlarini bog`lashni bajarish zarur. Bloklarni bog`lash uchun kursor bilan blokning «chiqish»ini belgilash, so`ngra sichqonchanning chap tugmachasini bosgan holda chiziqni (liniyani) keyingi blok kirishiga keltirish kerak. Shundan so`nggina klavishani qo`yib yuborish mumkin. Tarmoqlanish nuqtasini xosil qilish uchun kursorni ulanish chizig`ida kerak bo`lgan tugunga olib kelish va sichqonchanning o`ng klavishasini bosgan xolda chiziqni tortish zarur. Chiziqni o`chirish uchun o`chirilishi lozim bo`lgan chiziqni tanlash talab etiladi (bloklar ustida bajarilgani kabi), so`ngra klaviaturadagi **Delete** klavishasini bosish lozim. 1.6- rasmda bloklar o`rtasida bog`lash amali bajarilgan model sxemasi keltrilgan.



1.6.-rasm. Bloklar o`rtasida bog`lanish bajarilgan model.

5. Xisoblash sxemasini tuzgandan so`ng uni oynadagi **File/Save As...** menyu punktini tanlab, xamda fayl nomi va papkani ko`rsatib, diskda fayl ko`rinishida saqlash lozim. Shuni inobatga olish kerakki, fayl nomi 32 simvoldan oshmasligi, xarfdan boshlanishi hamda kirill va maxsus simvollardan tashkil topmagan bo`lishi kerak. Shu talablar fayl yo`li uchun ham ahamiyatli (fayl saqlanadigan papkalarga). Sxemani qayta taxrirlash jarayonlarida saqlash uchun **File/Save** menyu punktidan foydalanish etarli. **Simulink** qism dasturini qayta ishga tushirganda sxemani yuklash kutubxona nazorat qiluvchi saxifadagi yoki [MatLAB](#) asosiy saxifasidagi **File/Open** menyu punkti yordamida amalga oshiriladi.

1.5. Ishni bajarish tartibi.

1. [MatLAB](#) dasturi ishga tushiriladi.
2. **Simulink** qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Yangi model fayli tuziladi.
4. Bibliotekadan talaba o`zining variantiga mos bloklarni model oynasiga joylashtiradi.
5. Bloklar orasidagi bog`lanishlar o`rnatiladi.
6. Blok parametrlari o`zgartiriladi.
7. Model fayli kerakli nom bilan saqlanadi.
8. Tuzilgan model strukturasi bosmaga chiqariladi.

1.6. Sinov savollari

1. Uzatish funksiyasini hamda nollari va qutblarini aniqlang.
2. Uzatish funksiyasini fizik amalga oshirish shartini ko`rsating.
3. Ketma-ket, parallel va teskari bog`langan zvenolarning uzatish funksiyasini hisoblash formulalarini keltiring.
4. Tugunlarni va summatorni elementlararo ko`chirish qoidalari.
5. Berk sistema uzatish funksiyasi va xatolik signalini hisoblash formulalarini keltiring va ta`rif baring.

2-Tajriba ishi.

Burchak tezlik o'zgartkichli-taxogeneratorning statik tavsifini tekshirish va uzatish koeffitsientini aniqlash.

2.1. Ishdan maqsad

O'tkinchi jarayonni qurish bilan tanishish. Tipik dinamik zvenolar va ularning o'tkinchi hamda impul'sli o'tkinchi jarayon xarakteristikalarini qurish.

2.2. Jixozlanish

IBM PC tipidagi shaxsiy EXM va [MatLAB](#) dasturi.

2.3. Masalaning qo'yilishi.



1. O'tkinchi jarayon xarakteristikalarini olish usullari va grafiklarini o'zgartirish imkoniyatlari bilan tanishish.
2. Tipik dinamik zvenolar vaqt xarakteristikalarini tadqiq qilish.

2.4. Nazariy qism.

Asosiy tipik kirish signallari:

- pog'onali signal (funksiya);
- impul'sli signal (funksiya);
- garmonik signal (funksiya).

Sistema (zveno)larning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasiga o'tkinchi jarayon yoki o'tish funksiyasi deyiladi va $h(t)$ bilan belgilanadi.



$$x = A \cdot 1(t); \quad A = \text{const};$$

$$1(t) = \begin{cases} 1, & \text{булса } t \geq 0 \\ 0, & \text{булса } t < 0 \end{cases}$$



$$L\{A \cdot 1(t)\} = A \frac{1}{p}$$

$t_{o'tk}$ – o'tkinchi jarayon davomiyligi – chiqish signali turg'unlashgunga bo'lgan vaqt.

$T = \tau$ – vaqt doimiysi.

$$\text{Bunda, } T = t \cdot h(t) = k(1 - 0,37) \cdot 1(t) = 0,63k.$$

Sistema (zveno)larning birlik impul'sli ta'sirga bo'lgan reaksiyasi impul'sli o'tkinchi jarayon yoki vazn funksiyasi deyiladi va $\omega(t)$ bilan belgilandi.



$$x(t) = A \cdot \delta(t); \quad A = \text{const};$$

$$\delta(t) = \begin{cases} 0, & \text{булса } t \geq 0 \\ \infty, & \text{булса } t = 0 \end{cases}$$

$$\int_0^{\infty} \delta(t) dt = 1.$$


$$A \rightarrow \infty; \quad \Delta t \rightarrow 0$$

O`kinchi va impul`sli o`tkinchi funksiyalar jarayonning vaqt xarakteristikalarini xosil qiladi – bu signal kattaligi o`zgarishning vaqtga bog`liqligidir.

Sistema (zveno) larning garmonik ta`sirga bo`lgan reaksiyasi chastotaviy xarakteristika deyiladi.

O`tkinchi jarayon quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Monoton;
2. Aperiodik;
3. Tebranuvchan.



Pog`onali ta`sirda rostlanish sifati quyidagi parametrlar bo`yicha aniqlanadi:

- t_p – rostlanish vaqti yoki o`tkinchi jarayon vaqti (yo`l qo`yilishi mumkin xatolik zonasi 2Δ ga o`tgungacha bo`lgan vaqt).

$$|h(t) - h_{\infty}(t)| \leq \Delta$$

- $\sigma\% = \frac{h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)}{h_{\max}(t)} \cdot 100\%$

Qayta rostlash o`rnatilgan qiymatdan o`tkinchi jarayon grafigining maksimal

og`ishini karakterlaydi; kichik va o`rta quvvatli sistemalar uchun yo`l qo`yilgan

qiymat

$$\sigma\% = (10 \div 20)\%$$


$$\sigma\% = (30 \div 40)\% \text{ -- yuqori quvvatli sistemalar uchun, } \sigma\% \text{ - odatda } 17\% \text{ dan ko`p}$$

emas.

- o`sib borish vaqti t_0 – o`rnatilgan qiymat bilan o`tkinchi jarayon egri chizig`i og`ishining birinchi kesishish nuqtasi absissasi;
- t_{\max} – birinchi maksimum qiymatga erishish vaqti;

- chastota va tebranish davri $\omega = \frac{2\pi}{T}; \quad T = \frac{2\pi}{\omega}$
- so`nish dekrementi o`tkinchi jarayonning so`nish tezligini xarakterlaydi.

$$\chi\% = \frac{|h_{\max}(t) - h_{\infty}(t)|}{|h_{\min}(t) - h_{\infty}(t)|} \cdot 100\%$$



Tipik dinamik zveno deb, tartibi ikkidan yuqori bo`lmagan differensial tenglamalar bilan ifodalanuvchi elementlar to`plamiga aytiladi.

1. Inersiyasiz (proporsional) zveno

$$y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = k;$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ k \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot 1(t).$$

2. Birinchi tartibli inersial zveno

$$T \frac{dy}{dt} + y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = \frac{k}{T \cdot p + 1};$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{1 + pT} \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot (1 - e^{-t/T}) \cdot 1(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = L^{-1} \{ W(p) \} = \frac{k}{T} e^{-t/T} \cdot 1'(t)$$

T – vaqt doimiysi;

k – uzatish koeffisienti.

3. Tebranuvchi zveno

$$T^2 \frac{d^2y}{dt^2} + 2dT \frac{dy}{dt} + y(t) = k \cdot x(t); \quad W(p) = \frac{k}{T^2 p^2 + 2dTp + 1};$$

0 < d < 1 – so`nish (darajasi) koeffisienti.

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{T^2 p + 2dT p + 1} \cdot \frac{1}{p} \right\} =$$

$$= k \cdot \left[1 - \frac{\sqrt{\alpha^2 + \beta^2}}{\beta} \cdot e^{-\alpha t} \cdot \sin(\beta \cdot t + \varphi_0) \right];$$

$$\text{Bunda: } \alpha = \frac{d}{T}, \quad \beta = \frac{\sqrt{1-d^2}}{T}, \quad \varphi_0 = \text{arctg} \frac{\sqrt{1-d^2}}{d};$$

$$\omega(t) = h'(t) = \frac{k(\alpha^2 + \beta^2)}{\beta} \cdot e^{-\alpha t} \cdot \sin \beta t.$$

4. Integrallovchi zveno

$$y(t) = k \int_0^t x(t) dt; \quad W(p) = \frac{k}{p};$$

$$h(t) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ \frac{k}{p} \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot t \cdot 1(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = k \cdot 1'(t)$$

5. ideal differensiallovchi zveno

$$y(t) = k \frac{dx}{dt}; \quad W(p) = kp;$$

$$h(p) = L^{-1} \left\{ W(p) \cdot \frac{1}{p} \right\} = L^{-1} \left\{ k \cdot p \cdot \frac{1}{p} \right\} = k \cdot \delta(t);$$

$$\omega(t) = h'(t) = k \cdot \delta'(t);$$


2.5. Ishni bajarish buyicha metodik kursatma.

[MatLAB](#) dasturi asosiy saxifasi ochilgandan keyin **Simulink** qism dasturini ishga tushirish kerak. Buning uchun 1 – tajriba ishida ko'rsatilgan uchta usulning biridan foydalanamiz.

Modelning o'tkinchi xarakteristikasini olish.

1. Sistemaning birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi **h(t)** – o'tish funksiyasini olish. Modelning kirishiga birlik pog'onali ta'sir xosil qilib beruvchi blok (**Step**) qo'yiladi va chiqishda shu funksiyaning grafiini ko'rsatuvchi (**Scope**) bloki qo'yiladi.
2. Sistemani ishga tushirish uchun **Simulink** saxifasi instrumentlar panelidagi (**Start**) tugmasi bosiladi. O'tkinchi jarayon grafigini ko'rish uchun esa **Scope** bloki ustiga kursor keltirilib, sichqonchanning chap tugmachasi ikki marta tez bosiladi.

[Yopiq sistema](#) o'tish funksiyasini olish uchun modelda teskari bog'lanish zanjiri amalga oshiriladi va ikkinchi punkt takrorlanadi (2.1-rasm).




2.1-rasm. Teskari bog'lanishli model sxemasi.

Sistemaning vazn funksiyasini olish.


Buning uchun **Simulink LTI-Viewer** qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **Simulink**-modeli sahifasida **Tools\Linear Analysis...** komandasini bajarilganda **Model_Inputs_and_Outputs** sahifasi hamda **Simulink LTI-Viewer** bo`sh sahifasi ochiladi (2.2-rasm).



2.2-rasm. **Simulink LTI-Viewer** bo`sh sahifasi.


2. [Sistema kirishiga Input Point bloki va chiqishiga Output Point blokini o`rnatiladi](#) (2.3-rasm).



2.3-rasm. **Input Point** bloki va **Output Point** bloki o`rnatilgan model.

3. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.

Bunda ekranda sistemaning birlik pogonali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika xosil buladi. Sitemaning vazn funksiyasini chikarish uchun **LTI Viewer** saxifasida sichkonchanning chap klavishasini bosiladi unda xarakteristikani uzgartirish darchasi paydo buladi. U erdan **Impulse** punkti tanlaniladi (2.4-rasm).



2.4-rasm.. LTI Viewer sahifasi.

2.6. Ishni bajarish tartibi.

1. MatLAB dasturi ishga tushiriladi.
2. Simulink qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant bo`yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemani o`tkinchi jarayon xarakteristikasini olish uchun **Scope** bloki ochiladi so`ngra instrumentlar panelidagi **Start** tugmachasi bosiladi.
5. Sistemaning impul`sli signalga bo`lgan reaksiyasini olish uchun **Simulink LTI-Viewer** sahifasi ochiladi.
6. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o`rnatiladi.
7. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.
8. Hosil bo`lgan oynada sichqoncha yordamida **Impulse** punkti tanlaniladi.
9. Modelning parametrlarini o`zgartiriladi va o`zgartirilgan model xarakteristikalarini olinib oldingi olingan xarakteristikalar bilan solishtirilib analiz qilinadi.
10. Xarakteristikalar bosmaga chiqariladi.

2.7. Sinov savollari.

1. O`tkinchi va impulsi o`tkinchi funksiyalar.
2. Quyidagi zvenolar uchun vaqt xarakteristikalarini keltiring:
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno
 - Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno
3. Quyidagi zvenolarda vaqt xarakteristikalar manfiy birlik teskari aloqa ta`sirida qanday o`zgaradi.
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno

- Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno
4. Kiritilgan uzatish funksiyalar parametrlarini o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?

3-Tajriba ishi.

Induktiv o'zgartkichlarni uchta (to'g'ridan-to'g'ri, ko'prik va differensial elektr) ulash sxemalari bo'yicha statik tavsifini tekshirish va uzatish koeffitsientini aniqlash.

3.1. Ishdan maqsad

Amplituda va faza chastotaviy xarakteristikalarini qurish. Amplituda va faza chastotaviy xarakteristikalar va ularning bog'liqligini tadqiq etish. Chastotaviy xarakteristikalarini xisoblash, ularni qurish va tahlil qilish.

3.2. Jixozlanish

IBM PC tipidagi shaxsiy EXM va [MatLAB](#) dasturi.

3.3. Masalaning qo'yilishi.

1. Dasturning chastotaviy xarakteristikalarini qurish imkoniyatlari bilan tanishish.
2. **Simulink LTI-Viewer** qism dasturi yordamida chastotaviy xarakteristikalarini qurish.
3. Tipik dinamik zvenolarning chastotaviy xarakteristikalarini tadqiq etish.

3.4. Nazariy qism.

$W(p)$ uzatish funksiyasidan $p=j\omega$ almashtirish yo'li bilan chastotaviy uzatish funksiyasi $W(j\omega)$ olishimiz mumkin.

Chastotaviy uzatish funksiya yoki kompleks kattalikli funksiya $W(j\omega)$ haqiqiy o'zgaruvchi ω ga bog'liq, tarkibi haqiqiy $U(\omega)$ va mavhum $V(\omega)$ qismlardan iboratdir.

$$W(j\omega) = U(\omega) + jV(\omega) \text{ -- algebraik ko'rinishi.}$$

$$W(j\omega) = A(\omega)e^{j\varphi(\omega)} \text{ -- darajali ko'rinishi.}$$

bu erda $A(\omega)$ –amplituda chastotaviy xarakteristika (AFX) yoki Chastotaviy uzatish funksiyasining moduli.

$\varphi(\omega)$ - signal fazasi

$$A(\omega) = \sqrt{U^2(\omega) + V^2(\omega)}$$

$$\varphi(\omega) = \arctg \frac{V(\omega)}{U(\omega)}$$

Amplituda fazaviy xarakteristika (AFX) – chastota 0 dan ∞ gacha o'zgarganda chastotaviy uzatish funksiya moduli godografi yoki chastotaviy uzatish funksiyasi fazalarining kompleks tekisligidagi chastotaga bog'liqlik grafigidir.

$$A(\omega) = \text{mod} W(j\omega) = \frac{A_{\text{yuk}}(\omega)}{A_{\text{kup}}(\omega)} \text{ -modul}$$

Chastotaviy uzatish funksiyasining yuqoridagi 2 ta yozilish formasidan quyidagi xarakteristikalarini keltirishimiz mumkin:

- $W(j\omega)$ – AFX-amplituda-fazaviy xarakteristika;


- $A(\omega)$ – AChX- amplituda-chastotaviy xarakteristika;
- $\varphi(\omega)$ – FChX- faza-chastotaviy xarakteristika;
- $U(j\omega)$ – HChX- haqiqiy-chastotaviy xarakteristika;
- $V(j\omega)$ – MChX- mavhum-chastotaviy xarakteristika;
- $L(j\omega)$ – logarifmik amplituda-chastotaviy xarakteristika

$$L(\omega) = 20 \lg A(\omega)$$

Rostlash jarayonining turg'unligi masalasini tadqiq etishda chastotaviy xarakteristikalar muhim rol o'ynaydi.

3.5. Ishni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma

Simulink LTI-Viewer instrumenti **Control System Toolbox** amaliy dasturi tarkibiga kiradi va chiziqli avtomatik sistemalarni analiz qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu instrument yordamida tadqiq qilinayotgan sistemaning chastotaviy xarakteristikalarini oson qurish mumkin.



3.4-rasm. **Plot Configuration** sahifasi

Sistemaning chastotaviy xarakteristikalarini olish uchun 2-tajriba ishidagi **Simulink LTI-Viewer** bilan ishlash ketma-ketligi bajarilib, **LTI Viewer** sahifasidagi **Edit\Plot Configuration...** komandasini bajarish kerak. Bu komandani bajarish natijasida **Plot Configuration** sahifasi ochiladi (3.4-rasm).

Ochilgan sahifada aks etuvchi grafiklar sonini (**Select a response plot configuration** panelida) va turlari (**Response type** panelida) tanlashimiz mumkin.

Quyidagi grafik (diagramma)larni qurish mumkin.

- **step** – birlik pog'onali ta'sirga bo'lgan reaksiyasi;
- **impulse** – birlik impulsli ta'sirga bo'lgan reaksiyasi;
- **bode** – logarifmik amplituda va faza chastotaviy xarakteristika;
- **bode mag** -- logarifmik amplituda chastotaviy xarakteristika;
- **nyquist** – Naykvist diagrammasi;
- **nichols** – Nikols godografi;
- **sigma** – Singulyar soni;
- **pole/zero** – sistemaning qutb va nollari.

3.6. Ishni bajarish tartibi.

1. **MatLAB** dasturi ishga tushiriladi.

2. **Simulink** qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant bo`yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemaning chastotaviy xarakteristikalarini qurish uchun **Simulink LTI-Viewer** sahifasi ochiladi.
5. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o`rnatiladi.
6. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.
7. **LTI Viewer** sahifasidagi **Edit\Plot Configuration...** komandasini bajariladi.
8. Hosil bo`lgan oynadan kerakli xarakteristikalar tanlanadi.
9. Model parametrlarini o`zgartiriladi va qaytadan xarakteristikalar olinib avvalgi xarakteristikalar bilan solishtirilib o`rganiladi.
10. Natijalar bosmaga chiqariladi.

3.7. Sinov savollari.

1. Chastotaviy xarakteristikalarini gapirib bering (AFX, FChX, AChX).
1. Quyidagi zvenolar uchun chastotaviy xarakteristikalarini keltiring:
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno
 - Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno
2. Quyidagi zvenolarda chastotaviy xarakteristikalar manfiy birlik teskari aloqa ta`sirida qanday o`zgaradi.
 - Aperiodik zveno
 - Tebranuvchi zveno
 - Integrallovchi zveno
 - Differensiallovchi zveno

4-Tajriba ishi.

Chiziqli va burchakli rezistorli o`zgartkichlaning statik tavsiflarini tekshirish va uzatish koeffitsientlarini aniqlash.

4.1. Ishdan maksad.

Avtomatik boshqarish sistemalarida turg`unlik masalarini echish, turg`unlik shartlari va mezonlarini o`rganish. [MatLAB](#) dasturi yordamida sistemaning turg`unligini tekshirish.

4.2. Jixozlanish

IBM PC tipidagi shaxsiy EXM va [MatLAB](#) dasturi.

4.3. Masalaning kuyilishi.

1. Dinamik sistemalarning turg'unligini aniqlash mezonlari bilan tanishish.
2. Sistemaning turg'unligini Naykvist mezonini bo'yicha aniqlash.

4.4. Nazarish kism.

Turg'unlikning Naykvist mezonini ochiq sistemaning amplituda faza xarakteristikasi (AFX) buyicha berk sistemaning turg'unligini tekshirish imkonini beradi. Ochiq sistemaning AFX sini esa analitik, xamda esperimental yo'l bilan olish mumkin.

Turg'unlikning bu mezonini aniq ravshan fizik ma'noga ega, ya'ni bu mezon ochiq sistemaning stasionar chastotali xususiyatlarini berk sistemaning nostasionar xususiyatlari bilan bog'laydi. Ochiq sistemaning uzatish funksiyasi $W(p)=P(p)/Q(p)$ berilgan bo'lsin. Bu vrda: $Q(p)$ - ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi. Berk sistemaning uzatish funksiyasi:

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{P(p)}{Q(p)}}{1+\frac{P(p)}{Q(p)}} = \frac{P(p)}{Q(p)+P(p)},$$

$$A(p) = 1+W(p) = 1+\frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{Q(p)+P(p)}{Q(p)} \quad \text{-- berk sistemaning xarakteristik tenglamasi.}$$

$Q(p)+P(p)$ - berk sistemaning xarakteristik polinomini ifodalaydi.

$Q(p)$ - polinomi "n" darajaga ega.

$R(p)$ - polinomi "m" darajaga ega.

Sistemani ishga tushirish uchun doimo $m < n$ bo'lishi kerak. Shuning uchun $[Q(p)+R(p)]$ polinomi ham "n" darajaga ega bo'ladi. Ochiq sistemaning o'zi turg'un va noturg'un holatda bo'lishi mumkin. Biz mana shu ikki holatda berk sistemaning turg'unligini tekshirib ko'ramiz.

Ochiq sistema turg'un holatda.

Xarakteristik tenglamaning o'ng ildizlar soni $l=0$ Mixaylov mezoniga muvofiq ochik sistema xarakteristik tenglamasi argumentining o'zgarishi:

$$\Delta \arg Q(j\omega) - n \frac{\pi}{2}$$

$0 < \omega < \infty$

Endi berk sistema turg'un bo'lishini talab etamiz. Unda quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2}$$

$0 < \omega < \infty$


(4.1) ifodaga muvofiq berk sistema xarakteristik tenglamasining argument o'zgarishi:

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - n \frac{\pi}{2} = 0$$

$0 < \omega < \infty$

Shunday qilib, berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota. $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $A(j\omega)$ vektorning koordinata o'qi atrofidagi burchak burilishi (argument o'zgarishi) nolga teng bo'lish kerak, yoki chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda berk sistema AFX $A(j\omega)$

koordinata boshini, ya'ni (0;0) nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak. $A(j\omega)=1+W(j\omega)$ godografining ko'rinishi 4.1-rasmida ko'rsatilgan.




I-berk sistema turg'un.
II-berk sistema noturg'un.

4.1-rasm.

Lekin berk sistemaning AFX $A(j\omega)=1+W(j\omega)$ ochik sistemaning AFX $W(j\omega)$ dan faqat «+1»gagina farq qiladi.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan Naykvist mezonining ta'rifini ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ ga tadbiq etganimizda Naykvist mezonini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda (-1;j0) kritik nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak. (4.2-rasi).



I-berk sistema turg'un.
II-berk sistema noturg'un.

4.2-rasm.

Ochiq sistema noturg'un.

Bunda ochiq sistema xarakteristik tenglamasi l o'ng ildizga ega ya'ni $l \neq 0$, unda argumentlar prinsipiga muvofiq.

$$\Delta \arg Q(j\omega) = (n - 2l) \frac{\pi}{2} \quad 0 < \omega < \infty$$

bo'ladi.

Agar sistemaning turg'un bo'lishini talab etsak, unda quyidagi shart bajarilish kerak:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2} \quad 0 < \omega < \infty$$


u holda $A(j\omega)=1+W(j\omega)$ vektorining argument o'zgarishi

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - (n - 2l) \frac{\pi}{2} = l\pi \quad 0 < \omega < \infty$$

bo'ladi, ya'ni $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'zining boshi atrofida summar burchak burilishi turg'un berk sistema uchun « $l\pi$ » ga teng bo'lishi lozim.

Bundan Naykvist mezonining quyidagi ta'rifi kelib chiqadi.

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ kritik nuqta $(-1; j0)$ ni $l/2$ marta o'z ichiga olishi kerak; bunda l -ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni (4.3-rasm).




4.3-rasm

$W(j\omega)$ godografi $(-1; j0)$ nuqtani bir marta o'z ichiga olayapti. Shuning uchun bunda ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l=2$, chunki $l/2=1 \Rightarrow l=2$. Demak ochiq sistema o'ng ildizlar soni $l=2$ bo'lganda berk sistema turg'un bo'ladi. $l \neq 2$ bo'lsa, berk sistema ham noturg'un bo'ladi.

Amaliy masalalarni echishda Ya. 3. Sipkin taklif etgan "o'tish qoidasini" qo'llash maqsadga muvofiqdir.

$W(j\omega)$ xarakteristikani o'tish deganda shu xarakteristikaning kompleks tekisligida manfiy haqiqiy o'qni $(-1; j0)$ nuqtaning chap toponida, ya'ni $(-\infty; -1)$ kesmada kesib o'tishi nazarda tutiladi.

Agar $W(j\omega)$ xarakteristikasi kritik nuqta $(-1; j0)$ ning chap tomonini, ya'ni $(-\infty; -1)$ kesmani chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda pastdan yuqoriga kesib o'tsa, musbat o'tish yuqoridan pasga kesib o'tsa, manfiy o'tish deyiladi (4.4-rasm).




4.4-rasm.

Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olgan xolda Naykvist mezoniii quyidagicha ta'riflash mumkin.

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistema AFX $W(j\omega)$ ning chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda $(-\infty; -1)$ kesma orqali musbat va manfiy o'tishlarining ayirmasi $l/2$ ga teng bo'lishi kerak. Bunda l -ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni.

Agar $W(j\omega)$ xarakteristikasi $\omega = 0$ bo'lganda $(-\infty; -1)$ kesmada boshlansa, yoki $\omega = \infty$ bo'lganda shu kesmada tugasa, unda $W(j\omega)$ xarakteristikaning bu kesmadan o'tishini yarim o'tish deyiladi. (4.5-rasm).




4.5-rasm.

Statik ochiq sistemalarning xarakteristikalari chastota o'zgarganda yopik kontur xosil kiladi.

Ideal integrallovchi eavnosi bo'lgan astatik ochiq sistemalarning $W(j\omega)$ xarakteristikalari chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda yopik kontur hosil qilmaydi.


4.5. Ishni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma.

Sistemalarning turgunligini Naykvist mezoni buyicha tekshirganimizda kerakli sistema modeli struktura sxemasi ochiladi yoki tuziladi. So'ngra 3-tajriba ishida ko'rsatilganidek **Simulink**-modeli sahifasida **Tools\Linear Analysis...** punkti orqali sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** bloki o'rnatiladi. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi. Bunda ekranda sistemaning birlik pogonali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristikasi hosil buladi. Sistemaning Naykvist diagrammasini chikarish uchun **LTI Viewer** saxifasida sichkonchanning chap tugmachasi bosiladi unda xarakteristikani o'zgartirish oynasi hosil bo'ladi.(4.6-rasm.)



4.6-rasm.

U erdan **nyquist** punktini tanlanaladi va Naykvist diagrammasi olinadi (4.7-rasm).



4.7-rasm.

4.6. Ishni bajarish tartibi.


1. **MatLAB** dasturi ishga tushiriladi.

2. **Simulink** qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant bo`yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemaning chastotaviy xarakteristikalarini qurish uchun **Simulink LTI-Viewer** sahifasi ochiladi.
5. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o`rnatiladi.
6. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.
7. **LTI Viewer** sahifasida sichkonchani chap tugmachasi bosiladi va undan Naykvist diagrammasi tanlaniladi.
8. Model parametrlarini o`zgartiriladi va o`zgartirilgan modeldan Naykvist diagrammasi olinib avvalgisi bilan taqqoslanadi.
9. Diagramma bosmaga chiqariladi.
10. Qurilgan diagrammadan sistemaning turg`unligi tekshiriladi.

4.7. Sinov savollari.

1. Dinamik sistemalarning turg`unligi.
2. Turg`unlikning Gurvis mezonlari.
3. Turg`unlikning chastotaviy mezonlari.
4. Turg`unlikning Naykvist mezonlari.
 - Ochiq sistema turg`un holatda.
 - Ochiq sistema noturg`un holatda.

Variantlar:



№	Uzatish funksiyalari										
	1-tartibli inersial zveno		Intergallovchi zveno	Proporsio-nal zveno	Tebranuvchi zveno			Differensiallovchi zveno	1-tartibli inersial zveno		Proporsio-nal zveno
	K	T	K	K	K	d	T	K	K	T	K
1	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	0	0	1	9	1	0,2	0,3	3	2	10	1
2	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	1	0,1	0	10	2	0,1	0,6	4	22	7	19
3	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	2	0,5	2	0	4	0,8	2	2	18	0,7	3
4	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	14	10	3	11	0	0	0	1	1	0,2	5
5	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	5	0,9	1	18	3	0,5	1	0	2	0,2	3
6	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	2	1	4	17	5	0,9	2	6	0	0	5
7	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	8	0,4	3	22	2	0,7	3	3	8	9	0
8	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	5	2	0	4	0,4	0,9	4	7	7	10
9	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	10	8	0	30	6	0,3	1,3	7	9	5	30
10	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	0	0	5	1	1	0,6	0,8	2	14	10	26
11	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	22	9	0	2	3	0,1	2,5	6	11	9	22
12	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	24	7	1	0	7	0,55	3	5	15	3	20
13	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	15	6	2	6	0	0	0	4	19	7	19
14	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	30	4	4	8	6	0,15	2	0	10	5	11
15	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	7	3	5	7	5	0,8	1	2	0	0	0,8
16	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	2	3	9	4	0,65	2,9	7	24	0,8	0
17	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	3	5	2	14	3	0,3	4	0	26	8	21
18	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	4	0,2	4	0	8	0,5	2	1	29	8	17
19	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	26	10	0	11	1	0,63	0,7	5	30	2	12
20	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	19	0,8	3	15	2	0,7	0,7	4	0	0	16

5-Tajriba ishi.

Elektromagnit relening statik tavsifini tekshirish, asosiy elektrli va vaqt parametrlarini aniqlash.

Ishning maqsadi: imitatsion modellashtirish usulini qo'llash orqali EHMda model tuzish va tasodifiy jarayonning taqsimot funksiyasini qurish.

1.Nazariy qism

Model qurish va ularni tadbiiq qilishda statistik tajribalar usuli juda keng qo'llaniladi. Bu usul tasodifiy sonlarni rostdlashga asoslangan usul, ya'ni bu usulda tasodifiy kattaliklar extimolini taqsimot qiymatlari beriladi. Statistik modellashtirish deganda EHM yordamida modellashtirilayotgan sistemada borayotgan jarayonlarni statik ma'lumotlar olishni tushuniladi. Statistik modellashtirish yordamida tekshirilayotgan sistema ishlash jarayonida modellashtiruvchi algoritmi barcha tasodifiy ta'sirlar va barcha ta'sirlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda tuziladi. Statistik modellashtirish usuli birinchidan stoxastik sistemalar va ikkinchidan detirmenik masalalarni yechishda ko'proq qo'llaniladi.

Tasodifiy kattalik deb tajribalar natijasida oldindan ma'lum bo'lmagan qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin bo'lgan kattalikka aytiladi. Tasodifiy kattaliklar diskret (alohida qiymatlar qabul qiluvchi) va muntazam kattaliklarga bo'linadi.

Tasodifiy kattalikning o'rta qiymati tajriba vaqtida olingan barcha natijalarning oddiy o'rta qiymatidan iborat. Diskret tasodifiy kattalik x m_1 tajribada x_1 va m_2 tajribada x_2 qiymatlarni qabul qilayotgan bo'lsin.

U holda

$$\bar{x}_n = \frac{x_1 m_1 + x_2 m_2 + \dots + x_r m_r}{m_1 + m_2 + \dots + m_r} = \frac{\sum_{i=1}^r x_i m_i}{n}$$

Bu yerda $n = \sum_{i=1}^r m_i$ - o'tkazilgan tajribalarning umumiy soni.

Ushbu tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\bar{x}_n = x_1 \frac{m_1}{n} + x_2 \frac{m_2}{n} + \dots + x_r \frac{m_r}{n} = \sum_{i=1}^r x_i P_i^*$$

Bu yerda $P_i^* = \frac{m_i}{n}$ - tasodifiy kattalik x ning statistik ehtimoli.

Agar $n \rightarrow \infty$ bo'lsa $P_i^* \rightarrow P_i$ bo'ladi.

Ehtimollar nazariyasida matematik kutilish tushunchasi juda kata o'rin egallaydi. Tasodifiy kattalikning matematik kutilishi quyidagicha izlanadi.


$$\langle x \rangle \bar{x} = \sum_{i=1}^r x_i \cdot p_i$$

Tasodifiy kattalikning mumkin bo'lgan umumiy qonunlarini ko'rib chiqamiz.

Normal taqsimot.

$$P(x_1 < x < x_2) = F\left(\frac{x_2 - \mu}{\sigma}\right) - F\left(\frac{x_1 - \mu}{\sigma}\right) = F(z_2) - F(z_1)$$

Ushbu ehtimollikning grafik ko'rinishi quyidagicha



2. Amaliy qism.

Masalaning quyilishi:

Biror stoxastik xarakterga ega bo'lgan v_r sistema mavjud bo'lsin. Bu sistema quyidagi kattaliklar yoki quyidagi munoabatlar bilan ifodalansin:

Kirish signali: $x = 1 - e^{-\lambda}$. Bu sistema quyidagi ifodalangan tasodifiy kattalik $v = 1 - e^{-\varphi}$ ta'sir qilmoqda. Bu yerda λ va φ tasodifiy kattaliklar va ularni taqsimot reaksiyasi ma'lum deb hisoblaymiz.

Modellashtirishdan maqsad chiqish signali u ning matematik ko'rinishni aniqlash $M[y]$. Eng sodda holda matematik kutilishning baxo funksiyasini quyidagicha topishimiz mumkin: $\bar{y} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N y_i$; Bu yerda y_i y ning tasodifiy qiymati; N – tajribalar soni.

Shuningdek chiqish funksiyasi va kirish hamda g'alayonlar orasida quyidagi bog'liqlik mavjud: $y = \sqrt{x^2 + v^2}$.

Ushbu hol uchun v_r sistemaning strukturali sxemasini keltiramiz.

B_1 va B_2 – hisoblagich,


$$x_i = 1 - e^{-\lambda};$$

$$v_i = 1 - e^{-\varphi};$$

$$x_i^2 = (1 - e^{-\lambda})^2; = h_i'$$


$$v_i^2 = (1 - e^{-\varphi})^2; = h_i''$$

$$h_i = h'_i + h''_i \Rightarrow y_i = \sqrt{h_i} = \sqrt{(1 - e^{-\lambda})^2 + (1 - e^{-\varphi})^2}.$$



1-rasm. Strukturaviy sxema.

S_R sistemasini modellashtiruvchi algoritm ko‘rinishi quyida keltirilgan (2 - rasm).



БМК – бошлангич маълумотлар киритиши;
 ГЕН – генератор;
 МНБ – математик натижаларни берилиши.

3. Ishni bajarish tartibi:

2 – расм.

- 1) keltirilgan blok sxema asosida berilgan masala uchun programma tuzilsin;

- 2) talaba reyting daftarchasining oxirgi ikki raqamining birinchisi λ va ikkinchisi φ ning qiymati deb olinsin;
- 3) berilgan qiymatlarni dasturga kiritish orqali tasodifiy jarayonning grafigini olinsin;
- 4) olingan grafikdan foydalanib ush bu tasodifiy jarayon uchun taqsimot funksiyasini aniqlansin;
- 5) olingan natijalar asosida laboratoriya ishi uchun hisobot tayyorlasin.

4. Tekshirish uchun savollar.


- 1) Laboratoriya ishining maqsadi nimadan iborat?
- 2) Statistik modellashtirishning mohiyatini tushuntiring?
- 3) Immitatsion model nima va uning bosqichlari?
- 4) Tasodifiy jarayonning taqsimot qonuni deganda nimani tushunasiz va u qanday quriladi?

6-Tajriba ishi.

Namunaviy dinamik zvenolarning modelini, o'tish tavsiflarini tekshirish va uzatish koeffitsetnlarini aniqlash.

Ishning maqsadi: Ikkita eksponenta yig'indisi ko'rinishida tezlanish egri chizig'ini approksimatsiyalash va obyektning uzatish funksiyasini topish.

1. Nazariy qism.



Sistemaning uzatish funksiyasi deb sistemaning boshlang'ich shartlardagi chiqish signali Laplas almashtirilishining kirish signali Laplas almashtirilishiga nisbatiga aytiladi.

$$W(P) = \frac{Y(P)}{X(P)}$$

Bu yerda $P = \frac{d}{dt}$ operator bo'lib differensiallash operatsiyasini bajaradi.



Agar sistema bir necha kirishga ega bo'lsa ulardan biriga nisbatan uzatish funksiyasini aniqlash uchun boshqa kirish signallari o'zgarmas deb hisoblanadi.

$$a_0 y^n(t) + a_1 y^{n-1}(t) + \dots + a_n = kx(t) \quad x(p) = \int_{-J}^J x(t) e^{-pt} dt$$

Laplas almashtirilishi haqiqiy o'zgaruvchi t dan kompleks soha o'zgaruvchisi $p = j\omega$ ga o'tish uchun kerak. Bu esa hisoblash ishlarini soddalashtirish va sistemani chastota sohasida tekshirish uchun kerak.


Boshqarish sistemalarining muhim xarakteristikalarini sifatida o'tish va impulsli o'tish funksiyalari va ularning grafiklarida vaqt xarakteristikalarini keltirish mumkin.

Sistemaning o'tish funksiyasi deb sistemaning kirishiga bir pog'onali birlik signal berilganda chiqish signalining o'zlarishini ifodalovchi funksiyaga aytiladi.



$$1(t) = \begin{cases} 1 & \text{при } t \geq 0 \\ 0 & \text{при } t < 0 \end{cases}$$




Bir pog'onali ta'sir



h(t) o'tish funksiyasi

O'tish funksiyasi odatda $h(t)$ orqali belgilanadi va bu funksiya sistemaning bir pog'onali tasiriga nol bo'lgan boshlang'ich shartlarda reaksiyasini tavsiflaydi va o'tish funksiyasini grafigi deb yuritiladi.

Impuls o'tish yoki vazn funksiyasi deb sistemaning birlik impuls tasiriga nisbatan nol bo'lgan shartdagi ko'rsatadigan reaksiyasiga aytiladi.



$$\delta(t) = \begin{cases} \infty & \text{при } t = 0 \\ 0 & \text{при } t \neq 0 \end{cases}$$

Fizik jixatdan birlik impulsni juda tor birlik maydonni chegaralovchi impuls sifatida qarash mumkin. Matematik nuqtaiy nazardan $\delta(t)$ funksiya bilan tavsiflanadi.

$\delta(t)$ uchun darak sharti ko'rsatiladi

$$\int_{-s}^s \delta(t) dt = 1$$

2. Amaliy qism.

Tezlanish egri chizig'ini olish bo'yicha tajribalar barqaror rejimda, talab qilingan kanal bo'yicha 0,2-0,3 K_{nom} kattalikdagi pog'onali g'alayonni berish yo'li bilan o'tkaziladi. Tajriba 0,98 Y_{bar} gacha aniqlikda yangi barqaror holat o'rnatilguncha o'tkaziladi.

Egri chiziqqa sof kechikish qismi ajratiladi – T_0 . Koordinata boshi o'ngga T_0 ga va tepaga Y_{nom} ga suriladi. Yangi koordinatalar – $h(t)$ va t da ma'lumotlar jadvali tuziladi. $H(\infty)$ aniqlanadi.

Tezlanish egri chizig'i ikkita eksponenta yig'indisi bo'yicha approksimatsiyalanadi

$$h(t) = C_0 + C_1 e^{-\lambda_1 t} + C_2 e^{-\lambda_2 t}$$

Buning uchun quyidagi minimallashtirish masalasi yechiladi


$$R(\lambda_1, \lambda_2) = \sum_{i=1}^n (h_{\text{экс}}(t_i) - h(t_i))^2 \rightarrow \min$$

bunda qo'yidagi cheklanish hisobga olinadi:

$$\begin{cases} C_0 + C_1 + C_2 = 0 \\ C_1 + C_2 \lambda = 0 \\ C_0 = h(\infty) \end{cases}$$

Tenglamalardan S_1 va S_2 chiqarib tashlanadi va masala ikki o'zgaruvchili funksiyaning shartsiz minimumini qidirishga aylanadi.

Optimizatsiya masalasi koordinata bo'yicha tushish usuli yordamida yechiladi. Bu kattalik $f(x)$ - birlik pog'onali funksiya deb belgilanadi.



Rostlash obyekti $W(p)$ uzatish funksiyasi va $h(t)$ uzatish funksiyasi egri chizig'i o'zaro quydagicha bog'langan.

$$h(t) = L^{-1}\{W(p)/p\}$$

bu yerda L^{-1} sistema Laplas teskari almashtirish belgisi.

3. Ishni bajarish tartibi.

1. Programma bibliotekasidan «MOSU1.BAS» programmasi o'qiladi, yoki studentlar tomonidan tuzilgan programma kiritiladi.
2. Programma tekstida qayd etilgan, instruksiyaga mos keladigan, boshlang'ich ma'lumotlar kiritiladi.
3. EHM bilan muloqat rejimida minimum qidiriladi.
4. Agar tuzatma koeffitsentlarning joriy qiymatidan 3-5% kichik bo'lsa, qidirish tugatiladi.
5. Ohirgi hisob-kitob natijasi va programma teksti pechatlash qurilmasiga chiqariladi.
6. Eksperimental va approksimatsiyalangan tezlanish egri chizig'i quriladi.
7. Rostlash obyektining uzatish funksiyasi aniqlanadi

$$W(p) = \frac{K}{(T_1 p + 1)(T_2 p + 1)} \cdot e^{-pT_0}$$

Bu yerda k - S_0 ning alayon kattaligiga nisbati $T_1 = \frac{1}{\lambda_1}$, $T_2 = \frac{1}{\lambda_2}$

4. Tekshirish uchun savollar.

- 1) Faol va passiv tajribalarga ta'rif bering.

- 2) Uzatish funksiyasi deganda nimani tshunasiz va u qanday aniqlanadi?
- 3) Obyektning o'tish xarakteristikasini olish uchun qanday tajriba olib borishimiz lozim?
- 4) Obyektning dinamik xarakteristikalari qanday aniqlanadi?
- 5) Approksimatsiyaning qanday usullarini bilasiz?

7-Tajriba ishi.

Teskari aloqali aylana taransformatorli o'zgartkichli kuzatuvchi avtomatik tizimni strukturasi, ishlash prinsini o'rganish va harakat tavsifining tahlili.

Ishning maqsadi: texnologik obyektlarning modelini ortogonal reja asosida metodik qurish bilan tanishish.

1.Nazariy qism.

Texnologik rejalarini jarayonning chiqish parametrlariga ta'sirini ko'rsatuvchi $y=f(x)$ bog'lanish bahosini aktiv tajribada x faktorni qanday o'zgartirish yo'li bilan o'zgarishlarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Odatda aktiv tajribada x_0 (nol) nuqtasi berilgan bog'lanishni olish kerak bo'lgan faktorli fazoga joylashtiriladi. Soddaroq bo'lish uchun tajribani rejalashtirish nazariyasida tajriba hajmini osonlikcha hisoblab beruvchi rejalar belgilari kiritilgan. Xususan, rejalar ma'lum kategoriyalar bo'yicha belgilash kiritiladi.

$$N=m^k \quad (1)$$

bu yerda N – tajribalar soni; k – faktorlar soni; m –faktorlar o'zgarayotgan sathlar soni.

Birinchi darajali rejalarda faktorlar 2-sathda o'zgarganligi uchun, ya'ni $m=2$ bo'lganda (1) chi tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$N=2^k \quad (2)$$

2 chi tenglama orqali ifodalangan va hamma sathlarning barcha kombinatsiyalarini o‘z ichiga kamrab olgan rejalar to‘la faktorli rejalar deyiladi.

To‘la faktorli tajribalar rejaları 3 asosiy xususiyatga ega:

$$1) \sum_{i=1}^N x_{ij} = 0; \quad j = \overline{1, k} \quad \text{Simmetriya xususiyati}$$

$$2) \sum_{i=1}^N x_{ij} = N; \quad j = \overline{1, k} \quad \text{Normallashtirish xossasi}$$

$$3) \sum_{\substack{i=1 \\ j>l}}^N x_{cj} \cdot x_{il} = 0; \quad j, l = \overline{1, k} \quad \text{Ortoganallik xossasi}$$

Ushbu xossalar yordamida tajribalar sonini ancha kamaytirish imkoniyatiga shuningdek, tajribani soddalashtirish va tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Ikki faktor ortoganalligi deganda ular orasida umuman bog‘liqlik yo‘qligi tushuniladi. Agar biror bir faktor muhim ahamiyatga ega bo‘lmasa, bunday faktor tenglamadan olib tashlanadi va bu boshqa parametrlarga ta’sir qilmaydi.

2. Amaliy qism.

Birinchi tartibli, 3 faktorli ($K=3$) modelni (2^3 reja asosida) kurish kerak bo‘lsin:

$$\hat{y} = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3$$

Quyidagi jadvalda reja matritsasi, tajriba va tahlil natijalari keltirilgan. Faraz qilaylik tajriba jarayonida u_{i1} va y_{i2} parallel tajribalar o‘tkazilgan.

№	x_1	x_2	x_3	y_{i1}	y_{i2}	\bar{y}_i	τ_i^2	\hat{y}	$(\bar{y}_i - \hat{y}_i)^2$
1.	-	+	-	y_{11}	y_{12}				
2.	+	+	-	y_{21}	y_{22}				
3.	+	+	+	y_{31}	y_{32}				
4.	-	-	+	y_{41}	y_{42}				
5.	-	+	-	y_{51}	y_{52}				
6.	+	-	-	y_{61}	y_{62}				

7.	+	-	+	y_{71}	y_{72}				
8.	+	-	+	y_{81}	y_{82}				

Model qurishni javob funksiyasining o'rtacha qiymatlarini topishdan boshlaymiz.

$$\bar{y}_i = \frac{1}{M} \sum_i y_i \ell \quad \text{Bu yerda } m \text{ parallel tajribalar soni.}$$

Tajribaning har bir nuqtasida dispersiyalarni topamiz:

$$S_i^2 = \frac{\sum_{u=1}^m (y_{iu} - \bar{y}_i)^2}{m-1}$$

va dispersiyalar yig'indisini hisoblaymiz

$$\sum_{i=1}^N S_i^2 .$$

Keyingi bosqichda quyidagi nisbat tuziladi:

$$G = \frac{\tau_{\max}^2}{\sum_{i=1}^N \tau_i^2}$$

Agar dispersiyalar birjinsli bo'lsa, $G_{\max} < G_p(N, m-1)$ (bu yerda $G_p(N, m-1)$ jadvalda keltirilgan Koxren mezonining qiymatlari) qayta tiklanish dispersiyasi hisoblanadi:

$$S_{\hat{\sigma}\hat{\sigma}}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N S_i^2}{N}$$

Modelning regressiyasi koeffitsiyentlari aniqlanadi: $b_j = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N x_{ji} \bar{y}_i .$

Natijada birinchi darajali regressiya tenglamalarini yozish mumkin bo'ladi:

$$\hat{y} = b_0 + b_1 x_1 + b_2 x_2 + b_3 x_3 .$$

Regressiya koeffitsiyenti naqadar e'tiborga loyiq ekanligini tekshiramiz, ya'ni faktorning javob funksiyasiga ko'p yoki kam ta'sir chegarasini xarakterlovchi qandaydir kritik sathni aniqlovchi koeffitsiyentlar dispersiyalarini hisoblaymiz:

$$\tau^2(b_j) = \frac{\tau_{mx}^2}{Nm}$$

Regressiya koeffitsiyentining chegaraviy qiymati yoki ishonchli chegarasini quyidagicha topamiz:

$$t_j(t) = \frac{|b_j|}{\tau^2(b_j)}$$

va dispersiyani baholaymiz:

$$S_{\hat{e}\hat{e}}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N (y_i - \hat{y}_i)^2}{N - l}$$

l -modelning hisoblanayotgan koeffitsiyentlar soni.

Fisher kriteriysi:

$$F = \frac{S_{\hat{e}\hat{e}}^2}{S_{\hat{o}\hat{e}\hat{e}}^2}$$

$F_1 \leq F_2(f_1, f_2)$ bo'lganda modelning adekvatligi rad etilmaydi va uni berilgan texnologik jarayonni optimallashtirish uchun ishlatish mumkin. Aks holda $F_1 > F_2(f_1, f_2)$ bo'lganda model adekvat emas va undan foydalanish mumkin emas.

3. Ishni bajarish tartibi.

- 1) Talaba o'ziga berilgan variantdagi y_{i1} va y_{i2} uchun qiymatlarni EHMga kiritadi.
- 2) Jadvalda berilgan ustunlar asosida olingan natijalardan foydalanib Koxren me'zoning hisobiy va jadval natijalari tekshiriladi.
- 3) Agar tajribalar Koxren me'zoni bo'yicha qayta takrorlansa, Student me'zoni bo'yicha model koeffitsiyentlari muhimlikka tekshiriladi.
- 4) Olingan model Fisher me'zoni bo'yicha adekvatlikka tekshiriladi.

4. Tekshirish uchun savollar.

- 1) Tajribani rejalashtirish usulining mohiyati nimadan iborat?
- 2) To'liq faktorlar eksperimentining qanday xossalari bor?
- 3) Qanday me'zon asosida dispersiyaning bir jinsligi aniqlanadi?
- 4) Matematik model koeffitsiyentlari qaysi me'zon asosida muhimlikka tekshiriladi?
- 5) Modelning adekvatlik shartlari qanday?

8-Tajriba ishi.

Chiziqli tizimlarni avtomatik boshqarishni ustivorlik va sifat tahlili.

Ishning maqsadi. Korrelyatsion taxlil usulidan foydalangan holda obyekt modelini tuzish va o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni aniqlash.

1. Nazariy qism.

Statistikani usullari ularni qo'llanilishi nuqtaiy nazaridan ikki xil usulga bo'linadi.

1. O'rganilayotgan tasodifiy kattaliklarning no'malum haraktiristikalarini hisoblashga yo'naltirilgan usul.
2. O'rganilayotgan kattaliklar o'zaro aloqalarini (korrelaksiya) aniqlashga yo'naltirilgan usul.

Korrelyatsion taxlilda X va Y - bu ko'p martalab tajribani qaytarganda juft xolda yuzaga keladigan teng xuquqli ikki o'lchanuvchang tasodifiy kattaliklaridir. Korrelyatsiya taxlilining vazifasi - X va Y kattaliklarni bir vaqtda nazorat qilinayotgan qiymatlarni qayta ishlashdan va ular orasidagi aloqani aniqlashdan iborat.

n xajimli o'lchashlar natijasida n ta juft ma'lumot olingan bo'lsin

$$(X_1 Y_1); (X_2 Y_2); (X_3 Y_3) \dots (X_n Y_n)$$

Ush bu natijalarini taxlil qilish X va Y qiymatlarining o'rta arifmetik qiymatlari \bar{X} \bar{Y} hamda empirik dispersiyalarini S_x^2 S_y^2 hisoblashdan boshlanadi

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i, \quad \bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n Y_i$$

$$S_x^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2, \quad S_y^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2$$

Endi bizni X va Y orasidagi aloqa mavjudligi qiziqtiradi. Bu ma'lumotni bizga empirik kovariatsiya funksiyasi beradi.

$$Cov(x : y) = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}).$$

Empirik kovariatsiya X va Y kattaliklar orasidagi aloqaning zichligini ko'rsatadi. Kovariatsiya funksiyasi o'lchovli kattalik bo'lib, hisoblash ishlarida ancha noqulayliklar tug'diradi. Shuning uchun kovariatsiyani $S_x S_y$ o'rta kvadratik og'ishlar orqali normallashtirib korrelyatsiya koeffitsientining empirik qiymati topiladi.

$$r_{xy} = \frac{\overset{n}{Cov}(x : y)}{S_x S_y}$$




Korrelyatsiya koeffitsenti o'lchovsiz kattalik bo'lib X va Y kattaliklar orasidagi aloqa darajasini ko'rsatadi:

$$r_{xy} = \left(\frac{1}{n-1}\right) \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{S_x S_y},$$

yoki, bir parametrlilik regressiya tenglamalarining koeffitsiyentlari xisolangan bo'lsa:

$$r_{xy} = \frac{b_1 S_x}{S_y} = b_1 \sqrt{\frac{n \sum_{i=1}^n x_i^2 - (\sum_{i=1}^n x_i)^2}{n \sum_{i=1}^n y_i^2 - (\sum_{i=1}^n y_i)^2}}$$

Korrelyatsiya koeffitsenti $[-1:1]$ bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi.



Ikki o'zgaruvi uchun qilingan taxil X_i o'zgaruvchili hol uchun quydagicha qo'llaniladi. Ko'p o'lchovli tasodifiy X vektor olamiz bu vektor quydagicha keltirilgan bo'lsin.

$$X = (X_{1i} X_{2i} \dots X_{pi}) i = 1, 2, \dots, n$$

R – Faktorlar soni
 i – tajriba nomeri
 n – tajribalar soni

Ushbu tasodifiy vektor komponentlarining orasidagi barcha juftlik korrelyatsiyalari empirik kovariatsion matritsasini hosil qiladi $CoV(X_n: X_n)$ Ushbu matritsaning diagonal elementlari faktorlar soniga teng bo'lib har bir faktorning empirik dispersiyasidan tashkil topgan bo'ladi. Matritsaning o'zi esa $R \times R$ o'lchamli kvadrat matritsadan iboratdir:

$$V_q^n = \begin{bmatrix} S_{X1}^2 & Cov(x_1, x_2) & \dots & Cov(x_1, x_p) \\ Cov(x_1, x_2) & S_{X2}^2 & \dots & Cov(x_2, x_p) \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ S_{X1}^2 & Cov(x_1, x_2) & \dots & Cov(x_1, x_p) \\ Cov(x_p, x_1) & Cov(x_p, x_2) & \dots & S_{Xp}^2 \end{bmatrix}_{p \cdot p}$$

Ushbu matritsa elementlarini o'rta arifmetik S_{XK} va S_{Xi} orqali normallashtirib empirik korrelyatsiya matritsasini ko'rib chiqamiz.

$$r_{xy} = \frac{Cov(xy)}{S_x S_y}$$

$$R_x^n = \begin{bmatrix} 1 & r_{x_1, x_2} & \dots & r_{x_1, x_p} \\ r_{x_2, x_1} & 1 & \dots & r_{x_2, x_p} \\ r_{x_p, x_1} & r_{x_p, x_2} & \dots & 1 \end{bmatrix}$$

Korrelyatsion matritsaning eng muxim xususiyatlaridan biri - ushbu matritsa aniqlovchisining quyidagi shartni bajarilishidir $0 \leq |R_x| \leq 1$

Korrelyatsion matritsa aniqlovchisini \bar{X} vektor komponentlar orasidagi aloqaning chuqirligini ko'rsatadi. Agar $|R_x| \rightarrow 1$ \bar{X} vektor komponentlari bir biriga bog'liq emas deb tushiniladi.

Agar $|R_x| \rightarrow 0$, aksincha aloqa juda yaqin deb tushiniladi.

9-Tajriba ishi.

Rostlanuvchi o'zgarmas tokli elektr yuritmaning strukturasi, ishlash rejimlarini o'rganish va harakat tavsifining tahlili.

Regressiya taxlili dispersiyalarning birjinsligi o'rnatilgandan kegin o'tkaziladi.

$$G_{\max} \leq G_p(N, m-1) \quad G_{\max} = \frac{S_{\max}^2}{\sum_{i=1}^n S_i^2}; \quad S_i^2 = \frac{\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y}_i)^2}{m-1} \quad i = 1, 2, \dots, n$$

Bu yerda

m – parallel tajribalar soni.

$$\bar{y}_i = \frac{\sum_{u=1}^m y_{iu}}{m}$$

Kegingi bosqichda tiklanish dispersiyasi xisoblanadi:

$$S_{\text{soch}}^2 = \frac{\sum_{i=1}^n S_i^2}{N}$$

va bu dispersiyaning erkinlik darajasi aniqlanadi:

$$f = \frac{|b_j|}{S_{bj}}$$

bu yerda S_{bj} - j koeffitsiyentining o'rtakvadratlik og'ishi.

F – kriteriyasi bo'yicha S_{kolod}^2 , bilan taqqoslanadi:

$$S_{\text{kolod}}^2 = \left(\frac{1}{N-n-1} \right) \sum_{i=1}^N (y_i - \bar{y}_i)^2;$$

3. Ishni bajarish tartibi.

1) Talaba o'ziga berilgan variantdagi ma'lumotlar asosida bir faktorli hol uchun kirish va chiqish signallari orasidagi bog'liqlik darajasini aniqlovchi dastur tuzadi.

2) Dastur asosida ma'lumotlarni EHMga kiritib kirish va chiqish signallari orasidagi bog'liqlik darajasi haqida korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatiga qarab xulosa yozadi.

3) Variantdagi ma'lumotlar asosida ko'p faktorli hol uchun chiqish signallari orasidagi bog'liqlik darajasini aniqlovchi dastur tuzadi.

4) Dastur asosida ma'lumotlarni EHMga kiritib chiqish signallari orasidagi bog'liqlik darajasi haqida korrelyatsiya matritsasining aniqlovchisi qiymatiga qarab xulosa yozadi.

5) Olingan natijalar asosida laboratoriya ishi uchun hisobot tayyorlanadi.

4. Tekshirish uchun savollar.

- 1) Ushbu laboratoriya ishining maqsadi qanday?
- 2) Korrelyatsiya koeffitsiyentining fizik ma'nosini tushitiring.
- 3) Bir faktorli hol uchun korrelyatsiya koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
- 4) Korrelyatsiya matritsasining aniqlovchisi qiymatiga ko'ra faktorlar orasidagi bog'liqlik qanday aniqlanadi?
- 5) Olingan natijalar asosida xisobot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Besekerskiy V.A., Popov E.P. Teoriya sistem avtomaticheskogo regulirovaniya. M.: 1976.
2. Voronov A.A. Osnovi teoriya avtomaticheskogo upravleniya. M.: 1980.
3. Teoriya avtomaticheskogo upravleniya. ch.I pod.red. Voronova A.A. M.: 1986
4. Metodi teoriya avtomaticheskogo upravleniya. 1-tom. pod.red. N.D.Egupova. M.:2000.
5. Dorf R., Bishop R. Sovremennie sistemi upravleniya. M.: 2002.
6. <http://www.ispu.ru>
7. <http://www.matlab.ru>

1.1.
Ta'l

1-Mavzu

